Musiqa madaniyati mashg'ulotlarida folklor namunalaridan foydalanishning qulay jihatlari shuki, oddiy xalq tili bilan kuylangan qo'shiqlar va harakatlar o'rganuvchiyoshlar ongida tez shakllantiriladi. Folklor san'ati ko'p asrlar davomida shakllanib, turli davrda yashab kelgan mahalliy aholi ruhiyatidan oziqlangan holda bizgacha yetib kelgan. Mahalliy xalqning madaniy turmushida muhim ahamiyatga ega ijtimoiy va tabiiy hodisalar o'ziga xos urf hamda turli marosim shaklida nishonlanib kelinayotganligi mutaxassislar tomonidan qayd etilgan. Mashhur faylasuf al-Farobiy, Axmad Farg'oniy, alloma Abu Rayxon Beruniy, buyuk Abu Ali ibn Sino, Abu Abdullo Rudakiy, Abdulqosim Firdavsiy va boshqalar O'rta Asr Sharq madaniyatiga katta xissa qo'shdilar. Ayniqsa, al-Farobiy va ibn Sino Sharq musiqashunosligi ravnaqiga ulkan xissa qo'shdilar.

XI-XV asrlar davomida o'zbek xalqi madaniyati yangi cho'qqilarga erishdi. Temuriylar davrida o'zbek musiqa madaniyati yuksak rivojlandi. Bunda Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zaxiriddin Muxammad Bobur kabi ulug' allomalarning xazmatlari alohida xurmatga sazovor.

O'zbek xalq musiqa madaniyati qaqida fikr yuritganda, albatta, mustamlakachilik davridagi muammolarga to'xtalish zarur. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan Rossiya

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

mustamlakachilik va uning madaniy merosimizga salbiy ta'siri ham ijod namunalarining bir qismini yo'qolib ketishiga sabab bo'ldi. Ammo, shunga qaramay, milliy san'atimiz izchil rivojlanaverdi. Xususan, ijrochilikning Buxoro, Xorazm, qo'qon yo'nalishlari saqlanib qoldi. Shuningdek, O'zbekistonning barcha qududlarida o'ziga xoslik mavjud bo'lishiga qaramasdan, o'zbek xalq Musiqa madaniyati saqlanib qolindi. Barchamizga ma'lumki, toki shu kunga qadar qancha bosqinchilik, talon-taroj ishlari bo'lmasin, o'zbek xalq musiqa madaniyati davr uchun, kishilar tarbiyasi uchun kerakligicha qoldi. Mana mustaqilligimiz tufayli tarixiy madaniyatimiz adabiyot va san'atimiz tilimiz dinmizga ega bo'ldik.

Milliy qadriyatlarimiz qayta tiklandi. O'zbek xalqi milliy o'zligini anglashda faollikni egalladi. Demak, bizning oldimizda o'zbek xalq musiqa madaniyatini yosh avlod tarbiyalashda muximligini anglagan xolda, Vatanga bo'lgan muxabbat ruxida tarbiyalash vazifasi turibdi.



Hali badiiy so'z ifodasining shakli topilmagan davrlardayoq odamlar turli qarakatlarda, bir-biriga ovoz bilan, qarsak bilan munosabatda bo'lishni bilganlar. Keyinchalik qadimgi odamlar gapirishni, yozishni o'rganganlarida o'sha so'zlarni oqangga solib avval so'z o'yinlarini, so'ngra kichik-kichik otishmalarni o'rgana boshlaganlar.

Sekin-asta zamonlar o'tishi bilan ular qamishlardan surnay, qayvonlar terisidan urib chalinadigan do'mbiralalar yasab ko'ngillarini shod qilishni boshlaganlar. Bu kunlar biror bir katta qayvonlarni ushlab, undan taom tayyorlashib, o'zlariga yaqin odamlar bilan baham ko'rishgan vaqtlarida tuni bilan olov yoqib amalga oshirishgan. Hozirgi bayramlarning paydo bo'lishiga asos bo'lgan bo'lsa ajab emas...

Shu tariqa rivojlanish sekin-asta avj olgan. Odamlar bir-birlari bilan gaplashishni, jamoa bo'lib yashashni, oila qurishni o'rganganlar. Farzandlar tug'ilganda, o'g'il bolalar biror-bir qunarga o'rgatilgan kunlar bayramga aylanib borgan. Ular do'mbira va surnaylar chalib tuni bilan bayramlar qilib chiqqanlar. Shu zaylda musiqaga asos solingan. Keyinchalik katta-katta doston, marsiyalar paydo bo'lgan. Ushbu doston marsiyalarda xalq dardi, yashash tarzi, tuzilishi, meqnatqo'shiqlari xaqida kuylangan...

Xususan, Mavlono Kavkabiylar Buxoroiy va Darvesh Ali Chang'iylarning musiqiy-nazariy risolalari shu paytda yozilgan bo'lib, musiqa san'atida katta ahamiyat kasb etgan.

Bu davrda eng katta salobatli maqomlarimizdan "Shashmaqom" turkumi mukammal shaklga kirdi. Shuningdek dostonchilik san'ati ham yuksak rivojlandi.

XIX asrlarning II-yarmida Turkiston xonliklari rus chorizmi tomonidan bosib olina boshlandi, natijada musiqa madaniyatimizga Rossiya orqali Yevropa musiqasi ta'siri jarayoni boshlandi. Sho'ro davrida musiqa madaniyatimizda turli o'zgarishlar ro'y berdi, chunonchi maktab ta'limi va musiqa o'quv yurtlarida musiqani yevropacha (fan sifatida) o'rganish joriy etildi. Shuningdek teatr, kontsert muassasalari tashkil etildi. Kompozitorlik musiqa ijodiyoti uslubi vujudga keldi, natijada o'zbek kompozitorlari yetishib chiqdi.

Ayniqsa shu uslubda ijod etilgan bolalar musiqasiga e'tibor kuchaydi.

O'zbek xalqining folklor janrlari juda xilma - xildir. Har bir vohaning etnik joylashishiga, urf-odatiga qarab folklor janrlari va uslublari turlichadir. Farg'ona vodiysida lapar ko'proq ijro etilsa,

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

alla, yor-yor ijrolari turlicha ijro etiladi. Terma, o'lan ijrolari ham har-xil uslubda ijro etiladi. Folklor san'ati xaqida so'z borar Alla ijrosi xalq orasida juda keng tarqalgan ijrodir. ^[5]

Alla-bolalar folklori janri sifatida dunyo xalqlari adaboyotida fikr, mulohazalar yetarlicha. Bu janr o'zbek bolalar folklori janri sifatida ham bir qancha tadqiqotchilarimiz tomonidan o'rganilib, o'ziga xos tavsiflarga ega bo'lgan. Shuningdek, professor To'ra Nafasof allalarning tuzilishi xususida so'z yuritir ekan, allalar xalq qo'shiqlarinnng bir janri sifatida o'ziga xos tuzilishga ega ekanligini ta'kidlaydi. Professor To' ra Nafasovning fikriga ko'ra allalarning bandi miqdori turlicha. Eng kichigi ikkiliklardan iborat. To'rtliklar allalarning asosini tashkil etadi. Beshlik, oltilik, sakkizlik va undan ko'p misrali allalar ham mavjud. Hatto 20 misralik allalar ham yozib olingan. Ko'rinadiki, allalarning misralarida cheklanish, deyarli, yo'q.



Allalarning miqdori allachining holati, kayfiyati, bilag'onligi, zukkoligi, donoligi, she'riyatga munosabati kabi qator omillarga bog'liqdir. To'rtliklar shaklidagi allalar tuzilish jihatidan xalq qo'shiqlariga o'xshab ketadi. O'xshash deyish albatta shartlidir, ya'ni faqat misralarning miqdorida bir xillik bor. Allalarni onalar dunyosisiz , sezgilarisiz, tashvishlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi, biroq bularning barchasi instingtiv tug'ma sezgirlik tarzida emas, balki, ming yillar davomida yashagan onalarning necha-necha avlodlari yaratgan hayot tajribalari sifatida, ularning qanchadan-qancha yanglishuvlari, ajralishlari, kuyinishlaridan tug'ilgan achchiq saboq sifatida yuzaga kelgan.



O'zbek xalq folklori tarixiga nazar solsak unda noyob milliy – ma'naviy qadryatlarimiz, milliy g'ururimiz, konstitutsiyalarimiz, ona Vatanimiz madxi kuylanadi. milliy musiqa – insonning qalb kechinmalarini mumtoz kuy qo'shiqlar maqom san'ati, an'anaviy qo'shiq ijrochiligi ortsepi bayoti etsa, zamonaviy musiqa milliy estrada janri, lirikohanglarini zamonaviy topqini orqali kuylashadi. Dehqonchilik mehnati bilan bog'liq "Qo'sh haydash", "Xo'p mayda", "Yorg'inchoq" aytimlarida alohida urg'ulangan so'zdosh xususiyati ohanglarning o'rni katta. Musiqashunoslik, etnomusiqashunoslikning dolzarb muammolari va yechimlari sababi bor albatta. Chunki, bunday qo'shiqlar vositasida dehqon "o'ziga va ho'kiziga dalda berishni maqsad qiladi" hamda mehnat ishtirokchilari harakatini o'zaro mutanosib bo'lishiga ko'mak bergan bo'ladi" [4].


Xususan, dehqonchilik qo'shiqlarida bir tovushga ba'zan yondosh ikki tovush nisbatiga tayangan ritm yettiligi katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois bu qo'shiqlarda 7-bo'g'inli she'rlar keng qo'llaniladi. "Xo'p mayda" qo'shig'ida yetti tuzilmasi "re" tovushi asosida hosil qilinib keyingi misrada kvartagacha, uchinchi misraga kelib esa kvinta doirasiga yetadi hamda to'rtinchi

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

misra davomida tayanch "re"ga qaytib tushadi. Qo'shiqning naqaratida yettilik tuzilmalari ritm jihatdan yanada salabatli tus oladi.

Ota-bobolarimizdan meros qolgan an'analarning barchasi ta'lim-tarbiyaga rivojiga qaratilgan. Ammo hozirda bola tarbiyasi qiyin muammodek, nazarimizda. Bularga milliy tarbiya tizimining izdan chiqqani, ota-onalarning loqaydsizligi, oynai jahon orqali mazmunan sayoz turli seriallarning namoyish etilishi ham sabab bo'lmoqda. Ilgari o'zbek bolalari kattami-kichikmi, ota-onasi tugul kattalar gapini ikki qilolmasdi, lekin bunday holatlar hozirda adog'iga yetgandek. Xatto ba'zi bir farzandlar orasida ota-onasini behurmatlash hamda qariyalar uyiga olib borib qo'yish hollari ham uchramoqda. Shuning uchun bunday ko'ngilsizliklarning oldini olishda keng jamoatchilik faoliyatini jadallashtirishimiz, yangi istiqbol rejalar xususida bosh qotirishimiz lozim. Yoshlar ma'naviy kamol topib borib jamiyat rivoji uchun yetuk shaxs etib tarbiya topar ekan, o'zining bor imkoniyatlarini ishga solib, iste'dodini to'la namoyon etishi zarur. Zero, ma'naviyatga hurmat, uning o'ziga bo'lgan hurmatdir.

Musiqa madaniyati darslarida an'anaviy milliy qo'shiqlarimizdan foydalanishning muhim ahamiyati shundaki, avvalo asrlar bo'yi xalqimizning boy, ulkan merosiga aylangan maqom ijrochiligidan insonlarga kuchli ta'siri va ta'siri yuksakligidadir. Mashhur xofizlarimiz tomonidan yuqori saviyada ijro etilgan bu ashulalar o'quvchilarda ham ichki tuyg'uni ota-bobolarimizning ulkan tarix zarvaraqlarini inson organizmiga qay darajada ta'sir etishi ma'lum bo'ladi. Chunki, musiqa insonning asab tizimiga ijobiy yordam beradi.



Demak, o'zbek xalqi tomonidan yaratilgan xalq qo'shiqlari nafaqat musiqa darslarida, balki, insonlarning dam olishlarida ham o'z ta'sirchanligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, yashash, ishlash bor ekan, intilish ham bo'ladi. Taraqqiyotimiz qanchalar jadal bo'lsa, hayotda shu qadar qiyinchilik va muammolar ham bisyor bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda, so'z san'atining ibtidosi sanalgan folklor namunalariga suyanilgan holda amalga oshirilsa, vanada samarali va ta'sirchan bo'ladi. Xalqimizning milliy taraqqiyotida, ijtimoiy, iqtisodiy vama'naviy yuksalishida folklor, umuman, badiiy so'z san'ati hamisha tayanch nuqta bo'lib kelgan. Zero, folklor - bu millatning quvvati, tirikligi va buyukligidir. Bugungi global jamiyatda davlat chegaralari qo'riqlangani, muhofaza etilgani kabi, millat tili va tafakkuri, estetik didi ham huddi shunday asrab-avaylanishga, qattiq himoyaga muhtojdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev "Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar - ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir" Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati IV Qurultoyidagi ma'ruzasi
2. Nurmatova M. A. «Musiqa o'qitish nazariyasi, metodikasi va maktab repertuar» fani bo'yicha o'quv qo'llanma -Ur., 2006 yil
3. Sharipova G. «Musiqa o'qitish metodikasi» (ma'ruzalar matni) - ., 2000 yil
4. Omonullaeva D. «Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan lektsiyalar tezislari» -T., 1990 yil
5. Ibrohimov O.A. „O'zbek xalq musiqa ijodi“ (metodik tavsiyalar 1- qism),Toshkent.1994 y

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

6. Panjiyev Q. B. O'zbek xalq qo'shiqchilik ijodiyoti. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2022.
7. E.Umarov. Estetika T.: "O'zbekiston", 1995 y.,



УДК 782

РОЛЬ МУЗЫКИ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ ДЕТЕЙ

Усубалиева Ж.У.

преподаватель кафедры музыкального образования и методики
преподавания

Ошского государственного педагогического университета, Кыргызстан

Аннотация: в данной статье рассматривается влияние музыки на развитие и формирование личности человека. Музыка, как универсальный язык эмоций, играет ключевую роль в социальном и психологическом становлении индивида. Авторы анализируют различные аспекты восприятия музыки, включая её воздействие на эмоциональную сферу, социальные навыки и креативность. Особое внимание уделяется влиянию музыкального воспитания в детском возрасте, а также роли музыки в подростковый период, когда происходит активное формирования идентичности. Статья опирается на современные исследования в области психологии, нейробиологии и социологии, демонстрируя, как музыка может служить инструментом для самовыражения, укрепления межличностных связей и развития эмоционального интеллекта. Авторы также освещают потенциальные терапевтические эффекты музыки, включая её использование в психотерапии и реабилитации. Музыка способна вызывать широкий спектр эмоций — от радости до грусти. Она помогает нам осознать и выразить свои чувства, что особенно важно в юном возрасте, когда человек только начинает понимать свои эмоции.

Ключевые слова: музыка, личностное развитие, эмоциональное выражение, креативность, социальные навыки, музыкальное образование, когнитивные способности.

Abstract: This article examines the influence of music on the development and formation of human personality. Music, as a universal language of emotions, plays a key role in the social and psychological development of an individual. The authors analyze various aspects of music perception, including its impact on the emotional sphere, social skills, and creativity. Particular attention is paid to the influence of musical education in childhood, as well as the role of music in adolescence, when identity is actively formed. The article draws on modern research in psychology, neuroscience, and sociology, demonstrating how music

can serve as a tool for self-expression, strengthening interpersonal connections, and developing emotional intelligence. The authors also highlight the potential therapeutic effects of music, including its use in psychotherapy and rehabilitation. Music can evoke a wide range of emotions, from joy to sadness. It helps us realize and express our feelings, which is especially important at a young age, when a person is just beginning to understand his or her emotions.

Key words: *music, personal development, emotional expression, creativity, social skills, music education, cognitive abilities.*

Музыка — это универсальный язык, который сопровождает человека на протяжении всей жизни. От самого раннего детства мы сталкиваемся с мелодиями и ритмами, которые оказывают значительное влияние на наше эмоциональное состояние, восприятие мира и даже на формирование личности. В этой статье мы рассмотрим, каким образом музыка влияет на развитие индивидуальности и самовыражение. Музыка способна вызывать широкий спектр эмоций — от радости до грусти. Она помогает нам осознать и выразить свои чувства, что особенно важно в юном возрасте, когда человек только начинает понимать свои эмоции. Исследования показывают, что привычка слушать музыку и, особенно, заниматься музыкальной деятельностью, способствует улучшению эмоционального интеллекта. Умение распознавать и управлять своими эмоциями — ключевой аспект формирования личности. Музыка играет важную роль в установлении социальных связей. [1,3]

Совместное выполнение музыкальных произведений, участие в концертах или просто слушание любимых треков с друзьями создаёт возможность для общения и укрепления связей между людьми. Это взаимодействие формирует навыки командной работы, учит сотрудничеству и взаимопониманию. Также музыка часто служит способом самовыражения, позволяя людям показать свою уникальность и отличия от других. Музыка является одним из важнейших аспектов культурной идентичности. Слушая музыку, характерную для определённой культуры или народа, человек получает возможность лучше понять свои корни и традиции. Это может помочь в поиске собственного "я" и в осознании своей принадлежности к определённой группе, что, в свою очередь, влияет на формирование личности. Погружение в различные музыкальные традиции также может развивать толерантность и открытость к другим культурным практикам. Научные исследования показывают, что музыкальная деятельность способствует развитию когнитивных функций, таких как память, внимание и креативность. Учёба игре на музыкальных инструментах или сочинение

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

музыки развивает аналитические способности, улучшает мозговую активность и способствует развитию критического мышления. Эти навыки имеют огромное значение при формировании личности, так как влияют на принятие решений, стратегическое планирование и умение справляться с трудностями. [2]

Воспитание детей на основе музыки — это замечательный подход, который может способствовать не только развитию творческих способностей, но и формированию социальных навыков, улучшению эмоционального интеллекта и общему развитию личности. Вот несколько способов, как музыка может быть использована при воспитании детей:

Занятия музыкой (игра на инструментах, вокал) развивают слух, координацию и память. Дети, которые занимаются музыкой, часто имеют более высокие результаты в учебе. Ознакомление с различными музыкальными стилями и культурами помогает развивать уважение и интерес к разнообразию. Походы на концерты, участие в музыкальных кружках или занятия в музыкальных школах укрепляют семейные узы и создают общие воспоминания. Используя музыку как инструмент воспитания, родители и педагоги могут создать уютную и вдохновляющую атмосферу, способствующую гармоничному развитию детей.

Воспитание детей на основе народных песен и музыки кыргызского народа — это уникальный и ценный подход, который помогает сохранить культурное наследие, передать традиции и ценности, а также развивать эмоциональную и социальную сферу ребенка. Вот несколько аспектов, которые можно рассмотреть при воспитании детей через народные песни и музыку:

Народные песни содержат в себе исторические, культурные и жизненные уроки. Слушая и исполняя эти песни, дети могут узнать о своих корнях, обычаях, праздниках и жизненных циклах кыргызского народа.

Через песни дети учатся словам, фразам и выражениям на кыргызском языке. Музыка способствует улучшению памяти и помогает в изучении языка. Музыка способна вызывать разнообразные эмоции. Слушая и исполняя народные песни, дети учатся распознавать и выражать свои чувства, что способствует их эмоциональному развитию. Совместное исполнение песен и танцев помогает детям развивать социальные навыки, учит работать в команде, делиться своими эмоциями и уважать других. Занятия музыкой и танцами стимулируют творческое мышление детей. Это

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

может проявляться как в интерпретации традиционных песен, так и в создании собственных произведений на основе народных мотивов.

Многие народные песни сопровождаются танцами. Участие в танцевальных ритуалах развивает координацию, физическую активность и здоровье детей. Тексты народных песен часто содержат глубокомысленные идеи о добре, любви, дружбе и семье. Это может помочь в формировании у детей нравственных ценностей. [2]

Смешение народной музыки с современными жанрами может сделать её более доступной для молодежи, оставаясь при этом верной традиционному наследию.

Таким образом, интеграция народных песен и музыки в процесс воспитания может стать мощным инструментом для развития гармоничной личности, укрепления культурной идентичности и создания теплой, поддерживающей атмосферы в семье.

Игра на музыкальном инструменте может оказывать положительное влияние на психическое здоровье детей. Исследования показывают, что занятие музыкой способствует развитию различных когнитивных навыков, улучшает концентрацию, память и творческое мышление. Вот несколько ключевых аспектов:

Музыка позволяет детям выражать свои эмоции и чувства, что может помочь в обработке стрессов и переживаний. Игра в группе или на занятиях музыкой способствует развитию социальных навыков, таких как сотрудничество и командная работа. Музыка может служить способом расслабления и снятия напряжения, что особенно важно для детей, испытывающих стресс.

Успехи в обучении игре на инструменте помогают детям чувствовать себя более уверенно и повышают их самооценку. Занятия музыкой связаны с улучшением навыков решения проблем, критического мышления и общей академической успеваемости.

Усиление уроков музыки в начальной школе действительно может оказать значительное влияние на нравственно-эстетическое воспитание детей. Музыка, как форма искусства, способствует развитию эмоционального интеллекта, креативности и социальных навыков. Вот несколько предложений, как можно улучшить музыкальное образование в начальной школе:

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar


- Разнообразие музыкальных стилей и жанров: Включение различных стилей музыки (классическая, народная, джаз, современные направления) поможет детям расширить свои музыкальные горизонты и развить эстетическое восприятие.
- Интеграция музыки с другими предметами: Связывание музыкального образования с литературой, искусством и историей может помочь углубить понимание культуры и развития общества.
- Практическое участие: Уроки должны включать не только теорию, но и практические занятия, такие как игра на инструментах, вокал, создание собственных музыкальных композиций.
- Кросс-культурные проекты: Проведение музыкальных проектов, включающих музыку разных народов, может способствовать уважению и пониманию культурного многообразия.
- Внеклассные мероприятия: Организация музыкальных конкурсов, концертов и фестивалей поможет детям проявить свои таланты, развить уверенность в себе и научиться работать в команде.
- Обучение основам музыкотерапии: Введение элементов музыкотерапии может помочь в эмоциональном развитии детей, научив их справляться с негативными эмоциями через музыку. [4]

Укрепляя музыкальное образование, школы могут внести вклад в становление гармонично развитой личности, способной к эмпатии и понимающей ценность искусства. В целом, игра на музыкальном инструменте может стать важной частью развития детей, поддерживая их психическое здоровье и общее благополучие. Таким образом, музыка играет многогранную роль в формировании личности человека. Она помогает развивать эмоции, строить социальные связи, осознавать культурную идентичность и улучшать когнитивные функции. В современном мире, где обмен информацией и эмоциями становится всё более актуальным, влияние музыки на личность будет только возрастать. Важно не забывать о её ценности и возможности использования как инструмента для самопознания и развития. Музыка — это не просто развлечение, это один из ключевых элементов, формирующих нашу индивидуальность.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Список использованной литературы:

1. Абдуллин, Э. Б. Теория музыкального образования [Текст]: Учебник для студ. высш. пед. учеб. заведений / Э. Б. Абдуллин, Е. В. Николаева. - М.: Академия, 2004. - 336 с.
2. Алиев, Ю.Б. Настольная книга школьного учителя-музыканта [Текст] / Ю.Б. Алиев. - М.: ВЛАДОС, 2002. - 336 с.
3. Лобанова, М. Музыкальный стиль и жанр: история и современность. М.: Сов. композитор, 1990.
4. Мухина В. С. Возрастная психология: феноменология развития, детство, отрочество /. - 7-е издание, стереотипное. - Москва: Академия, 2003. - 456 с.
5. Сохор А. Музыка как вид искусства. М.: Музыка, 1970.-192 с.



3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

KO'P OVOZLI KUYLASHNI SHAKLLANTIRISH ORQALI BOLALAR MUSIQIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

NURDINOV QAMARDIN PATIDINOVICH

Andijon davlat universiteti musiqa san'ati kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola bugungi kunda e'tibordan chetdan qolayotgan o'quvchi yoshlarning ko'p ovozda kuylashga o'rgatish muammolari masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: estetik tarbiya, san'at, xor ijrochiligi, emotsional.

Annotation: The article is devoted to the issues of teaching multi voice singing in chorus teams of elementary schools as the basic for many sided harmonious development of pupils.

Key words: aesthetic education, chorus singing, emotional.

O'zbekistonda musiqa san'atini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari ana shunday muhim tamoyillar va yondashuvlardan iborat. Mazkur tayanchlarga asosan mamlakatda musiqa san'atini rivojlantirishning yangi bosqichi amalga oshirilmoqda. Musiqa ta'limi va san'at tamoyillari "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"da ta'lim tizimini va milliy musiqa san'atini maqsadli rivojlantirish vazifalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida "Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari eng avvalo har qaysi millatning folklor san'atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma'lum. Turli xalqlarning milliy o'zligini, ularning tili va hayot tarzini, an'ana va urf-odatlarini ifoda etadigan baxshichilik san'ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida barchamiz uchun qadrlidir", deya e'tirof etib o'tdilar.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishda musiqiy madaniyatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi, ta'limning barcha bosqichlarida musiqiy ta'limni sifatli tashkil etishga qaratilgan 20 dan ziyod me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bularning barchasi mamlakatimizda maktabdan tashqari, maktabgacha, umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim tizimlarida uzluksiz musiqa ta'limini tashkil etishga zamin yaratdi.

Musiqa – bu to'g'ridan-to'g'ri va kuchli hissiy ta'sir ko'rsatish san'atidir. U ijodiy xususiyatga ega bo'lib, o'z ichiga kompozitorlik, ijrochilik, tinglovchilik, ijodiy faoliyatlarini qamrab oladi va maktabgacha yoshdaagi bolalarning hech bir narsa bilan taqqoslab bo'lmaydigan imkoniyatlarni taqdim etadi.

Musiqiy rivojlanish shaxsning umumiy rivojlanishiga o'rnini hech nima bilan bosa olmaydigan ta'sir ko'rsatadi: emotsional (hissiy) soha shakllanadi, tafakkur takomillashadi, bola san'at va hayot go'zalligiga nisbatan sezgir bo'ladi. Musiqa bilan muntazam shug'ullanadigan insonlarda ijodiy tasavvurlar, oldindan his qilish, keng tafakkurga egalik singari ijodkorlik belgilari boshqalarga nisbatan rivojlangan bo'ladi.

Musiqiy tarbiya, musiqiy faoliyat estetik tarbiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida barkamol avlodni tarbiyalashda yetakchi o'rin tutadigan yo'nalishlardan biri sanaladi. Uning bola tarbiyasidagi roli, birinchidan. Musiqa mohiyatiga ko'ra, bevosita mazmuniga ko'ra emotsional. B. M. Teplov ta'kidlaganidek, shu kabi ajoyib xususiyatlariga ko'ra musiqa emotsional bilishga aylanadi va insonning, ayniqsa bolalikda, emotsional sohasi rivoji uchun hech nima bilan tenglashtirib bo'lmaydigan imkoniyatlar yaratadi.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Mamlakatimizda musiqa ta'limi va musiqa tarbiyasi jarayoniga yondashuvning shakllarini ishlab chiqish ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri iqtidorli talabalar hamda mahoratli ta'lim beruvchilarni tarbiyalashdan iboratdir. Yangi

Musiqa san'ati o'quvchilarning yoshi, jismoniy va estetik imkoniyatlariga mos musiqa asarlarini o'rganish, ularning ijrochiligini o'zlashtirish hamda iqtidorli o'quvchilarni aniqlab, tarbiyalashga asoslanadi. Buning uchun maktabgacha ta'limdan umumiy o'rta ta'limni yakuniga qadar o'quvchilarning ta'kidlangan xususiyatlarini hisobga olgan holda musiqa asarlari o'rganilishi va ularning ijrochiligi o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablaridagi musiqiy ta'limning sifati, bolalar qo'shiqchiligining bugungi ahvoriga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, umumta'lim maktablaridagi musiqa madaniyati fanining 1-7-sinflarga mo'ljallangan taqvimiy-mavzu rejalariga ko'ra musiqa madaniyat darslarida musiqa tinglash, jamoa bo'lib kuylash, musiqa savodi bo'yicha mashg'ulotlar sifati yetarli emas. Bunga sabab ko'plab ta'lim muassasalarida musiqa madaniyati darslarini boshqa mutaxassis-o'qituvchilar tomonidan o'tilayotgani, ularning aksariyati hatto birorta cholg'u sozida chalish malakasiga ega emasligi, darslar she'r yodlash yoki ta'lim mazmuniga muvofiq kelmaydigan qo'shiqlarni eshitishdan iborat bo'lib qolmoqda. Bunday muhitda "tarbiyalangan" yosh avlod vakillarida musiqa madaniyati haqida qanday tushuncha bo'lishi mumkin? Aksariyat umumta'lim maktablarida fortepiano sozi bo'lsa-da, u juda yaroqsiz va nochor ahvolda. Chunki dars davomida undan foydalanishning iloji yo'q. Ayrim ta'lim muassasalarida milliy cholg'u asboblari yetarli emas.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, jamoaviy ijro, ya'ni xor bo'lib qo'shiq kuylovchilar orasida jinoiy va ma'muriy javobgarlikka tortilish ko'rsatkichi ikki barobar kam qayd etilishini, o'rganishlar agarda xor jamoalariga yoki turli ijodiy to'garaklarga aholining atigi 5 foizi qamrab olinganda ham mamlakatning umumiy madaniy darajasi keskin oshishishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Xorda kuylash vositasida yoshlarning chekish, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar iste'mol qilish, ijtimoiy zo'riqish darajasini pasaytirish imkoniyati mavjud. Shu bois san'atning bu turi bugungi kunda qator davlatlar, jumladan AQSH, Germaniya, Avstriya, Rossiya, Italiya, Ispaniya, Shvetsiya, Chexiya, Vengriya, Janubiy Koreya, Xitoy, Indoneziya, Malayziya va Vyetnamda keng rivojlanmoqda.

Bugungi kunga kelib, musiqa san'atining mazkur turiga bo'lgan qiziqish kamaygan. Buning sababi, yuqorida ta'kidlanganidek, umumta'lim maktablarida soha mutahassislarining yetishmasligi, borlari ham o'z ishlariga sovuqqonlik bilan qarashlari oqibatida o'quvchi yoshlarda jamoaviy ko'p ovozlik kuylash haqidagi tasavvurning mavjud emasligidir. Ushbu masalani ijobiy hal etish uchun avvalo, oliy ta'lim dargohlarining musiqa ta'limi yo'nalishlarida xor va xorshunoslik, xor dirijyorligi fanlarini chuqurroq o'rgatishni yo'lga qo'yish, umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida xor ijrochiligi tanlovlarni o'tkazish, "Barkamol avlod" bolalar ijodiy markazlarida xor to'garagi faoliyatlarini kuchaytirish zarur. Buning uchun joylardagi ta'lim muassasalaridagi fortepiano, milliy cholg'u sozlarini yangilash, borlarini ta'mirlab, foydalanishga yaroqli holga keltirish talab qilinadi. Xorda kuylash orqali o'quvchi yoshlarda jamoa bilan ishlash, ko'pchilikni xurmat qilish, o'zbek va jahon kompozitorlari asarlarini o'rganish orqali musiqiy dunyoqarashini rivojlantirish va kengaytirish kabi vazifalar hal etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Farmoni. // "Xalq so'zi" gazetasi 2017-yil 8-fevral soni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // "Xalq so'zi" gazetasi.

2. Sh. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishdagi ma'ruzasi, "Xalq so'zi" gazetasi 2015-yil, 253-soni;

3. Muminova L. R. Bolajon tayanch dasturida bolalar nutqini o'stirish vositalari va bunda folklor asarlarining o'rni. –Sifatli maktabgacha ta'limni joriy etishda yangicha yondashuv// Toshkent, 2014,-b.73;

4. Rejаметова N. I. Musiqa mashg'ulotlarida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish.// Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal// Toshkent. 2017/ 3-son,-b.15;



3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

MUSIQA MADANIYATI DARSLARINI TASHKIL ETISH TAMOIYILLARI
D. Xamdamova. Namanan davlat universiteti San'atshunoslik kafedrası dotsenti
diloromxamdamova1964@gmail.com

ANNOTATSIYA

Musiqa o'qituvchisi musiqa san'atining nazariy va amaliy sohalaridan yetarli darajada bilim, malaka va tajribaga ega bo'lmog'i lozim. Ya'ni u ham cholg'uchi, ham xonanda, ham xor dirijyori, ham jo'rnovozchi va ham musiqa nazariyotchisi va adabiyotchisi sifatida ish ko'rmog'i lozim. Musiqa o'qituvchisi ijodkor sifatida u bir soatlik darsiga senariy muallifi, uning artist-ijrochisi va rejissyori hamdir, shu sabab musiqa darsi san'at darsidir.

Kalit so'zlar: *pedagoglik odobi, pedagogik mahorat, zamonaviy pedagogika, ritmik harakat.*

ANNOTATION

A music teacher must have sufficient knowledge, skills and experience in the theoretical and practical areas of musical art. That is, he must work as an instrumentalist, singer, choir conductor, conductor, music theorist and writer. As a creative person, a music teacher is also the author of the script for an hour-long lesson, its artist-performer and director, therefore a music lesson is an art lesson.

Keywords: *pedagogical ethics, pedagogical skills, modern pedagogy, rhythmic movement.*

Pedagoglik kasbi boshqa kasblardan xarakterli belgilari bilan farq qiladi. Pedagogning mehnat fani odam mehnatining maqsadi insonni qayta o'zgartirish, pedagogning mehnat qurollari – uning nutqi, tafakkuri, irodasi, xakteri va hokazo. Pedagogning mehnat sharoitlari uning ma'naviy-siyosiy qiyofasiga qo'yiladigan yuksak talablar bilan xarakterlanadi, uni doimo takomillashishga, to'xtovsiz o'z ustida ishlashga majbur etadi. Yaxshi pedagog doimo o'z o'quvchilari va ularning ota - onalari xurmatini qozongan bo'ladi.

O'qituvchi maxsus pedagogik malumotga ega bo'lgan va umumiy ta'lim maktabida ta'lim va tarbiyaga doir muayyan ish olib borayotgan kishidir. O'qituvchi so'zi ancha umumiy ma'noga ham ega. Boshqalarda bilim, ko'nikma, malakalarni tarkib topdirayotgan, hayotda murabbiylik qiladigan va hayotga yo'llaydigan hamda pedagoglik faoliyati bilan shug'ullanadigan hamma kishilarni pedagoglar deb ataydilar. Shunday qilib, o'qituvchi va pedagog sinonim so'zlardir.

O'qituvchilik kasbi qiyin kasb. Qiyinchiliklardan biri shundan iboratki, tarbiyaga doir ish natijalari darhol namoyon bo'lmaydi. Bu ish katta sabot- matonat va chidamni talab etadi. Yosh avlodni hayotga tayyorlash jarayonida o'qituvchilar faol ishtirok etadilar. Ular tajribani bir avloddan ikkinchi avlodga berish bilan avlodlar vorisligini ta'minlaydilar. Yangi avlodni biror maqsadga qaratilgan holda boshqarish va tarkib toptirish jarayoni ro'y bermaganda jamiyat o'z rivojlanishida to'xtab qolar edi. O'qituvchilar ana shu jarayonning asosiy ishtirokchilaridir.

Har bir fan o'qituvchisi singari musiqa o'qituvchisi shaxsining qimmatiga baho berish tizimida uning professional yo'nalishi muhim rol o'ynaydiki, uning negizida pedagogik faoliyatga bo'lgan ehtiyoj yotadi. U o'zida: bolalarida qiziqish va muxabbatni, pedagogik ishga havasni, psixologik – pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlikni, pedagogik odobni, pedagogik tasavvurni, tashkilotchilik qobiliyatini, haqgo'ylikni, dilkashlikni, talabchanlik va qat'iylikni, sobitqadamlikni, vazminlikni, chidamlilikni, o'zi haqida fikrga ega bo'lishni, professional ish qobiliyatini va qiziqishini, intellektual faollikni, yangilikni his eta bilishni, pedagogik bilimni mustaqil ravishda oshirishga tayyorgarlikni mujassamlantirgandir.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Musiqa bola hissiyotini, ayniqsa, emosional, estetik hissiyotini faol rivojlantiradi. Musiqa bola ruhiga faol ta'sir etadi, uning axloqiy estetik qiyofasining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi.

Mana shu vazifalarni amalga oshirishda musiqa o'qituvchisining professionallik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Eng avvalo, musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga chin qalbdan mehr qo'ygan, yuksak madaniyatli, ijodkor va izlanuvchan, ilmiy dunyo qarashga ega bo'lgan shaxs bo'lmog'i lozim. U hozirgi zamon fan- texnika talablariga muvofiq yaxshi dars berishi va uning har bir daqiqasidan unumli foydalanishi zarur. O'z ustida ishlashga o'rgangan, hozirgi fan-texnika rivojlangan hamda axborotlar ko'paygan davrda ular ichidan o'z fani uchun kerakli narsani tanlab topa oladigan o'qituvchigina o'quvchilarni bilish, mustaqil fikrlash, mustaqil ishlash qobiliyatini o'stira oladi.

Musiqa o'qituvchisi yaxshi o'qituvchi bo'lishi uchun pedagogika va psixologiya, bolalar fiziologiyasi, estetika va etika nazariyasi, adabiyotni hamda musiqa o'qitish metodikasini yaxshi bilmog'i lozim. Chunki bular bolalarning xarakterini, nimaga moyilligini, o'qitish jarayonida qanday usullardan foydalanish mumkinligini belgilab beradi.

Pedagoglik odobi – bu o'qituvchining sharoitga qarab to'g'ri pedagogik yo'l, metod izlashi, o'quvchilar bilan muomalada o'zini tutish yoki odobidir. Har tomonlama bilimli bo'lgan musiqa o'qituvchisi har qanday savollarga ham javob topa oladi. Musiqa o'qituvchisining mahorati bu- pedagoglik kasbining asosiy ko'rinishidir. Dars jarayonida o'quvchilar bilan bo'lgan muomalada o'qituvchining mahorati ko'zga tashlanadi. Bu o'quvchilarni musiqa faniga qiziqтира olish, ularni mustaqil fikrlashga va vazifalarni mustaqil bajarishga o'rgatish bilan bevosita bog'liqdir.

Mahorat o'qituvchi ongining g'oyaviy-siyosiy yo'nalishi, uning umumiy- musiqiy madaniyati, bilimdonligi, kasbi sohasidagi ko'nikma va malakalar yig'indisidan iboratdir.

O'qituvchi mahoratining mezonini esa o'quvchilarning o'zlashtirishlari va intizomi bilan belgilanadi. U o'z ustida tinmay ishlasa, ta'lim va tarbiya sohasida ilg'or o'qituvchilarning tajribalarini kuzatib va o'rganib, uni o'z ishiga tadbiiq etsa, o'z pedagogik mahoratini oshirib borishi shart. Mumkin mahoratli o'qituvchi hamisha o'quvchilar orasida yuksak obro'ga ega bo'ladi, chunki u o'quvchilar qalbiga to'g'ri yo'l topa oladi.

O'qituvchilik kasbi uchun xos xususiyat bolalarni sevishtirish va ularga g'amxo'rlik qilishdan iboratdir. Agar o'qituvchi bolalarni istaklarini, ichki dunyosini bilmasa va unga qiziqmasa, u o'qituvchi bo'la olmaydi, chunki bolalar mehribon, kamtar, ochiqko'ngil, samimiy, o'zlariga hurmat va ishonch bilan qaraydigan, talabchan o'qituvchilarni yoqtiradilar.

O'qituvchining axloqi pok, iymonli, diyonatli va har tomonlama namunalii bo'lishi kerak. Uning tashqi qiyofasi, jumladan, tartibli, ozoda bo'lishi, madaniy va kamtar kiyinishi bilan ham o'rnak bo'lishi lozim. Shundagina uning har bir so'zi o'quvchilarga ijobii ko'rinishi mumkin.

Bu fazilatlarini bo'lajak o'qituvchi oliii o'quv dargohida o'qib yurgan kezaridayoq egallab borishi lozim. Buning uchun oliii uquv yurti professor o'qituvchilari jamoasining o'zi chuqur bilimli, yuqori malakali va hozirjavob bo'lishlari talab etiladi.

Shuni ham aytish kerakki, musiqa o'qituvchisi doimo izlanishda bo'lishiga, sabr toqat bilan mehnat qilishiga to'g'ri keladi. Endigina oliydargohni bitirib, maktabga kelgan mutaxassis zimmasiga ana shunday mas'uliyatli vazifa tushadi. Biroq o'qituvchi nazariy bilimga ega bo'lmasada, amaliy jixatdan uni tajribali, har tomonlama talabga javob beradigan mutaxassis deb bo'lmaydi. U ko'proq dars kuzatishi, o'qituvchilarning dars o'tish metodlarini o'rganishi, mahoratli pedagoglardan maslahatlar olishi zarur. Uning maktab hayotiga chuqur kirib borishi va

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

tajriba orttirish uchun maktab ma'naviyati, pedagogik jamoa, xalq ta'limi bo'limi va oliy o'quv yurtining g'amxo'rligi talab etiladi.

Zamonaviy pedagogika ta'lim tizimining maqsadi, yangi toifaga mansub bo'lgan musiqa o'qituvchisining umumiy va kasb kamolotiga erishishdan iborat, chunki umumiy o'rta ta'lim maktabi oldiga uning kasb malakasiga va shaxsiy hislatlariga nisbatan yuqori talablar qo'ymoqda.

Darslarda faol qatnashgan, qobiliyatli bolalarni musiqa to'garaklariga jalb etish.

Bolalar musiqa darslarida faqat qo'shiq o'rganish yoki musiqa ritmik harakatlarni egallash bilan cheklanib qolmay, balki musiqa o'qituvchisi ijrosida, disk yoki magnit tasmlari yordamida musiqa asarlarini tinglaydilar, idrok etadilar. Musiqa asoslarini bolalarga tushuntirish va tanishtirish bolalarning musiqiy bilim saviyasini kengaytiradi. Musiqa asarlarini eshitish mashg'ulotlarni mazmunan boyitadi, xilma-xilligini oshiradi, darslarni hayajonli o'tishiga katta yordam beradi.

Bolalar bilganlaricha javob beradilar. Musiqa o'qituvchisi bolalarga ko'rgazmali qurollar yordamida o'zbek milliy cholg'u asboblari ko'rsatib, birma-bir tanishtirib chiqadi, bolalar bilan fikr almashadi. Bolalarda cholg'u asboblari ijro eta olish uchun to'garaklarga qatnashishni tavsiya etadi.

Ko'rib turganimizdek, musiqa o'qituvchisi faqatgina qo'shiq kuylashni emas, balki bir qator musiqiy-nazariy bilimlarga ega bo'lmog'i shart. Musiqa mashg'ulotlari hox u qo'shiq kuylash bo'lsin, xoh musiqa tinglash bo'lsin, xoh nazariy bilimlar bo'lsin yosh avlodni axloqiy poklik, ma'naviy boylik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan har tamonlama etuk shaxs qilib shakllantirishga asos solar ekan.

Demakki, musiqa darslari orqali musiqa o'qituvchisi bolalarda yuksak ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatni, milliy g'urur, vatanparvarlik tarbiyasini, nafosat va badiiy didni o'stirishga, tafakkurlarini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Har bir dars o'z xususiyatiga ko'ra takrorlanmas va bir-biriga o'xshamaydigan bo'ladi. Darsning har bir faoliyati, metodlari, maqsadi va vazifalari erishilmoqchi bo'lingan natijalar avvaldan tuzib chiqilgan bo'ladi.

Qisqa vaqt ichida darsni tashkil etish uchun 3-sinf misolida bir aralash dars turining rejasi quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi. Dastlab darsning maqsadi belgilanadi.

Darsning maqsadi:

1) Ta'limiy maqsad - intonatsiya ustida ishlash, yangi mavzuni tushuntirish, yangi qo'shiq o'rgatish, dars jarayonida avval o'tilgan mavzularni mustahkamlash va dars mobaynida ulardan unumli foydalanish.

2) Tarbiyaviy maqsad - o'rganilayotgan qo'shiq orqali o'z Vataniga, xalqiga nisbatan mehr-muhabbat o'yg'otish, o'z milliy musiqasiga, milliy urf-odatlariga hurmat va faxrlanish hissini o'yg'otish.

3) Rivojlantiruvchi maqsad - Mustaqil fikrlay olish, o'z fikr-mulohazalarini bayon eta olish, boshqa o'quvchilarning xato va kamchiliklarini to'g'ri topib, ularni tuzata olish.

4) Shakllantiruvchi maqsad - Musiqiy qobiliyatni, eshitib aniqlash malakalarini, to'g'ri o'tirish, qo'shiq kuylaganda to'g'ri nafas olish, ovoz apparatidan qoidagidek foydalanishni, musiqiy did va dunyoqarashni shakllantirish.

II Darsning turi: bahs-munozaraga asoslangan intellektual o'yin.

III Darsning ko'rgazmaliligi:

Darslik va qo'shimcha adabiyotlar, cholg'u asboblari (pianino, rubob, doira..), magnitofon yoki gramplastinka, kartochka va plakatlar.

IV Darsning rejasi: Musiqa ohangi ostida o'quvchilar sinfga kiradilar va joylariga o'tiradilar. (o'rganilishi yoki eshtilishi kerak bo'lgan qo'shiq bo'lsa yana ham yaxshi).

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

2) Eshitilgan musiqa yuzasidan fikr-mulohazalar almashinadi. (musiqiy asarning muallifi, qanday janrga xosligi, tempi (sur'ati), ritmi (usuli), tonligi va hokazo.

3) Yangi mavzu: «Tonika».

Kuyning tayanch nuqtasi - tonikadir. Har bir tonlikda tonika mavjud. Musiqiy asarlar o'z yozilgan tonligining tonikasida tugaydi va hokazo.

4) O'rganishimiz kerak bo'lgan «Ota-onalarga» qo'shig'ini tinglaymiz. O'quvchilar qo'shiq borasidagi o'z fikr-mulohazalarini bildiradilar. Qo'shiqning kompozitori haqda o'qituvchi so'zlab beradi. Yangi mavzuga bog'lagan holda o'qituvchi o'quvchilarga asarning tonikasini topishni vazifa qilib beradi.

5)Qo'shiq o'rganib kuylaymiz. (Ovoz sozlovchi mashqlar bilan ovoz sozlanadi, qo'shiq kichik jumalarga bo'lib o'rganiladi)

6)O'qituvchi o'quvchilar bilan qo'shiqni musiqiy (tonligi, o'lchovi, tempi, dinamikasi va boshqalar) va mazmuniy (ota-onaga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg'ulari va hokazo) jihatdan tahlil qilib, o'quvchilar fikrlarini to'ldiradi va qo'shiqning tarbiyaviy ahamiyatini ochib beradi...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoev. "Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar - ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir" Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati IV Qurultoyidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2017 yil 6 iyun
2. MTM da musiqa o'qitish metodikasi, Ma'ruzalar matni, 2016 y
3. T. Ortiqov, Musiqa o'qitish metodikasi, 2016 y, NamDU
4. Musiqiy tarbiya- ma'naviyat asosi, NamDU, to'plam, 2017 y
5. Sharipova G. Xo'djayeva Z. Musiqa o'qitish metodikasi. Darslik T."NIF MSH" 2020
6. G.M.Sharipova, D.F.Asamova, Z.L.Xodjayeva. Musiqa o'qitish metodikasi nazariyasi va maktab repertuari. O'quv qo'llanma. T. 2014

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

AN'ANAVIY IJROCHILIKDA KO'P OVOZLIK IJROLAR MASALALARI

Shokirov Toxirjon Nurmamatovich

Farg'ona davlat universiteti musiqa ta'limi va madaniyat

kafedrası katta o'qituvchisi. f.f.b.f.d. (PhD)

toxir1304@gmail.com

ORCID ID 0000 0002 2056 2970

Annotatsiya.

Mazkur maqolada o'zbek milliy maqom ijrochiligidagi ko'p ovozlik an'analar keng yoritilgan. Maqolada maqomning tarixiy ildizlari, rivojlanish bosqichlari va ularning zamonaviy ijrochilikdagi o'rni chuqur tahlil qilingan. Shu bilan birga, maqom san'atining nafaqat an'anaviy ijrochilikda, balki zamonaviy musiqiy sahnada ham ahamiyati muhokama qilingan. Maqomning ko'p ovozlik ijrochilik uslublari milliy musiqa merosining boy jihatlaridan biri ekanligi alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: maqom san'ati, ko'p ovozlik, milliy musiqa, an'analar, o'zbek san'ati.

Annotation

This article covers a wide range of vocal traditions in Uzbek national status art. The article provides an in-depth analysis of the historical roots of status, stages of development and their place in modern performance. At the same time, the importance of status Art is discussed not only in traditional performance, but also in the modern musical scene. It has been singled out that the multi-voice performance styles of maqam are one of the rich aspects of the National Music Heritage. This article covers extensively the structural and emotional aspects of maqam compositions, their aesthetic impact of the contribution they contribute to international musical culture.

Keywords: status art, plurality of voices, national music, traditions, Uzbek art.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Kirish. O'zbek milliy maqom san'ati o'zining chuqur tarixiy ildizlari va boy merosi bilan ajralib turadi. Mazkur san'at turi o'zbek xalqining madaniy hayotida alohida o'rin egallab, uning ma'naviy dunyosini boyitib keladi. Maqom musiqasi xalqimizning madaniy qadriyatlarini ifodalovchi muhim san'at turi sifatida hamisha alohida e'tibor markazida bo'lib kelgan. Maqom musiqasining rivojlanish tarixi Sharq musiqiy an'analariga asoslangan bo'lib, unda turli xalqlarning musiqiy madaniyati uyg'unlashgan. Xususan, bu san'at turi qadimiy davrlardan buyon nafaqat ijro uslublari, balki nazariy asoslari orqali ham boyitilib kelgan. Shu jumladan, maqom ijrochiligi jarayonida shakllangan ko'p ovozlik uslubi, musiqaning jozibadorligi va boyligini yanada oshirgan holda, uning tinglovchiga ta'sirini kuchaytirgan.

Bugungi kunda maqom san'ati milliy va xalqaro darajada e'tirof etilayotgan musiqiy janrlardan biri hisoblanadi. "Bu borada BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha YUNESKO maxsus tashkilotining yurtimizdagi tarixiy obidalar, qadimiy shaharlar bilan birga yozma va xalq og'zaki ijodiyoti, katta ashula hamda "Shashmaqom" musiqasining insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga kiritilganligini alohida ta'kidlash zarur"¹.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

An'anaviy ijrochilik va maqom ijrochilik san'ati bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar uning ko'p ovozlik xususiyati Markaziy Osiyo musiqiy madaniyatida muhim o'rin egallashini tasdiqlaydi. A. Ikromovning "Maqomlar va ularning ijrochilik uslublari" (Toshkent, "Fan", 2005, 128-bet) asarida ko'p ovozlik texnikasi va uning maqom va an'anaviy ijrochilik asarlaridagi o'rni chuqur ochib berilgan. Muallif, ayniqsa, maqom ijrochiligining xalqaro maydondagi ahamiyati uning noyobligi va o'ziga xosligi haqida alohida ta'kidlab o'tgan. Juda ko'p

¹ Shokirov T. Monografiya. "O'zbek milliy madaniyatini rivojlantirishda vorislik. ijtimoiy- falsafiy tahlil. (musiqiy meros misolida)". Fargona. Klassik.2023.- b. 4.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

misollar ham keltirgan. Shuningdek, Z. Nizomovning “O‘zbek musiqasi va uning nazariy asoslari” (Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2010, 54-bet) kitobida maqomlarning nazariy jihatlari, ularning tuzilishi va o‘zaro uyg‘unligi batafsil tahlil qilingan. I. Rajabovning “Maqomlar” (Toshkent 2006. San’at nashriyoti. B. 150) kitobida “Shashmaqomga: Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq maqomlari kiradi. Olti maqomning har biri juda katta xajmdagi turkumli asarlar bo‘lib, ularning har biri tarkibida tahminan 20 tadan 44 tagacha katta va kichik maqom yo‘llari bor. Lekin maqomlarning xalq orasida mashhur bo‘lgan cholg‘u, ashula va surnay yo‘llari bilan qo‘shib hisoblaganda, ular juda katta sonni tashkil etadi. Hozirda nashr etilgan kitoblarda maqomlarning cholg‘u va ashula qismlari 208 dan 250 tagacha boradi”². Ushbu asarlar o‘zbek musiqiy merosini chuqur o‘rganish uchun muhim nazariy manba hisoblanadi.

Muhokama va natijalar

O‘zbek maqom san’atidagi ko‘p ovozlik an’analarini o‘rganish natijasida quyidagi asosiy natijalar aniqlangan:

1. **Ko‘p ovozlik ijrochilikning ahamiyati:** Xozirgi davr musiqa ijrochiligida ko‘p ovozliklik jozibasi xukm surmoqda. Internet rivojlangan payt yoshlarimizda butun dunyo musiqa na’munalaridan bahramand bo‘lish imkoniyati mavjud. Asrlardan beri kuylanib kelinayotgan an’anaviy monodik ijrochilik yo‘llari o‘zi juda guzal. Lekin zamon talabidan kelib chiqqan xolda maqom asarlarimizni ayrimlariga ko‘p ovozlikni qo‘llash maqsadga muvofiq degan fikrimiz bor.
2. **Vokal va cholg‘u uyg‘unligi:** Ijro va cholg‘uchilar ansamblining uyg‘unligi masalasi eng muxim masaladir. Ayniqsa ko‘p ovozlikni cholg‘u asboblarida qo‘llash maqom asarlarini tinglovchiga yetib borishida katta ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston xalq artisti Abduhoshim Ismoilov rahbarligidagi

² Ражабов И. Мақомлар. Тошкент. 2006. Санъат нашриёти. Б- 150.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Yunus Rajabiy nomli respublika maqomchilar ansambli ijroga ko'p ovozlikni targ'ib qilish ishlarida ancha yutuqlarga erishdilar.

На сегодня в Кыргызстане имеются 5 пилотных вузов, внедряющих программы многоязычного образования – Кыргызский Государственный Университет им. Арабаева и остальные четыре вуза находятся в южных областях Кыргызстана. Более того, была сформирована команда тренеров и консультантов, состоящих из 15 человек в двух пилотных Вузах Кыргызстана – Кыргызский Государственный Университет им. Арабаева и ОшГУ (Ошский Государственный Университет) для обмена опытом и методических консультаций с другими пилотными Вузами и школами. В 2016 году в ОГПУ (Ошский государственный педагогический университет) открыли три пилотных факультета по специальности: биология, география, физкультура, а также школьное и дошкольное образование. В настоящее время в пилотных факультетах обучаются около 500 студентов по программе многоязычного образования. Нужно признать, что профессиональных педагогов, которые смогут преподавать на двух или трех языках, очень мало. Для решения проблемы, перед ректорами вузов поставлены задачи – дать возможность без отрыва получить второе высшее образование выпускникам-педагогам. Таким образом, многоязычное образование отличается от обычной традиционной системы положительными сторонами. Пилотный проект дает возможность одновременно овладеть государственным, официальным и еще одним из иностранным языком. Также, создает сплоченность в обществе и повышение культуры межнационального общения и все это укрепляет межнациональные отношения. Для достижения поставленных целей необходимо усилить работу над повышением качества образования, необходимо уделять больше внимания на обучение учителей в центрах переквалификации с длительным периодом и эффективным методом, а также стимулировать учителей и педагогов для качественного преподавания своего предмета при помощи системы поощрений. [4]

Внедрение программы «Многоязычного и поликультурного образования» в Кыргызстане имеет потенциально масштабные преимущества, которые могут повлиять на развитие как отдельных учащихся, так и общества в целом. Важно, чтобы при реализации этих программ учли культурные особенности страны и потребности местных сообществ. Это поможет создать устойчивую и многообразную образовательную среду, способствующую гармоничному развитию Кыргызстана в будущем. Многоязычие является мощным инструментом для развития личности, способствуя как когнитивному, так и эмоциональному росту. Оно открывает новые горизонты, формирует культурную осведомленность и улучшает социальные связи. Сегодня, когда мир становится все более взаимосвязанным, способность говорить на нескольких языках становится не просто преимуществом, а необходимостью для успешной самоидентификации и самореализации.

Использованная литература:

1. Вайнрайх У. Одноязычие и многоязычие. Новое в лингвистике. - Вып. 6. Языковые контакты. - М., 1972. - С. 25-60.
2. Верещагин Г.М. Психологическая и методологическая характеристика двуязычия (билингвизма). - М.: Изд-во МГУ, 1969. -160 с.
3. Забелина Н.А. О билингвизме. Теория языка и межкультурная коммуникация. 2007. № 2. С. 14-19.
4. Залевская А.А., Медведева И.Л. Психолингвистические проблемы учебного двуязычия: Учебное пособие. Тверь: Твер. гос. ун-т, 2002. 194 с.
5. Иншакова О.Б., Голикова Е.О. Особенности формирования лексики у детей // Тезисы XIV международного симпозиума по психолингвистике и теории коммуникации. Языковое сознание: устоявшееся и спорное. - М., 2003.-С. 103-105.



3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

LOVE FOR THE HOMELAND IS THE MOST BLESSED EMOTION

R. S. Kushinova. Associate Professor of the Department of Art History, Namangan State University

ANNOTATION

Each person thinks differently about their love and loyalty to their native land. Someone works hard, increasing the material wealth of the Motherland, contributing to strengthening its economic power. Someone else mobilizes their unique talent and energy for the prosperity of the Motherland. This manual aims to develop educational skills through songs in the spirit of the Motherland and patriotism. After all, educating the younger generation in the spirit of peace and love for the Motherland is an urgent issue of the day.

Key words: Motherland, patriotism, feeling, music, pedagogy, aesthetics, culture, technology, tool, education, lesson, students-youth, innovative methods, artistic thinking

ANNOTATSIYA

Har bir inson o'z tug'ilgan yurtiga bo'lgan muhabbati va sadoqatini turlicha fikrlaydi. Kimdir sidqidildan mehnat qilib, Vatanning moddiy boyliklarini oshiradi, uning iqtisodiy qudratini mustahkamlashga hissa qo'shadi. Yana kimdir betakror iste'dodi va kuch g'ayratini ona diyor ravnaqi yo'lida safarbar etadi. Ushbu maqolada Vatan va vatanparvarlik ruhidagi qo'shiqlar orqali tarbiya ko'nikmalarini rivojlantirish maqsad etilgan. Zero, yosh avlodni tinchlik, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash shu kunning dolzarb masalasidir.

Kalit so'zlar: Vatan, vatanparvarlik, tuyg'u, musiqa, pedagogika, estetika, madaniyat, texnologiya, vosita, ta'lim-tarbiya, dars, o'quvchi-yoshlar, innovatsion usullar, badiiy tafakkur

State policy in the field of personnel training aims to awaken a sense of love for the Motherland through intellectual and spiritual-moral upbringing and to form a fully developed personality-citizen with patriotic ideas. Raising the young generation in the spirit of freedom, peace, love for the Motherland and instilling in their minds the ideas of national independence is one of the most important tasks of today. Patriotism means loving one's country, serving it faithfully, mobilizing one's body and soul for its development, peace and independence, and living selflessly.

Sh. Mirziyoyev's Address to the Chamber of the Oliy Majlis in 2017 emphasizes the following: "...when it comes to youth, I always think about one thing. Today, how many of our young people are studying and working abroad. Of course, there are many among them who have found their way and live in a foreign land no less than anyone else. But homesickness torments any person. Therefore, we need to constantly establish contact with them, protect their rights and interests, and strengthen work to support those who wish to return to our country. To this end, we need to establish an international association of youth of Uzbekistan and create appropriate conditions for its effective functioning," said our head of state. It is very necessary to pay special attention to instilling in the younger generation, from an early age, the concepts of our national music and the artistic value of all high arts inherited from our ancestors. Then we would contribute to the upbringing of worthy children with faith and conviction who serve the interests of our New Uzbekistan, who know its language, religion, historical culture, literature and art at a high level, and who are able to live in harmony with its joys and anxieties. In particular, to analyze the factors of instilling national pride through patriotic songs.

Today, the fact that we are effectively using our high, exemplary musical culture for educational purposes is reflected in various cultural events. So, if we are to educate a harmonious generation through art, then we need songs that instill a sense of goodness and nobility, respect for our spiritual values, educate a person in the spirit of truth and justice, and most importantly, a person who can live and sing for their homeland - songs that have an intact national image.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

We need to emphasize to young people in each of our lessons: "The feeling of loving the Motherland is the most sacred feeling for us," and to be able to organize important conversations during short spiritual hours. In order to educate them in the spirit of high spirituality and patriotism, we need to develop musical and artistic taste and the need for musical activities, to enrich the circle of concepts of the Motherland and patriotism, and to develop their feelings of artistic creativity. Naturally, children will gain truly spiritual and aesthetic maturity from the musical art created by mankind. We should not forget that any social phenomenon has both an aesthetic and moral essence. Morality and beauty have long been understood as some kind of structural unity. From a humanitarian point of view, what elevates and adorns a moral and spiritual person is beauty, and what is moral is intrinsically linked to beauty; without this connection, it cannot be recognized as spiritual goodness.

Such noble qualities as the pursuit of knowledge, enlightenment and profession, the sanctity of the family, spiritual purity, respect for elders, compassion for the younger, and loyalty to our values have long been in the blood of our people and nation. We must not only preserve such an invaluable heritage, but also enrich it further, and pass it on to future generations.

To date, almost all sciences are determining the solution to scientific problems through anthropocentric theory. That is, the human factor is taken as the main object, and the influence of external world entities on it is studied on a scientific basis. Music is one of such factors. Its influence on the human psyche, mental development, behavior, upbringing, and even health has long been emphasized by philosophers and artists.

When it comes to national education and upbringing, a person's behavior and dress also reflect the extent to which he is loyal to his Motherland, and today it is worth proudly acknowledging that attention to nationality has increased in Uzbekistan. Under the slogan "National clothes - the decoration of national values", February 11, 2025 will be declared "National Clothes Day" at the Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi.

In such difficult conditions, our youth must be sensitive and aware, and in every issue, first of all, act with the interests of the Motherland in mind. At this point, I urge our esteemed parents, grandparents, dedicated teachers and mentors, respected intellectuals, and the general public to not remain indifferent to this issue and to further strengthen our work aimed at educating young people.



No matter how difficult it is, we must find our own unique and effective methods for the national education of young people, in line with today's times. We must protect our dear children from destructive and harmful ideas, crime, drug addiction, apathy, and a state of spiritual poverty. All of us, and first of all, you, dear young people, must be active in eliminating such negative situations.

The correct choice of national costumes in works that can clearly demonstrate the images in singing our national songs will also be in the attention of the audience. During the visit of the delegation of Namangan State University to the University of Lahore in the Islamic Republic of

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Pakistan on February 25-28, 2025, positive results were achieved by showing the unique traditions of the Uzbek nation. Our delegation was met at the Pakistan airport by a representative of the Embassy of Uzbekistan in Pakistan and Dr. Abuzar Ghaffari from the University of Lahore. The purpose of the visit was to strengthen national and ancient values, scientific and spiritual ties between Uzbekistan and Pakistan, and to demonstrate our ancient traditions and customs...



As you know, the 43rd session of the General Conference of the International Organization "UNESCO" will be held in the ancient and virgin city of Samarkand in 2025. It is gratifying that the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev has planned the participation of higher educational institutions of our homeland in this grand conference. It would not be wrong to say that this is a great joy and opportunity for all of us - teachers and young people. Our event today is a small prelude to the conference in Samarkand.

The goal of today's event, held under the slogan "We are a people who created a great history, a great state, and a great culture," is to promote Uzbek national culture in higher education institutions, further strengthen friendly relations and exchange experiences, and demonstrate the age-old traditions of the scientific and educational heritage of our ancestors in their unique Uzbek manifestations. The talented teachers and students of the delegation became one soul.



During the visit, Dr. Ghaffari introduced the historical monuments and places of interest in Lahore. As the delegation's goal, Abuzar Dr. Ghaffari also discussed the development of friendship and cultural-educational ties based on the requirements of the times, the widespread dissemination of achievements in various aspects of Pakistani life, and the rich history, culture, literature, and art of the country.

Supporting contacts in the field of culture, enlightenment and ancient values, as well as mutual relations and respecting various forms of cultural expression are the goals of the universities operating in both countries, which are carried out on the basis of respect for national values and culture, international solidarity and cooperation, and cultural development in harmony.

Each art has its own tools and materials. For example, in architecture, sculpture, painting, graphics, applied arts use marble, glass, plastic, wood, metal, paints. In music, sound is used, in

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

literature, words, in theater, and in cinema, actors participate. Symbols are created using certain visual means. In this regard, the emotional impact of music on a person was also confirmed within the framework of the above-mentioned visit

National songs, movements reflecting our nationality, songs and dances attracted the attention of the professors and students of Lahore. Seeing the passion and enthusiasm of Pakistanis for our art, I was proud behind the scenes that I am an ordinary citizen of Uzbekistan, that I have my beloved and beloved Motherland ... Thus, art makes life more beautiful, more enjoyable. A music teacher, through his subject, that is, through music, leads students to be moral, to protect the Motherland and serve its future, to do only meritorious deeds in life.

Enjoying the invaluable heritage created by our great ancestors serves as a powerful educational tool in raising our national spirituality, in developing noble human qualities and high feelings in our society. In this sense, studying the images of historical figures at the center of the works of art created by artists, understanding their human image, perceiving the significance of the noble deeds they have done; deeply understanding the greatness, qualities that show their greatness, their struggle and aspirations, and the content of their faith and beliefs forms feelings of national pride and honor in students.

During the school education process, when they sing songs about the motherland, the homeland, and the future that they are learning, they sing these with pride in their hearts. In the literal sense, national pride and loyalty to the homeland are born and begin to mature precisely from this age.

The great attention paid to education today is an important factor in forming the highest feelings in the hearts of our youth, growing students - most importantly, the concept of the homeland, national pride, honor, and loyalty to traditions. In particular, the attention paid to music lessons in schools, In addition, the development and improvement of music and art schools serve as a solid foundation for the reforms being implemented in this regard.

In general, the importance of musical activity in the formation of national pride in young schoolchildren is incomparable. It is not for nothing that great attention is paid to music lessons in schools. Because through singing, praising the Motherland, in a word, loving the Motherland is the most sacred feeling.

References:

1. Report of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at an expanded meeting of the Cabinet of Ministers on the main results of the socio-economic development of our country in 2016 and the most important priority areas of the economic program for 2017. "Xalq so'zi" newspaper. January 16, 2017. 11th issue.
2. Askarova O.M. Practical exercises and problems in pedagogy (Teaching and methodological manual for all pedagogical areas of the bachelor's degree). NamDU. – T.: Istiqlol, 2005
3. G. Sharipova, Music teaching methodology, T., 2008
4. T. Ortikov, Music teaching methodology and school repertoire, T., 2012

Dirijorlik fani haqida

Axmedov Baxodirxon Sayfiddinovich,

Namangan davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi
bahodirxonaxmedov184@gmail.com

Annotatsiya: San'at deganda badiiy ijodni tushunamiz, har bir san'at asari o'z janr xususiyatlariga ko'ra, hayot manzarasini ifodalaydi. Olam hodisalarini yorqin obraz orqali yoki tasvirini musiqa orqali ifodalashga erishadi. U (musiqa) insonning ma'naviy kamolotida faol ishtirok etadi, go'zallik, did haqidagi tasavvurlarining shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Necha ming yillardan beri insoniyat musiqaga, uning go'zal ohanglariga maftun bo'lib keladi, ustoz-shogird an'analari orqali ijrochilik mahoratlarini egallash borasida izlanishlar olib boradi. Bunda musiqiy meros asarlarining uslublarini ma'naviy tarbiya vositasi sifatida o'rgatish katta ahamiyat kasb etadi.

Tayanch iboralar: dirijorlik san'ati, orkestr, xor, metronom, Rimskiy-Korsakov, iste'dod, ifoda vositalari, musiqiy eshitish, xotira, temperament, xirgoyi, ritm hissi, Vagner, musiqiy jumla, mantiqan xirgoyi, tempo-ritm.

Abstract: By art we mean artistic creation, each work of art, according to its genre characteristics, expresses the landscape of life. It manages to express the phenomena of the world through a vivid image or its image through music. It (music) actively participates in the spiritual development of a person, has an effective influence on the formation of his ideas about beauty and taste. For thousands of years, humanity has been fascinated by music, its beautiful melodies, and has been conducting research on mastering performing skills through the traditions of a teacher and a student. In this regard, teaching the styles of works of musical heritage as a means of spiritual education is of great importance.

Key words: conducting, orchestra, choir, metronome, Rimsky-Korsakov, talent, means of expression, musical hearing, memory, temperament, timbre, sense of rhythm, Wagner, musical sentence, logical timbre, tempo-rhythm.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish - davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Ma'naviyat esa uzluksiz, harakatdagi jarayon.

San'atga aloqador boyliklar ma'naviy boylikni tashkil etadi. San'atsiz hayot nursiz, jilosiz, mantiqsiz va zerikarli bo'lib qolardi.

San'atlar ichida eng yoshi va kam o'rganilgani dirijorlik san'ati hisoblanadi. Dirijorlik amaliyoti uning nazariyasini ancha ortda qoldirdi.

Biroq aynan nazariyaga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, dirijorlikka o'rgatish ishida unga ehtiyoj katta. Dirijorlik sohasida ta'lim berish uchun nazariy negiz yaratishga doir izlanishlar tinimsiz davom etayapti, biroq shu paytgacha, hatto eng fundamental tushunchalarning umum qabul qilingan va barcha uchun tushunarli bo'lgan ta'riflari yo'q. Terminologiyani ta'riflashda ham turli, ba'zan bir-biriga zid fikrlar mavjud. Ba'zilar dirijorlik - bu san'at emas, unga o'qitishning hojati yo'q, shunchaki orkestr yoki xor oldida turib, taktga solish yoki metronomlashi kifoya, ya'ni ijro etilayotgan asar taktining alohida qismlarini qo'l bilan ko'rsatsa bas va dirijorning vazifasi shu bilan tugaydi, deb hisoblaydilar. Boshqalar esa, dirijorlik — faqat ichki his-tuyg'ularga asoslanadi, bu qandaydir sehrgarlik va bunga alohida qobiliyatli insonlar qodir, shu sababli dirijorlikka o'rganib bo'lmaydi, deb hisoblaydilar. Har ikkala fikr va unga o'xshash mulohazalarning xato ekanligini isbotlab o'tirish shart emas. Dirijorlik san'atiga bu kabi qarashlarni rad qiluvchi misollar hayotimizda ko'plab uchraydi.

Kirish. Dirijorlik — bu qo'shiq aytish, royal, skripka yoki boshqa cholg'uni chalish kabi ijrochilik san'atidir. Shu bilan birga dirijorlik ijrochilik san'atining boshqa turlaridan jiddiy farq qiladi: agar musiqachilar jonsiz jismda musiqa ijro etsalar (fortepiano, skripka, truba, nay, rubob va h.k.) va ularning ijrolari cholg'uning sifati ham da o'zlarining mahoratlariga bog'liq bo'lsa, dirijor ko'plab bir-biridan farq qiluvchi insonlar bilan ishlaydi. U o'z oldida turgan xor yoki orkestr a'zolarini bir jam oada to'plab, ularni shunday

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

birlashtirishi kerakki, bu jamoa uning boshqaruvida xuddi yaxshi sozlangan musiqa cholg'usidek yangrashi lozim. Aytish joizki, dirijorga o'z san'ati haqida yozishdan ko'ra, dirijorlik qilish osonroq: dirijorlik faoliyatining ko'zga ko'rinuvchi qismini umuman ta'riflash qiyin. Zero, u yoki bu qo'l harakatini musiqasiz, so'zlar bilan tavsiflagandan ko'ra, uni musiqa fonida ko'rsatib bergan osonroq. Shu bois, dirijor ishining o'ziga xosligi, orkestr yoki xor rahbari sifatida uning zimmasiga yuklatilgan vazifaning naqadar murakkabligini hisobga olgan holda aytish mumkinki, bo'lajak dirijor ushbu murakkab va mas'uliyatli ishda muvaffaqiyat qozonish imkonini beruvchi mas'uliyatga, katta musiqiy-nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishi shart.

«Dirijor ko'rish va eshitish san'atiga ega bo'lmog'i lozim, u yengil va ayni paytda kuchli bo'lishi darkor, u sozlar kompozitsiyasini, ulaming tabiati va qamrovini his qilishi, partituraning o'qiy olishi, shular barobarida alohida iste'dod egasi bo'lishi muhim... Uyana o'zi va orkestr o'rtasida ko'zga ko'rinmas aloqa o'rnatilishi uchun kerak bo'lgan yana boshqa, deyarli noaniq xususiyatlarga ham ega bo'lishi shart. Agar dirijor orkestrga o'z hissiyotlarini yetkazish xususiyatiga ega bo'lmasa, unda u orkestr ustidan «hukmronlik» qila olmaydi, unga o'z ta'sirini o'tkazishdan mahrum bo'ladi. Bu holda u Orkestrning dirijori emas, balki oddiygina «takt uruvchi»ga aylanib qoladi, shunda ham agar umuman takti to'g'ri belgilash va ajratishni uddalay olsa!»

Gektor Berlioz.

Asosiy qism. «Dirijor» so'zi turli tillarda turlicha talaffuz qilinadi: nemislar «Dirigent», italyanlar «Dirigente», fransuzlar «Chef orchestre», inglizlar «Konduktor» deyilar.

Har qaysi tilda ham bu so'z rahbar, boshliq, direktor ma'nosini anglatadi. Shunday qilib, dirijor bu - orkestr jamoasining rahbaridir. Uning asosiy vazifasi — bu jamoaning hayoti faol va yaxshi tashkillashtirilgan

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

bo'lishini nazorat qilishdan iborat. Dirijor sozandalar musiqiy asarni uyg'unlikda ijro etishlari, ular asarni birga boshlab, birga tugatishlari, o'z cholg'ularini bir maromda chalishlari, pauzalarni vaqtda ushlab, bir maromda kuy boshlashlarini ta'minlaydi. Dirijor sozandalar ijrosini yagona ritm va tempga moslashtirishi, ularni ijroga yo'naltirish uchun belgi berishi lozim.

Darvoqe, uzoq vaqt davomida ko'pchilik, dirijor vazifasi faqat orkestrning yagona ritmdagi ijrosini ta'minlashdan iborat, deb tushunar edi. Aslida esa dirijorlik kasbi juda murakkab va qiyindir. U juda katta aqliy va asabiy mehnat, doimiy jismoniy quvvat talab qiladi. Demak, dirijor mustahkam salomatlikka va chidam hamda bardoshga ega bo'lishi zarur. Uning uchun zarur bo'lgan o'zini qo'lga ola bilish xususiyati ham salomatlik va asab tizimining ahvoliga bog'liq.

Dirijor 100 dan ortiq musiqachilar faoliyatining asosiy muvofiqlashtiruvchisidir. Uning roli qisman rejissor roliga o'xshab ketadi. Rejissor — teatrdagi sahna asarining badiiy rahbari, spektaklni tayyorlash borasidagi barcha ishlarning boshini birlashtirib turadi. Dirijorni ham bevosita orkestrning rejissori deb qarash mumkin. Shu bois dirijorning o'zi, avvalo, musiqiy asarning g'oya va mohiyatini chuqur anglashi, shundan so'nggina uni orkestrga yetkazib, musiqachilar uning maqsadlarini amalga oshirishlariga erishishi lozim.

Dirijor partiturasidagi unsiz nota belgilariga hayot ato etishi lozim. Bunda u musiqani to'g'ri talqin etishi zarur. O'z ishini yaxshi bilmaydigan yoki iste'dodsiz dirijor tomoshabin oldida, hattoki eng ajoyib musiqiy asarni ham barbod qilishi mumkin. Ayniqsa, asar yangi, hali ko'pchilikka notanish bo'lsa. Shuning uchun yangi asarni ijro etishda dirijor juda ehtiyot bo'lishi kerak. Chunki uni avval eshitmagan tinglovchi dirijor xatolarini bastakorniki deb o'ylashi mumkin.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Albatta, har qanday eng mahoratli, yuksak iqtidor sohibi bo'lgan dirijor ham yomon musiqani yaxshi qilolmaydi. Biroq musiqiy asarning noyob tomonlarini ochib berish, yoki muallif g'oyasini buzib ko'rsatgan holda, bunday xususiyatlarni yashirish - faqat dirijorga bog'liq. Shu bois Rimskiy-Korsakovning «Dirijorlik - qorong'u ish» degan iborasi qaysidir ma'noda shu kungacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Garchi o'sha paytlardayoq Rimskiy-Korsakovga javoban Ippolitov-Ivanov «Bu ish faqat dirijorlik texnikasi asoslari bilan tanish bo'lmaganlargagina «qorong'u ekanligini» aytgan bo'lsa-da, bunday asoslarni nazariy jihatdan ishlab chiqish ishi to'liq yakunlangan deyish qiyin. Barcha musiqachilar kabi, dirijor ham musiqaning elementar nazariyasini, solfedjio, garmoniya, polifoniya, musiqiy asarlar tahlilini yaxshi bilishi kerak. Shuningdek, u inson ovozi haqida umumiy ma'lumotlarga ega bo'lishi, cholg'ushunoslik, musiqa tarixi, estetika va boshqa kerakli sohalaridan boxabar bo'lmog'i lozim. Dirijor orkestr yoki xorga nisbatan rahbar, o'qituvchi, instruktor bo'lishini ham unutmash kerak. Bu mezonlar dirijor xoh yosh, xoh qari, tajribali yoki o'z faoliyatini endi boshlayotgan bo'lsin — barchasiga barobar tegishlidir. Albatta, dirijorlik tajribasini amaliy faoliyatsiz to'plab bo'lmaydi. Biroq bu faoliyatdan oldin, ya'ni boshlovchi dirijor orkestr yoki xor qarshisida turish huquqini qo'lga kiritguncha qilinishi lozim bo'lgan ishlar ko'p. Buning uchun endi faoliyat boshlayotgan dirijor alohida qobiliyatga ega bo'lishi kerak, bu — o'ta muhimdir. Bundan tashqari u yaxshi musiqachi bo'lishi, ya'ni musiqiy madaniyat va bilimga ega bo'lishi lozim. Musiqa sadolarini yaxshi ilg'ash, ritm va temp hissi, musiqiy shakl va uslubni tushunish qobiliyati, musiqiy did, me'yori hissi, musiqiy xotira, temperament va tasavvur kabi ijrochi-musiqachilarga xos xususiyatlardan tashqari dirijor yana bir qator alohida jihatlarga ham ega bo'lishi darkor. Bu avvalo, dirijorning maqsadga muvofiq va ohista harakatlari hamda shunga yarasha yuz ifodasi yordamida orkestr yoki xor a'zolariga musiqiy asarning

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

mohiyatini yetkaza olishdir. Bunda dirijor o'zini nazorat qila bilishi, har qanday vaziyatda tezkor va ifodali bo'lishi lozim. Bularning dirijorga musiqa asarlarini tinglovchi oldida ijro etilayotgan paytda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan og'ir vaziyatlardan muvaffaqiyat bilan chiqib ketishi uchun kerak bo'ladi.

Qisqa vaqt ichida orkestrga kerak bo'lgan hamma narsaga ulgurish lozim. Biroq dirijorning o'zi ham repetitsiyaga muhtoj-ku ayniqsa, agar orkestr bilan yangi musiqiy asarni birinchi bor mashq qilayotgan bo'lsa. Agar dirijor faqat orkestr uchun qavg'urib, o'zi ustida ishlash haqida unutib qo'ysa, ya'ni o'zini nazorat qilishdan to'xtasa, bu uning xatosidir. Agar dirijor o'zi haqidagina o'ylab, orkestrni tashlab qo'ysa, undan-da noto'g'ri yo'l tutgan bo'ladi. Bordi-yu, dirijor orkestr haqida o'ylamasa, o'zining dirijorligi haqida unutib qo'ysa va faqat shunday bo'lishi kerakligi uchungina majburan ishlasa yoki xotirasini sinash maqsadida yoddan dirijorlik qilib, o'z harakatlarining «go'zalligi»ga mahliyolik tuyg'usi bilan yashasa bundan yomoni bo'lmaydi.

O'z vaqtida Gektor Berlioz o'quvsiz pianinochi yoki xonanda ijrosiga chidash mumkin, lekin asar maromini va orkestr jarangini his qilmagan, uyg'unlikni anglamagan, musiqachilarga xalal berayotgan dirijor qancha tashvish orttirishini tasavvur qilish qiyinligini ta'kidlab o'tgan edi. Shu bois, musiqiy va kasbiga xos qobiliyatlardan tashqari dirijor tartibli inson bo'lib, reja bo'yicha ishlashi, repetitsiya maromi va muhitini to'g'ri tashkil eta bilishi lozim.

Ko'rinib turibdiki, dirijorning vazifalari juda ko'p va mas'uliyatli. Xo'sh, musiqa san'ati oldida shunchalik katta mas'uliyatli bo'lgan san'atkor qanday fazilatlar egasi... bo'lishi kerak? Dirijor va orkestr o'rtasida «ko'zga ko'rinmas aloqa» vujudga kelishi uchun zarur bo'ladigan intellektual, badiiy-ijodiy, professional va insoniy fazilatlarning ko'pqirrali majmuasi nimalardan tarkib topadi.

Bu avvalo, keng ko'lamli musiqiy bilimlardir. Dirijor ko'p musiqiy asarlar - ularning shakli, turli davrlarga xos musiqiy tilning xususiyatlarini bilishi

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

kerak. Orkestrning har bir musiqachisi qanday muammoga duch kelishi va uni bartaraf etish yo'lini tushunish uchun orkestrning har bir musiqa cholg'usini yaxshi bilishi shart. Dirijor orkestr partiturasini erkin o'qiy olishi, musiqa tarixi sohasida keng bilim va dunyoqarashga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, agar tartib bilan sanab o'tsak, «iste'dod» deb atashga o'rganganimiz — asosiy ifoda vositalariga kiruvchi musiqiy eshitish, xotira, temperament, tasavvur qilish qobiliyati, musiqiy shakl va ansambl hissi, urg'u sezgirligi, qo'llar va yuzning tabiiy harakatchanligi - bularning hammasi dirijorga orkestr a'zolariga o'zining badiiy maqsadlarini yetkazishga yordam beruvchi vositalardir. Xuddi shu fazilatlar kabi, dirijor qalbida doimo metroritm hissiyoti yashaydi. Bu hissiyot musiqaga shakl, hayot, harakat va rivojlanish beradi. Agar dirijorda texnika iste'dodi bo'lsa, unda uning egiluvchan qo'llari va yuzining, ayniqsa, ko'zlarining ma'nodor ifodasi bilan uyg'unlashsa, dirijorning ajoyib va betakror «tili»ga aylanadi. U ana shu tildan qanchalik unumli foydalansa, o'zining badiiy maqsadlariga shunchalik tez va aniq yeta oladi. Agar dirijorning texnikasi yomon bo'lsa, dirijorga musiqaning nozik qochirimlarini, o'zgarishlarini ifoda etishga xalal beribgina qolmay, unga takti bir maromda chalishga imkon ham bermaydi.

Ba'zi dirijorlarning qo'l harakatlari erkin va plastik bo'lsa-da, ijrochilar ularni baribir tushunmaydilar. Buni shunday izohlash mumkin, ular o'zlarining chiroyli qo'l harakatlari bilan ma'no ifoda eta olmaydilar. Shu bois dirijorga qo'l harakatlarining tashqi chiroyi emas, balki ularning ma'nodorligi va ishon tiruvchanligi muhim.

Yaxshi dirijor bo'lib yetishish uchun ko'p narsani bilish kerak, avvalo, haqiqiy musiqachi bo'lishi kerak. Taniqli dirijor Oskar Frid aytganidek: «Eng nozik musiqiy tasavvurlarni ilg'ashga qodir yurak bilan tug'ilish kerak, ana shu tasavvurlarni g'oyalarga aylantirishga qodir aqlni tarbiyalash zarur, bu g'oyalarni orkestrga yetkazish uchun esa kuchli qo'lga

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

ega bo'lish lozim». Mohir dirijorning san'atini orkestrdan ajratib bo'lmaydi deganimizda, biz avvalo, uning ijrochilar jamoasini ko'p tovushli va rang-barang yagona musiqa cholg'usi sifatida qabul qila olish qobiliyatini nazarda tutamiz. Ana shu yagona musiqiy cholg'u - tirik, o'ziga xos tarzda fikr yurituvchi, his qiluvchi va yaratuvchi ijodkor — musiqachilar guruhidan iborat ekanligini doimo esda tutish kerak. Orkestr jamoasiga uyg'unlashib ketish, butun vujudi bilan nafas olish, kuyiash, ijro etishga qodir bo'lmagan musiqachi mohir dirijor bo'la olmaydi.

Orkestr oldiga chiqishdan avval, dirijor partituranı birinchi notadan so'nggi notasigacha, sinchiklab o'rganib, uni yodlab oladi. Shunga qaramay, pultda juda ko'p buyuk dirijorlar partituranı foydalanadilar.

Ba'zilar esa, yoddan dirijorlik qilib, muxlislarning alohida e'tiborini tortib, olqishiga sazovor bo'ladi. Shu munosabat bilan XIX asarning taniqli dirijori Gans Fon Byulov «dirijorlarnı kallası partiturada va partitura kallasida bo'lganlarga» ajratar edi. Bu - eng asosiy va to'g'ri aytilgan gap.

Dirijor navo, xirgoyi va ritm hissiga ega bo'lishi lozim. Qachonlardir Vagner musiqiy jumlanı mantiqan xirgoyi qilib berishni bilmagan dirijor, to'g'ri tempo-ritmni ham topa olmasligini qayd etgandi. Bu juda to'g'ri. Musiqiy asarning navosini his qilish - musiqaning go'zalligini anglash va uning barcha nozik harakatlari plastikasini ilg'ash. Asarning obrazlilik ruhiyati va uslubiga singib ketishning eng qisqa yo'lidir. Aynan navoni his qilish orqali dirijor yengil va tabiiy tarzda jamoaviy ijod jarayoniga singib ketadi. Dirijorning obrazli tasavvuri kuchli bo'lishi ham juda muhim. Negaki bitta musiqa turli insonlarda har xil tasavvurlarnı vujudga keltiradi. Kompozitor yaratgan musiqa o'zida mujassam etgan barcha narsalarnı qanday qilib anglash va tasavvurda tiklash mumkin? Mana shunda dirijorning ijodiy fantaziyasi va uning obrazli-shoirona fikrlash qobiliyati qol keladi. Muallifga ishongan holda uning ketidan borar ekan, ijro etilayotgan asar g'oyasiga tayanib, dirijor o'z

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

tasavvurida uning mohiyatini tiklaydi, uni aniq obrazlar orqali ko'ra oladi. Albatta, turli ijrochilar asar mohiyatini boshqa-boshqa obrazlarda tasavvur etishlari mumkin. Kompozitor uslubini yaxshi bilish, muallif g'oyasini anglab yetish, nihoyat yaxshi va nozik did, musiqachini asarga xos bo'lmagan mohiyatini tiqishtirishdan saqlaydi, musiqiy asar talqini tabiiy va haqqoniy bo'lishini ta'minlaydi.....

Dirijor, boshqa har qanday ijrochi-musiqachi kabi artist, ijodkordir. Biroq dirijor holati birmuncha murakkab. Yakkaxon-musiqachining cholg'usi royal, skripka. violonchel yoki truba bo'lishi mumkin.

Dirijorning vazifasi — orkestrni o'z irodasiga bo'vsundirgan holda barcha musiqachilarning musiqani yakdil his qilishini ta'minlash, ularni birlashtirib. yuzta turli shaxsdan o'zining har bir harakatiga qarab ish tutuvchi yagona jam oa, organizm yaratishdan iborat. Bunda quvonchli ijod hayajoni, ijodkorga xos va uni san'atga ruhlantiruvchi ko'tarinkilikni asabiylikdan farqlash joiz. Zero, ijodiy hayajonda doimo o'zini tuta bilish, yaxshi kayfiyat, ijodga berilib, sho'ng'ib ketish hamroh bo'lsa, asabiylik. o'ziga ishonmaslik, quyushqondan chiqib ketish kabi salbiy oqibatlarga olib keladi.

O'zini qo'lga ola bilish qobiliyati. bor mahorat ni ishga solish, mavjud bilimlardan to'g'ri foydalanishning birinchi shartidir. Shu bois ijrochining ijodiy harorati, ya'ni uning artistik temperamenti xususiyatlari va undan foydalana olish qobiliyati musiqa ijrochisiga ta'sir qilniay qolmaydi. Ijro jarayonida ana shu «ijodiy harorat chegaralari» juda aniq belgilanishi lozim. Haddan ziyod yuqori harorat asabiylashuvga, badiiy pulsning noaniq bo'lishiga. juda past harorat esa ijodiy jarayonning jonsizlanib, samarasiz bo'lishiga olib keladi. Bulardan birinchisi ijrochini ijodiy jihatdan o'zini qo'lga ola bilishdan mahrum qiladi, ikkinchisi esa hissiyotlarni yo'qqa chiqaradi.

Dirijor ijro etilayotgan asarni juda yaxshi bilishi. nota materialini yaxshi vodlab, o'rganib olishi kerak. Biroq kompozitoming badiiy maslagi va

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

maqsadlarini tushunib. ochib berish uchun uning nota vozuvi zahirida yotgan tub m a'noni chuqur anglashi lozim.

Musiqa sohasidan yiroq bo'lgan tinglovchiga dirijor mehnati ba'zida oson, texnikasi esajo'n va oddiydek tuyuladi. U «dirijor bo'lish uchun musiqa jo'rligida tayoqchani pastga, tepaga ko'tarsa, bas», deb o'ylashi mumkin. Vaholanki, dirijor tayoqchasining harakati, uning o'z maqsadlarini ijrochilarga yetkazishning asosiy vositasidir. Bu - butun dunyo dirijorlari o'z mamlakatlari va xorij orkestrlarining ijrochilari bilan muloqot qiluvchi o'ziga xos tildir. Uni barcha orkestr, xorning birdek tushinishlari uchun esa dirijor bu tilni mukammal bilishi lozim.

Dirijor qo'l harakati mukammal darajada ma'nodor bo'lishi uchun o'ng qo'l va uning «davomi» bo'lgan tayoqchaning barcha harakatlari o'zaro mutanosib bo'lishi kerak. Chap qo'lga kelsak, u asosan o'ng qo'l harakatini ma'no jihatdan to'ldirib turishi lozim. Tayoqcha esa dirijorning bilagi, kafti va barmoqlarining tabiiy davomi bo'lishi darkor. Ularga bo'ysunar ekan, tayoqcha dirijorning nozik ichki kechinmalari, uning aql idroki, irodasi va hissiyotlarini aks ettiruvchi o'ziga xos oyna sifatida namoyon bo'ladi. Erkin va qulay qo'l harakati shubhasiz dirijor mahoratining belgisidir. Uni turli mamlakat dirijorlari ko'p yillar davomida ishlab chiqqanlar. Uning samarasida ayni paytga kelib dirijor qo'l harakatlarining rivojlangan tizimi shakllanib ulgurdi. «Dirijorning qo'l harakati», - deb yozgandi Nikolay Malko, — hamma narsani bildirishi, birinchi navbatda taktlash, ya'ni takt hissalarini qo'l harakati yordamida ifodalash kerak. Shuningdek, dirijorning qo'l harakati musiqiy cholg'ularning chala boshlashini va ijroning to'xtalishini ham ko'rsatib beradi. U, shuningdek, turli cholg'ularning yoki orkestr guruhlarining tovush kuchi qanday bo'lishi va qachon sur'at o'zgarishi, harakat to'xtatish, ya'ni fermata bo'lishi va hokazolarni ko'rsatadi.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Tomoshabinlar dirijor o'ng qo'lida tayoqcha ushlashini, chap qo'li esa erkinroq harakat qilishiga e'tibor bergan bo'lishsa kerak. Dirijorning har bir qo'li go'yoki o'z hayoti bilan yashaydi. Darhaqiqat, dirijorning o'ng va chap qo'li alohida-alohida ahamiyatga ega.

«O'ng qo'l takt belgilaydi, - deb yozgan edi Shari Myunsh, chap qo'l esa o'ziga xos xususiyatlar va o'zgarishlarga ishora qiladi. O'ng qo'l aqlniki, chap qo'l yurakniki va o'ng qo'l doimo chap qo'l nima qilayotganini bilishi kerak».

Artur Nikish esa: «O'ng qo'l kesadi, chap qo'l esa — chizadi», — der edi. «O'ng qo'l metrni ko'rsatadi... Chap qo'l esa orkestr hissiyotlariga murojaat qiladi. Qaysi qismni sho'xroq, qay birini esa xotirjamroq, kengroq, yumshoqroq yoki moyilroq ijro etish kerakligini ko'rsatadi», - deb yozgan edi Shari Myunsh.

Qo'llaridan tashqari dirijorning ko'zlari, yuz ifodasi, uning tana holati ham alohida ma'no bildirishda yordam beradi. Ba'zan musiqada mavjud bo'lgan quvonch yoki qayg'u, g'azab yoki xotirjamlik kabi tuyg'ularni bildirish uchun dirijorning birgina nigohi kifoya bo'ladi.

Xulosa. Demak, dirijorlik kasbi — ogir jismoniy mehnat hamdir. Har bir repetitsiya, ayniqsa, konsert dirijordan ulkan jismoniy va ruhiy kuch hamda matonat talab etadi. Shu bois dirijor sportchi yoki balet artisti kabi mustahkam salomatlik, jismoniy quwat, iroda kuchi, o'zini tuta bilish qobiliyati va o'z tanasini mukammal boshqara olish xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Haqiqiy san'atkor, avval o'zi ijro etgan asarlarni boshqatdan ijro etganida undagi badiiy obrazga yangi bo'yoqlar baxsh etuvchi qirralar olib kiradi. Shu o'rinda buyuk Artur Nikishning quyidagi sozlarini keltirish joiz: «Agar siz bitta asarni bir yil davomida har kuni repetitsiya qilsangiz ham, uning har bir ijrosi katta improvizatsiya bo'lishi kerakligini unutmang». Shu bois har bir dirijor o'z

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

musiqiy faoliyati davomida musiqiy adabiyotlarni chuqur organib borishi kerak. Shaxsan o'ziga nima yoqishidan qat'iy nazar, dirijor har qanday millatga, uslubga, davrga mos musiqiy adabiyotni, ayniqsa, zamonaviy musiqiy adabiyotni yaxshi bilishi lozim. Konsertlar, opera teatrlariga borib turish va tanishish, dirijorlarning ijro mahoratini tahlil qilish — musiqiy dunyoqarashni kengaytirishga xizmat qiladi. Musiqadan ilhomlanuvchi haqiqiy usta san'atkor shaxsiy narsalardan mutlaqo yiroqdir: u o'zining muvaffaqiyati - musiqa muvaffaqiyatida ekanligini tushunishi kerak.

Jamoadagi har bir ijrochining qobilivatini bilish nihoyatda muhim. Agar dirijor o'zini xayolan har bir musiqachining o'rniga qo'yib ko'rib, uning ruhiy holatini tushuna bilsa, unda orkestr bilan til topishish ancha oson kechadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Urmanova L., Trigulova A., Ibrahimjanova G. Musiqa nazariyasi. -Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
- 2.Ibrohimjonova G.A., Yuldoshev U.Yu. Musiqa nazariyasi. – Adabiyot uchqunlari. 2018.
- 3.Mark Feezell. Music Theory Fundamentals - High-Yield Music theory, vol. 1. Copyright © 2011 All Rights Reserved.
- 4.Абызова Ye. N. Гармония. Москва, 2008. (Elektronnyy).
- 5.Trigulova A.X. Musiqa nazariyasi (Musiqa asarlari tahlili). T., 2022.
- 6.Botirkhanovich, Shokirkhanov Bakhtiyorkhon. "The Structure of Kashkar Rubab, And Methods of Their Execution." *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN* 5.1 (2024): 19-22.
7. Gaziyevev J. J., Aliyeva N. R. Dmitriy dmitrievich shostakovich life and work //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 10. – C. 1181-1185.
8. Syfiddinovich, A. B. (2024). MUSIQA CHOLG 'ULARINING ILK SHAKL VA TURLARI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(2), 92-96.
- 9.Олимжонович, Т. Ф. (2023, June). ТАЛАБАНИНГ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ОЛИШНИ ТИЗИМЛИ ТАШКИЛ ЭТИШ МЕТОДИКАСИ

G'IJJAK SOZI TARIXI VA BUGUNI

Akbarov Baxtiyor

Namangan davlat universiteti

San'atshunoslik kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada G'ijjak sozining kelib chiqishi va O'zbek xalq cholg'ulariga milliy cholg'u sozi sifatida kirib kelishi va uning qayta ishlanib rivojlanishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zi: G'ijjak, orkestr, ansambl, folklore, oktava, diez, kvarta, kvinta.

O'zbek xalq cholg'ularida zamonaviy ijrochilik san'ati o'z taraqqiyotining ko'p asrlik an'analarini meros qilib oldi. Ularning ildizlari qadim davrlarga borib taqaladi. 1933 – yilda Ayratam shahristoni arxeologik qazilmalarida topilgan materiallar, qadimiy adabiy manbalar o'zidan ilgari turli musiqa asboblari bo'lganligidan dalolat beradi. Eramiz boshlarida turli- tuman xalq cholg'ularidan kundalik turmushda, ovda, saroy hayotida, madaniy bayram marosimlarida, xalq sayillarida foydalanilgan. Xalq cholg'ulari asrlar davomida insonlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirib, tabiiy ravishda rivojlandi va takomillashdi. Moddiy madaniyat yodgorliklari, tasviriy san'at asarlari, jumladan, devordagi rasmlar, sopol haykalchalar va turli xil miniatyuralar eramizning V – VI asridayoq ikki turdagi xalq cholg'ulari ansambli mavjud bo'lgani haqida ma'lumot beradi. Ulardan biri (damli) va urma zarbli cholg'ulardan, ikkinchisi torli va mizrobli (chertma) cholg'ulardan iborat edi. Bulardan tashqari nay, surnay, chang, tanbur, ud va g'ijjak kabi cholg'ularda yakkanavoz ijrochilik ham mavjud ekanligi ma'lum.

Qadimgi sharq madaniyati quchog'ida o'zbek xalq cholg'ulari shakllandi. Ular ko'p asrlik taraqqiyot davomida o'ziga xos xususiyatlarni tovush tusini saqlab qoldi. O'ziga xos tuzilishi tufayli nay, sunray, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, qobuzlar an'anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi. G'ijjak sozi o'zbek xalqining sevimli cholg'ularidan bo'lib, ming yildan ziyodroq davr mobaynida insonlarga ma'naviy meros sifatida xizmat qilib kelmoqda. Uning kelib chiqishi IX-X arslarga borib taqaladi. O'sha davrning mashhur faylasuf olimi Abu Nasr Forobiy ixtiro qilgan kamonli cholg'u —G'ipchak nomlangan va ikki torli bo'lgan. G'ijjak Bobur zamonasiga kelib uch torli cholg'u sifatida shakllandi. Zaxriddin Muhammad Boburning (1483-1530) —Boburnomall asarida e'tirof etishicha, Alisher Navoiy o'z davrida ko'plab o'zbek xalq cholg'uchilarini: ud cholg'uchilar, naychilar, g'ijjakchilar, changchilarning o'z istedodlarini namoyon etishga ko'maklashgani zikr etilgan. Boburning ta'kidlashicha, —Ustoz – Qulmuhammad

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Uddiy va Xusayn Uddiy kabi moxir cholg'uchilar Navoiyning bevosita yordami va homiyligida katta shuxrat qozondilar, ulkan muvafaqqiyatga erishdilar. Bobur shuningdek, Shox Qulliy G'ijjakiy, Xusayn Uddiy, Xo'ja Abdulloh Marvarid Qonuniy kabi moxir ijrochilarni ham tilga olgan. Navoiy davrida nay, ut, g'ijjak, qonun, karnay, surnay, nog'ora, doira, chang ijrochiligi keng tarqalgan edi. Ularning hammasi ansambl ijosida ham birdek qo'llanildi. G'ijjak cholg'usiga kelsak yuqorida aytganimizdek Shox Qulliy G'ijjakiy shu musiqa asbobida ajoyib ijrochilik mahoratini ko'rsatgan va cholg'u kuylarini yaratgan usta san'atkor bo'lgan. Uning yaratgan kuylari orasida muxammas ritmida yaratilgan peshavi —Xusayniy alohida ajralib turadi. 1939 – yil oxirida yog'och damli, torli mizrobli, torli urma zarbli birinchi oktava —dol notasidan uchinchi oktava —re diyez gacha bo'lgan diapazonli xromatik chang cholg'ular, g'ijjaklar turkumi va urma zarbli cholg'ular kabi mustaqil guruhlarini o'z ichiga olgan yangi orkestrning cholg'ular tarkibi aniqlandi. Shundayqilib ushbu —nota orkestri deyarli yangicha ko'rinishda shakllandi. Musiqashunos T.Vizgo ta'kidlaganidek: —A.I.Petrosyansga mustaqil jamoa sifatida nota orkestri tuzish topshirilganda, u boshqa pozitsiyada turdi. Rus xalq cholg'ulari asoschisi —V.V. Andreev ijodiy tajribasiga tayangan holda A.I. Petrosyans xalq cholg'ularini ta'mirlashni, binobarin diatonik temperatsiyaga asoslangan teng yarim pardali ta'mirlangan cholg'ularga o'tishni asosiy vazifa qilib belgilagandil. Orkestr tarkibiga ta'mirlangan g'ijjaklar turkumi (kvintet) kiritilgan. Xuddi ana shu nota orkestrining ko'p ovozi jamoa yo'sinidagi sifat jihati ijodda yangi yo'nalishni belgilab berdi. Bu yo'nalish g'ijjak oilasi sinfining kelajakda shiddat bilan rivojlanishini belgilab berdi. Ya'ni bu cholg'ular oilasiga g'ijjak, g'ijjak alt, g'ijjak qobuz – bas, g'ijjak qobuz kontrabaslar kiradi. G'ijjak cholg'usi o'zining keng imkoniyatlari bilan boshqa cholg'ulardan farq qiladi. Uning tovush hajmi: kichik oktava sol tovushidan 4 –oktava lya tovushiga qadar davom etadi. G'ijjak — torli kamonli musiqa asbobi. O'zbek, tojik, turkman, uyg'urlarda va kamon, kemancha nomi bilan Kavkazorti mamlakatlarida keng tarqalgan. O'zbek cholg'u asboblari orkestrida g'ijjakchilar guruhi xuddi simfonik orkestrdagi kamonli sozlar guruhi (skripka, alt, violonchel, kontrabas) kabi yetakchilik qiladi. O'rta asr musiqa risolalarida bayon etilgan rivoyatlarga ko'ra g'ijjakni (g'ipchak nomi bilann) Forobiy yaratgan, Ibn Sino dastlabki 2 torini kvartaga soxtagan, Qulmuhammad Uddiy esa G'ijjakka 3-torni qo'shgan. Ungacha 2 simli g'ijjakda ipakdan eshilgan yoki simli aks- sado beruvchi torlar soni 8-11 tagacha bo'lgan. Alisher Navoiyning „Majolis un-nafois— asarida aytilishicha, g'ijjakni chala bilish barcha saroy sozandalari uchun shart bo'lgan. O'rta asrda Alijon G'ijjakiy, Xo'ja O'zbek G'ijjakiy kabi san'atkorlar mashhur bo'lgan. G'ijjakning kosaxonasi ustidagi teri sovuq, nam sharoitida cho'kib ketishi, ingichka simlarining ovozi noqisligi tufayli O'zbekiston (ayniqsa Andijon)da 19-

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

asr oxiridan g'ijjak o'rniga an'anaviy ansambllar tarkibida skripka ishlatila boshladi. Ammo keyinchalik asbob mukammallashtirildi va undan yana keng qo'llanila boshlandi. 1940-yillarda g'ijjakning o'zbek xalq cholg'ulari orkestrida ishlatiladigan alt, bas va kontrabas turlari yaratilgan. Mazkur orkestrlar tarkibida G'ijjakchilar guruhi xuddi simfonik orkestrdagi kamonli sozlar guruhi (skripka, alt, violonchel, kontrabas) kabi yetakchilik qiladi. Hozir xalq cholg'u orkestrida G'ijjak-bas o'rniga qo'biz-bas (yoki violonchel), G'ijjak-kontrabas o'rnigab kontrabasning o'zi ishlatiladi. G'ijjakning inson ovozigacha yaqin, nozik va dardli tovushi, qochirimlarga boy, xonaqoiy ijro uslubi tufayli milliy mumtoz musiqa ansambllarida asosiy o'rin tutadi. G'ijjakning yumaloq cho'michsimon kosasi oldin qovoq, kokos yong'og'idan, hozirda yog'och (tut, yong'oq) g'o'lachasidan o'yib yasaladi va kosasi og'ziga teri yoki pufak tortiladi. Pardasiz dastasining bir uchiga quloqlar o'rnatiladi, bir uchi esa kosaxona ustiga joylashadi. Dasta bilan kosaxonaning umumiy uzunligi 550-900 mm atrofida. Hozirda g'ijjakning torlar soni 3-4 bo'lib, kvarta-kvintaga sozlanadi. Ular dastaning yuqori qismida joylashgan shayton xarak va kosaxona ustidagi xarakka yotqiziladi. Umumiy diapazoni 4 oktavadan ortiq. O'zbekistonda g'ijjak ijrochiligining o'ziga xos uslublari, asosan, Andijon, Buxoro va Xorazm an'anaviy maktablari orqali namoyon bo'lgan. Farg'ona vodiysi hofizlik san'ati hamda surnay ijrochilik an'analari ta'sirida shakllangan Andijon maktabi (T. Jalilov, G'. Hojikulov, E. Ro'ziboyev, Yu. Yusupov va boshqalar) mayda urg'u (aksent)lar, kuy tuzilmalarini uzmasdan chalish yo'llari, surnayga xos qochirimlar singdirilganligi bilan ajralib turadi. Komiljon Jabborov, G'anijon Toshmatov, M. Niyozov, M. Muhammedov ijrosida „Surnay Irog'i—, „O'yin Munojoti—, „Dugohi Husayniy— hamda „Kezarman— (G'. Toshmatov), „Gul mavsumi— rov) kabi g'ijjak kuylari mashhur. Mahalliy musiqa an'analari (ayniqsa, Shashmaqom yo'llari) negizida qaror topgan Buxoro maktabiga g'ijjak ning xuddi titrayotgan kamonni yurg'izib sadolanishi, har bir pardani o'zida to'ldirib (tebranish) tezlashishi xos. Buxoro g'ijjakchilik maktabi namoyandalaridan Haydarqul Qorovulbegi (Buxoro amirlari saroylarida xizmat qilgan), 20- asrda Aminjon Ismatov, Samo Vohidov, Hikmat Ne'matov, O'lmas Rasulovlar ijrosida „Surnay Irog'i—, „Bahri tavil—, „Kamon ufari—, „Zulayho—, „Noz— (O'. Rasulov) kabi namunalari ommalashgan. Xorazm maktabi ijro uslubi shiddat, kamonni urg'u bilan tortish, ayni paytda yumshoq to'ldirish bilan ajralib turadi. Mazkur maktab vakillaridan Patak-g'ijjakchi (mashhur Suyavbaxshi dastasida faoliyat ko'rsatgan, 19-asr), Abdulla Mijana, Matyoqub Xarratov, Ollanazar Hasanov, Hasanboy Atayevlar talqinida Xorazm maqomlashning cholg'u yo'llari, surnay yo'llari, shuningdek, „Aliqambar—, „Qalabandi—, „Xarrotiy— (M. Xarratov), „Gech polvon— singari kuylar mashhur. G'ijjak yakkanavoz cholg'u, ayni paytda jo'navoz soz sifatida

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

ham keng qo'llanilmoqda. Turkman, qoraqalpoq, xorazm baxshilari (masalan, R. Murodov), Andijonda T. Jalilov, G'. Hojiqulov, S. To'xtasinovlar o'ziga xos jo'rnavozlik yo'llarini yaratishgan, 1970-yillardan boshlab g'ijjakni yakkanavoz va milliy cholg'u ansambli tarkibida alohida ko'rsatish, unda o'ziga xos kuy tuzilmalarini badiha tarzida chalish usullari Abduhoshim Ismoilov, A. Dadayev va boshqa ijrosida ommalashgan. Zamonaviy texnika vositalari (masalan, qisqa cho'zimli tovushlarni ishlatish yo'llari) keng kirib kelib, polifoniya va polimonodiya xususiyatlaridan foydalanilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Toshmuhammedov M. G'ijjak darsligi – T O'qituvchi, 1995
2. Akbarov I. Musiqa lug'ati– T O'qituvchi, 1997
3. Abu Nasr Forobiy (873-950)—Musiqa haqida katta kitob(—Kitob ul-musiqa alkabir)

**KREDIT MODUL TIZMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM
BO'YICHA KREATIV FAOLIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Toshmatov G'ulomjon Olimjonovich

*Namangan davlat pedagogika instituti, ART pedagogika kafedrası katta
o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada kredit-modul tizimida musiqiy fanlardan mustaqil ta'lim olish jarayonida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Mustaqil ta'limning zamonaviy talablarga javob beradigan shakllari, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) dan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ijodiy faoliyatni rag'batlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar, baholash mezonlari va ularning samaradorlik darajasi haqida fikr yuritiladi. Tadqiqotda sifatli tahlil va amaliy kuzatuvlarga asoslangan natijalar asosida tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu maqola oliy ta'lim tizimida musiqiy fanlarni o'qitish samaradorligini oshirish, talabalar ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda innovatsion yondashuvlar muhimligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: Kredit-modul tizimi, mustaqil ta'lim, musiqiy fanlar, kreativ faoliyat, innovatsion metodlar, axborot texnologiyalari, talabalar ijodkorligi, pedagogik yondashuv.

Kirish. Bugungi kunda O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, kredit-modul tizimiga o'tish jarayoni ta'lim mazmunini yangilash, talabalar mustaqil ta'limini kuchaytirish va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishni talab qilmoqda. Ayniqsa, musiqiy fanlar sohasida mustaqil ta'limni samarali tashkil etish orqali talabalar bilimni chuqurlashtirish, ularning kreativ (ijodiy) faoliyatini shakllantirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Kredit-modul tizimining mazmuni bu talabalarning o'z-o'zini o'qitishga, mustaqil bilim olishga va o'zlashtirish darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim modeli sifatida e'tirof etiladi. Ushbu tizimda talabaning mustaqil faoliyati asosiy

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

o'rinni egallaydi. Bu holat musiqiy ta'lim jarayonida ham zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni qo'llashni, innovatsion o'qitish metodlarini joriy etishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, musiqiy fanlardan mustaqil ta'lim olishda talabalar kreativ faoliyatini rivojlantirish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat kasb etadi. Talabaning individual qiziqishlari, iste'dod va salohiyatiga qarab ta'lim mazmunini moslashtirish, ularni amaliy mashg'ulotlarga, mustaqil loyihalar va ijodiy ishlar orqali o'zlashtirishga jalb etish bugungi kundagi asosiy vazifalardan biridir.

XXI asrda ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri talabalarning mustaqil fikrlashi, kreativ yondasha olishi, muammolarni hal etishda yangicha qarashlarga ega bo'lishini ta'minlashdir. Bu jihatlar ayniqsa san'at va musiqiy ta'lim yo'nalishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ijodkorlik va san'at bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan sohalar bo'lib, talabadan nafaqat bilim, balki o'z fikrini estetik jihatdan ifodalash, noan'anaviy yondashuvlar bilan ijodiy mahsulot yaratishni ham talab etadi.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan kredit-modul tizimiga o'tish talabaning mustaqil ta'limini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni nazarda tutadi. Bu tizim talabaning o'quv faoliyatini faollashtirish, o'zlashtirish samaradorligini oshirish, shuningdek, mustaqil izlanish va fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishni ko'zlaydi. Ayniqsa, musiqiy fanlar doirasida bu jarayon talabaning kreativ salohiyatini ochish va takomillashtirishga alohida urg'u beradi.

Musiqiy fanlardan mustaqil ta'lim olish – bu nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki amaliy mashg'ulotlar orqali musiqiy savodxonlik, tahliliy fikrlash, eshituv xotirasi, ijodiy tasavvur kabi ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonidir. Talaba individual ravishda musiqa asarlarini tahlil qilishi, kompozitorlar ijodini o'rganishi, o'z mustaqil loyihalarini yaratishi orqali ijodiy

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

tafakkur va estetik didini yuksaltiradi. Bu esa o'z navbatida, ularning musiqiy va madaniy salohiyatini kengaytiradi, kasbiy shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi kredit-modul tizimida musiqiy fanlardan mustaqil ta'lim olishda talabalar ijodkorligini oshirish, ularning kreativ faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi samarali usullar va pedagogik yondashuvlarni aniqlashdan iborat. Shu bois, mazkur maqolada kredit-modul tizimi sharoitida musiqiy fanlardan mustaqil ta'lim olish jarayonining o'ziga xos jihatlari, kreativ faoliyatni rivojlantirishda qo'llanilayotgan metodlar va vositalar, shuningdek, amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi kredit-modul tizimida musiqiy fanlardan mustaqil ta'lim olish jarayonida talabalarning kreativ faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan samarali metod va yondashuvlarni aniqlash, ularni ta'lim amaliyotiga integratsiyalash imkoniyatlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari mustaqil ta'limning musiqiy fanlardagi o'rni va ahamiyatini aniqlashdan iborat bo'lib talabalar kreativ faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlarni tahlil qilishni o'rganilgan. Shuningdek AKT vositalari, innovatsion yondashuvlar va pedagogik jarayonlarning samaradorligini baholash hamdai ilmiy-nazariy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Material va metodlar. Ushbu tadqiqotning nazariy asoslari sifatida ta'lim nazariyasi, musiqiy pedagogika, ijodkorlik psixologiyasi, shuningdek, zamonaviy didaktika va metodik yondashuvlar asos qilib olindi. Tadqiqotda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida joriy etilgan kredit-modul tizimida musiqiy fanlardan mustaqil ta'limni tashkil etish tajribalari tahlil qilindi. Ayniqsa, musiqa nazariyasi, musiqiy savodxonlik, xor dirijyorligi, kompozitsiya, milliy cholg'u ijrochiligi kabi fanlar asosida olib borilayotgan mustaqil ta'lim jarayonlariga e'tibor qaratildi.

Tadqiqot ob'ekti sifatida - kredit-modul tizimida tashkil etilgan musiqa yo'nalishidagi o'quv jarayonlari va talabalarning mustaqil ta'lim faoliyati olindi.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Tadqiqot predmeti - musiqiy fanlardan mustaqil ta'lim olishda talabalarning kreativ (ijodiy) faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi metodlar, shart-sharoitlar va vositalar tizimi hisoblanadi.

Ushbu mavzu bo'yicha tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tahliliy metod - ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalar, ilmiy-psixologik va pedagogik adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili orqali mavzuga oid ilmiy asoslar belgilandi.

Empirik kuzatuv - musiqa yo'nalishidagi o'quv jarayonlarida talabalar tomonidan amalga oshirilayotgan mustaqil ta'lim faoliyati va uning ijodiy ko'rinishlari amaliy kuzatuv orqali o'rganildi.

So'rovnoma va suhbat metodi - talaba va o'qituvchilar o'rtasida mustaqil ta'limdagi muammolar, kreativ yondashuvlar va motivatsion omillarni aniqlash maqsadida so'rovnomalar o'tkazildi.

Eksperiment - ayrim oliy ta'lim muassasalarida tajriba-sinov darslari tashkil etilib, kreativ faoliyatga yo'naltirilgan metodlarning samaradorligi sinovdan o'tkazildi.

Taqdim etilgan ma'lumotlarni statistik tahlil qilish – so'rovnoma natijalari va eksperiment ma'lumotlari raqamli ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinib, grafik va jadval shaklida ifodalandi. Tadqiqotda shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimediali darsliklar, raqamli musiqiy dasturlar (masalan, Finale, Sibelius, MuseScore) va onlayn ta'lim platformalaridan (Moodle, Google Classroom, YouTube) foydalanishning ijodiy ta'limga ta'siri ham o'rganildi.

Natijalar. Olib borilgan tadqiqotlar va amaliy kuzatuvlar asosida quyidagi natijalar aniqlandi:

Talabalarning mustaqil ta'limga bo'lgan munosabati ijobiy tusda shakllangan, ayniqsa, ular o'z ijodiy fikrlashlarini rivojlantirishda bu uslubning imkoniyatlarini yuqori baholashdi. So'rovnomalarda qatnashgan 120 nafar

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

talabadan 87% mustaqil ta'lim orqali musiqiy bilimlarini chuqurlashtirish, 72% esa ijodiy faoliyatni rivojlantirish imkoniga ega bo'lganini ta'kidladi.

Kredit-modul tizimi sharoitida mustaqil ta'limning moslashuvchanligi talabalar uchun qulay o'quv strategiyalarini shakllantirish imkonini berdi. Talabalar darsdan tashqari vaqtlarda o'ziga qulay metod va vositalardan foydalanib, mustaqil loyihalar, musiqiy tahlillar va ijodiy kompozitsiyalar yaratishga harakat qilishdi.

Kreativ faoliyatni rag'batlantirishga yo'naltirilgan metodlar samaradorligi tajriba-sinov darslari orqali o'rganildi. Jumladan, "muammo asosida o'rganish", "ijodiy topshiriqlar asosida baholash", "rolli o'yinlar", "musical storytelling" kabi metodlardan foydalanilgan guruhlarda talabalar mustaqil ishlarda ancha yuqori natijalarga erishgan.

1. AKT vositalarining (Finale, MuseScore, YouTube platformasi va b.) elektron nota yozuvchi dasturlar bilan ishlash va ulardan auditorida va mustaqil ta'lim, mustaqil ishlarni bajarishda qo'llanilishi ijodiy tafakkurni hamda ijrochilik faoliyatlarini faollashtirgan. Bu dastur va vositalar orqali talabalar o'z musiqiy asarlarini yaratish, tahrirlash, tahlil qilish va namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ayniqsa, talabalarning o'z musiqiy kompozitsiyalarini raqamli platformalarda baham ko'rishni ularning motivatsiyasini oshirdi.

2. O'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi individual yondashuv kuchaygani natijasida ijodiy muloqot va erkin fikrlash muhiti shakllandi. Bu holat talabalarning o'z ustida ishlashga, mustaqil loyihalarni olib borishga bo'lgan qiziqishini oshirdi.

3. Ijodiy yondashuv bilan olib borilgan mustaqil ta'lim orqali talabalar nafaqat musiqiy bilimlarni emas, balki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, g'oya yaratish, ijodiy fikrni ifodalash, bahslashish va taklif kiritish kabi ko'nikmalarni ham egallashdi.

Muhokama. Yuqoridagi natijalar asosida aniqlanishicha, kredit-modul tizimida musiqiy fanlardan mustaqil ta'lim olish jarayoni nafaqat talabalarning

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

bilim darajasini oshirish, balki ularning ijodiy tafakkurini faollashtirish, musiqiy estetik qarashlarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot davomida kuzatilgan pedagogik jarayonlar, talabalar ishtirokidagi ijodiy faoliyat turlari shuni ko'rsatdiki, samarali tashkil etilgan mustaqil ta'lim musiqiy fanlarning mazmun-mohiyatini talaba ongida chuqurroq o'zlashtirishga imkon yaratadi.

Talablarning mustaqil ta'lim olishdagi yana bir muhim jihatlardan biri bu ijodiy faoliyatni faollashtirishga mos metodik yondashuvlarning tanlanishidir. Bularga: "Muammo asosida ta'lim", "mustaqil ijodiy topshiriqlar", "virtual seminarlar", "audio-vizual tahlil" kabi usullar talabalarda mustaqil mushohada yuritish, san'at asarlarini chuqur tahlil qilish, o'z musiqiy ifodalarini yaratish kabi kompetensiyalarni rivojlantirishda o'z samarasini ko'rsatdi. Masalan, Namangan davlat pedagogika instituti musiqiy ta'lim yo'nalishi talabalari bilan olib borilgan tajriba davomida "musical storytelling" metodi asosidagi topshiriqlarni bajargan guruhda 30 talabadan 25 nafari o'zining ijodiy salohiyatining oshganini bildirgan, ulardan 18 nafari o'z kompozitsiyasini raqamli platformada namoyish etgan. Musiqa ta'limi yo'nalishida olib borilgan kuzatuvlarda talabalar tomonidan yaratilgan 50 dan ortiq musiqiy ishlanma taqdim etildi, ulardan 60% kompozitsiyalar orfografik va ritmik aniqlik jihatidan yuqori baholangan. Bu metodlar o'quv jarayonini passiv bilim olishdan faol va ijodiy ishtirokga aylantirishga xizmat qiladi.

"Musical storytelling" metodi. "Musical storytelling" degani - musiqa orqali hikoya qilish san'atidir. Bu uslubda musiqaning o'zi voqeani, hissiyotlarni yoki biror syujetni ifodalaydi. So'zsiz (instrumental) asarlarda ham, vokal (qo'shiq) shaklida ham bo'lishi mumkin. Bu atama ko'proq quyidagi holatlarda ishlatiladi:

1. Instrumental hikoyalash
2. Vokal storytelling (qo'shiq orqali hikoya)

Qo'shiqlar matni orqali bir voqeani aytib beradi, lekin musiqa uning hissiyotini kuchaytiradi.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Masalan, xalq qo'shiqlari yoki musiqiy teatr (masalan, opera yoki musiqiy - musicals)da uchraydi.

3. Bolalar musiqa ta'limida

Bolalarga hikoya eshittirish bilan birga musiqiy ifodalar qo'shiladi, ular o'zlari ham musiqiy vositalar yordamida hikoya yaratadilar. Bu usul kreativlik, tasavvur va musiqiy saviyani rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Shuningdek, AKT vositalarining keng qo'llanilishi mustaqil ta'lim jarayonining sifatini sezilarli darajada oshirdi. Ayniqsa, raqamli platformalarda musiqiy dasturlar bilan ishlash, onlayn seminar va ijodiy bahs-munozaralarda ishtirok etish talabalar orasida musiqiy bilimga nisbatan qiziqish va mas'uliyatni oshirdi. Bunday imkoniyatlar an'anaviy ta'limga nisbatan kengroq ijodiy erkinlik, o'zini ifoda qilish, fikrini bildirish imkonini beradi. Masalan, "O'zbek xalq kuylarining zamonaviy talqini" mavzusida mustaqil loyiha tayyorlagan talabalar o'z kompozitsiyalarini milliy uslubda, ammo zamonaviy aranjirovkada taqdim etishgan bo'lib, bu ularda stilistik fikrlashni shakllantirgan. Biroq, olib borilgan kuzatuvlar shuni ham ko'rsatdiki, barcha ta'lim muassasalarida ham bu yondashuvlar teng darajada qo'llanilmaydi.

Talabalarlarning axborot texnologiyalariga tayyorligi, metodik kompetensiyasi va ijodkorlik darajasi mustaqil ta'limning kreativlikka ta'sirini belgilab beradi. Shu bois, bu sohada avvalo ushbu soha o'qituvchilarni mustaqil ta'lim bo'yicha qayta tayyorlash, ularning bu sohadagi malakalarini oshirish, metodik qo'llanmalar ishlab chiqish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish dolzarb hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili ham shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'limning ijodiy faoliyatga ta'siri bo'yicha hali yetarlicha chuqur ilmiy ishlanmalar yetarli darajada emas. Aksariyat tadqiqotlar umumiy yondashuvlar va baholash tizimiga qaratilgan bo'lib, aynan musiqiy fanlar kontekstida kreativlikni rivojlantirish masalasi keng yoritilmagan. Bu esa mavzuning ilmiy-innovatsion salohiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Xulosa. Mazkur maqolada kredit-modul tizimi asosida musiqiy fanlardan mustaqil ta'lim olishda talabalarning kreativ faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan metodlar va yondashuvlar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida olingan natijalar, shuningdek, amaliy tajriba asosida aniqlangan xulosalar, musiqiy ta'limni rivojlantirishda innovatsion usullarni qo'llashning samaradorligini tasdiqladi.

Maqola asosida keltirilgan asosiy xulosalar:

1. Kredit-modul tizimi sharoitida mustaqil ta'lim talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu tizim orqali talabalar mustaqil fikrlash, o'zini ifodalash, musiqiy asarlarni yaratish va tahlil qilish kabi ko'nikmalarni shakllantirish imkoniga ega bo'ladilar. Talabalar o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashga, yangi g'oyalar yaratishga va ijodiy ishlanmalar tayyorlashga yo'naltirilgan vazifalar bilan shug'ullanishadi.

2. Ijodiy metodlar, masalan, "muammo asosida ta'lim", "ijodiy topshiriqlar" va "musical storytelling" kabi yondashuvlar talabalarning motivatsiyasini oshirdi. Tadqiqot davomida bu metodlar samarali ishlashini ko'rsatdi: o'quvchilarning kreativ fikrlashlari faollashib, musiqiy asarlarni yaratishda yangicha yondashuvlar kiritishga muvaffaq bo'lishdi.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining integratsiyasi mustaqil ta'limda talabalarning ijodiy faoliyatini kuchaytirdi. Zamonaviy musiqiy dasturlar (Finale, MuseScore) va onlayn platformalar (YouTube, Google Classroom) talabalarni raqamli vositalar orqali o'z asarlarini yaratishga, tahlil qilishga va baham ko'rishga undaydi. Bu esa ularda ijodiy o'sishni va o'z ishlariga mas'uliyat bilan yondashishni ta'minladi.

4. O'qituvchilarni metodik va axborot texnologiyalari bo'yicha qayta tayyorlash zarurati. Tadqiqotning yana bir muhim xulosasi shuki, o'qituvchilarning metodik kompetensiyasi va axborot texnologiyalarini qo'llash darajasi talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois,

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

o'qituvchilarni innovatsion metodlarni o'rgatish va ilg'or pedagogik tajribalarni joriy etish zarur.

5. Musiqiy fanlardan mustaqil ta'lim olish jarayonida metodik yondashuvlarning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan takliflar ishlab chiqildi. Bu takliflar talabalarning ijodiy faoliyatini faollashtirish, ularni mustaqil ishlarda yanada ko'proq rag'batlantirish, hamda pedagogik amaliyotlarda ilg'or texnologiyalarni qo'llashni o'z ichiga oladi.

Kelajakda qo'llanishi mumkin bo'lgan tavsiyalar:

- Kredit-modul tizimining samaradorligini yanada oshirish uchun musiqiy fanlarga ixtisoslashgan maxsus metodik qo'llanmalar ishlab chiqilishi zarur. Ushbu qo'llanmalar talabalarga mustaqil ta'limning ijodiy jihatlarini o'zlashtirishda yo'l-yo'riq ko'rsatishi va ularga kreativ faoliyatni rivojlantirishda yordam berishi mumkin.
- Musiqiy ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yanada kengaytirilishi kerak. Raqamli musiqiy dasturlar va onlayn ta'lim platformalarining imkoniyatlarini kengroq tadbiq etish, talabalar uchun qo'shimcha resurslar yaratish va ular bilan ishlashning yangi shakllarini ishlab chiqish zarur.
- Musiqiy ta'lim muassasalarida o'qituvchilarni metodik tayyorlash tizimini takomillashtirish. O'qituvchilarni kreativ pedagogika va innovatsion texnologiyalar bo'yicha tayyorlash, shu bilan birga ularning ijodiy salohiyatini yanada rivojlantirishga imkon yaratish muhimdir.

Ushbu xulosalar orqali maqolaning umumiy ahamiyati va istiqboldagi yo'nalishlari ko'rsatilgan bo'lib, natijalar ta'lim jarayonlarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishga, musiqiy fanlarda yangi yondashuvlarni qo'llashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Botirkhonovich, S. B. (2025). EDUCATION OF THE SPIRITUAL AND MORAL PERSONALITY OF STUDENTS THROUGH THE STUDY OF UZBEKISTAN FOLK MUSIC AND CULTURAL HERITAGE. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research, 3(2), 257-260.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

2. Shokirkhonov, B. (2025). PEDAGOGICAL CONDITIONS OF MASTERING MUSIC-THEORETICAL KNOWLEDGE IN SPECIALIZED MUSIC SCHOOLS. Развитие педагогических технологий в современных науках, 4(2), 72-76.
3. Olimjonovich, T. G. (2024). DEVELOPMENT OF KNOWLEDGE OF STUDENTS THROUGH INDEPENDENT STUDY ON THE BASIS OF A SYSTEMATIC APPROACH. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research, 2(11), 19-24.
4. Nabievna, A. A. (2021). The role of youth in society's economic development. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(7), 211-214.
5. Gaziyeu, J. J. (2021). STYLISTIC FEATURES OF THE WORK OF FRANZ JOSEPH HAYDN. In АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 215-217)
6. Тошматов, Г., & Даминова, Г. (2022). Принципы организации самостоятельного обучения в кредитно-модульной системе. Общество и инновации, 3(5/S), 50-57.
7. Syfiddinovich, A. B. (2024). MUSIQA CHOLG'ULARINING ILK SHAKL VA TURLARI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(2), 92-96.
8. Toshmatov, G., & Daminova, G. Principles of organization of independent education in the credit-module system. Jamiyat va innovatsiyalar. 05 (2022). ISSN 2181-1415-B. 51-58.
9. Gaziyeu, J. J., & Toshmatov, G. O. (2021). Acts credit module system and its implementation activities in higher educational process. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 467-472.

**Professional ta'limda axborot texnologiya dasturlari bilan ishlash va
takomillashtirish chora tadbirlari.**

G'oyibova Sayyora Usmonovna

Sayyoragoyibova3@gmail.com

Namangan davlat universiteti

Pedagogika fakulteti "San'atshunoslik" kafedrası o'qituvchisi

Annotation:. This written article should not be exaggerated to say that among today's advanced new technologies, important and relevant issues such as information technology processing, the use of new information in the taxing of information have been taken into account.

The article considered this as an emphasis on how technology plays an important role in the library system, as well as the possibilities of accurate and reliable data visualization.

Keywords: book, knowledge, culture, spirituality, education, knowledge.

Kirish. Professional ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish va ularni takomillashtirish masalalari hozirda o'qituvchilar, ta'lim muassasalari va davlat tashkilotlari tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimi axborot texnologiyalari (AT) yordamida o'quv jarayonini samarali tashkil etish va yangi metodlarni joriy etishni talab qiladi.

Material va metodlar: Quyida axborot texnologiyalaridan foydalanish va ularni takomillashtirish bo'yicha ayrim chora-tadbirlar keltirilgan⁴:

1. O'qituvchilarni axborot texnologiyalar bo'yicha malakasini oshirish

- O'qituvchilarni axborot texnologiyalarini samarali qo'llash uchun doimiy ravishda kurslar, seminarlarda ishtirok etish, hamda yangi metodlar va dasturlar bilan tanishtirish.

1. ⁴ DomainSpa, LLC, «Global-info.org,» available from <http://www.globalinfo.org/>.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

- Talabalar bilan ishlashda yangi interaktiv dasturlar va texnologiyalardan foydalanishni o'rgatish.
- 2. O'quv jarayonida axborot texnologiyalar vositalarini joriy etish⁵
 - Ta'limda multimedia resurslari (videolar, audio materiallar, interaktiv dasturlar)dan foydalanishni kengaytirish.
 - Talabalarga masofaviy ta'lim platformalarini (masalan, Moodle, Google Classroom) ishlatish imkoniyatlarini taqdim etish.
 - Virtual laboratoriyalar va simulyatorlar yordamida tajribalar o'tkazish va bilimlarni mustahkamlash.
- 3. Axborot texnologiyalari infrastrukturasini mustahkamlash
 - Ta'lim muassasalarida zamonaviy kompyuter texnikalari, internet aloqasi va boshqa axborot texnologiyalar infratuzilmasini yangilash.
 - O'quv auditoriyalarida interaktiv ta'lim qurilmalari (masalan, aqlli taxtalar)ni o'rnatish.
 - Bulutli texnologiyalar orqali ta'lim materiallarini va topshiriqlarni markazlashtirilgan tarzda saqlash va ulardan foydalanish imkoniyatini yaratish.
- 4. Talabalarni axborot texnologiyalar bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirish
 - Talabalarga kompyuter dasturlarini, internet resurslarini va axborot xavfsizligi bo'yicha asosiy bilimlarni o'rgatish.
 - Talabalarda axborot texnologiyalar bo'yicha kreativ fikrlash, tahlil qilish va yangi texnologiyalarni o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish.
- 5. Yangi axborot texnologiyalari dasturlarini ishlab chiqish va qo'llash
 - O'qitishning individual va guruhli shakllarini qo'llash uchun moslashtirilgan interaktiv dasturlarni ishlab chiqish.
 - Talabalar va o'qituvchilarning talablariga moslashtirilgan mobil ilovalar va veb-platformalar yaratish.

⁵ Абдувахובה Савара Алишер Кизи (2022). ТЕМА « СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЗАНЯТИЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫМ ИСКУССТВОМ И РАЗВИТИЕ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ ». Innovation: The Journal of Social Sciences and Researches, 1 (2), 104-107. doi: 10.5281/zenodo.7182013

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

6. Tadqiqotlar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish

- Axborot texnologiyalari sohasida ilmiy izlanishlar va tajriba almashish uchun platformalar yaratish.
- Talabalarda axborot texnologiyalarini yaratishda, loyihalarni amalga oshirishda yangiliklar va innovatsiyalarni qo'llashni rag'batlantirish.

7. Axborot xavfsizligini ta'minlash

- Ta'lim muassasalarida axborot xavfsizligi bo'yicha ko'rsatmalarni joriy etish, o'qituvchilar va talabalarga onlayn xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha treninglar o'tkazish.
- Talabalarga axborot texnologiyalaridan foydalanganda xavfsiz ishlash va axborotlarni himoya qilishni o'rgatish.

8. Ta'limda axborot texnologiyalarining integratsiyasi

- Axborot texnologiyalarini fanlararo yondashuvlar bilan integratsiya qilish. Masalan, matematika, tabiiy fanlar va boshqa fanlarda axborot texnologiyalar yordamida ko'rgazmali metodlarni qo'llash.
- Talabalarga real hayotdagi masalalarni yechishda axborot texnologiyalar vositalarini qo'llashni o'rgatish.

Bu chora-tadbirlar orqali ta'limda axborot texnologiyalarining samarali qo'llanilishi ta'lim sifatini oshirishi mumkin. Axborot texnologiyalarining takomillashtirilishi, o'qitish va o'rganish jarayonlarini yanada samarali va interaktiv tarzda tashkil etishga yordam beradi.

Natijalar muhokama: Kutubxona tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim muassasalari, jamoatchilik kutubxonalari va ilmiy kutubxonalarda xizmatlarning sifatini oshirish, axborot resurslarini boshqarish va foydalanuvchilarga qulaylik yaratishda muhim rol o'ynaydi⁶.

1. ⁶⁶Hans Petschar, «Project 'Digital Image Database'», 2023; available from http://www.onb.ac.at/samrnlungen/bildarchiv/projekte/bdb/e_einleitung_frs.htm,

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Zamonaviy texnologiyalar kutubxonalarda quyidagi sohalarda qo'llaniladi:

1. Elektron kutubxonalar va resurslar

- Elektron kitoblar va jurnallar: Kutubxonalar elektron formatda kitoblar, jurnallar va ilmiy maqolalar saqlashga imkon beruvchi tizimlar yaratmoqda. Bu resurslarga internet orqali kirish imkoni kutubxona foydalanuvchilariga katta qulaylik yaratadi.

- Digital arxivlar: O'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun muhim ilmiy materiallarni, tarixiy hujjatlarni va arxivlarni raqamlashtirish orqali ularga onlayn kirish imkoniyatini taqdim etish.

2. Kutubxona avtomatlashtirish tizimlari

- Integratsiyalashgan kutubxona tizimlari (ILS): Kutubxona resurslarini boshqarish, kataloglashtirish, foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish va ma'lumotlarni izlash uchun avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish. ILS tizimlari foydalanuvchilarga kitoblar va boshqa materiallarni izlash, zaxiralarni nazorat qilish va elektron foydalanuvchi kartalarini yaratishda yordam beradi.

- OPAC (Online Public Access Catalog): Kutubxonalar uchun onlayn katalog tizimi, foydalanuvchilarga kutubxonadagi resurslarni qidirish, rezerv qilish va olish imkoniyatini beradi.

3. Elektron resurslarga kirish va ma'lumotlarni qidirish

- Ma'lumotlar bazalari: Kutubxonalarda ilmiy va texnik ma'lumotlar bazalarini (masalan, JSTOR, ScienceDirect) obuna asosida foydalanish. Bu resurslar foydalanuvchilarga akademik ma'lumotlarni qidirish va olishda yordam beradi.

- Internet resurslari: Kutubxonalar foydalanuvchilarga ilmiy maqolalar, kitoblar, video materiallar va boshqa resurslarni internet orqali taqdim etadi.

4. Mobil ilovalar va xizmatlar

- Kutubxona ilovalari: Kutubxona tizimlariga mobil ilovalar orqali kirish imkoniyatini yaratish. Foydalanuvchilar mobil telefonlaridan kitoblarni qidirish,

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

ularni zaxiralash va yangi materiallar haqida bildirishnomalar olish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

- QR kodlari va raqamli ekranlar: Kutubxona materiallarini raqamli formatda o'qish va foydalanish uchun QR kodlar va interaktiv ekranlardan foydalanish.

5. Kutubxonada raqamli o'qish va o'rganish

- Interaktiv o'qish stansiyalari: Kutubxonalarda interaktiv displeylar, raqamli ekranga ega o'qish joylari tashkil etish, foydalanuvchilarni yangi raqamli resurslarga jalb qilish.

- E-o'qish platformalari: Kutubxonalarda talabalarga masofaviy ta'lim platformalari (masalan, eBook, audiokitoblar) orqali kitoblarni o'qish imkoniyatlarini yaratish.

6. Axborot xavfsizligi va himoya

- Ma'lumotlarni himoya qilish: Kutubxona tizimlarida foydalanuvchi ma'lumotlarini va elektron resurslarni himoya qilish uchun axborot xavfsizligini ta'minlash.

- Raqamli huquqlarni boshqarish (DRM): Elektron materiallarning noqonuniy nusxalanishini oldini olish uchun raqamli huquqlarni boshqarish texnologiyalarini joriy etish.

7. Kutubxona xodimlari uchun texnologik malaka oshirish⁷⁷.

- Xodimlarni tayyorlash va treninglar: Kutubxona xodimlarini yangi texnologiyalarni qo'llash uchun muntazam ravishda o'qitish va malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Xodimlar yangi dasturlar, tizimlar va resurslar haqida muntazam ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak.

- Vebinarlar va onlayn treninglar: Xodimlar va foydalanuvchilar uchun kutubxona tizimi bo'yicha vebinarlar va onlayn treninglar o'tkazish.

⁷⁷ Xaydarovna, TM, & Sevara, S. (2025). MADANIY TADBIRLARDI NUTQ SAN'ATINING O'RNI VA AHAMIYATI. *Zamonaviy dunyo ta'limi: yangi davr muammolari - yangi echimlar*, 2 (3), 7-11.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

8. Virtual kutubxonalar va resurslar

- Virtual kutubxonalar: Kutubxonalarning onlayn versiyalarini yaratish va foydalanuvchilarga keng doiradagi raqamli resurslarga kirish imkonini berish. Masalan, video darslar, ma'lumotlar bazalari va elektron kitoblar.

9. Yangi texnologiyalarni joriy etish va yangilash

- Sun'iy intellekt (AI) va ma'lumotlarni tahlil qilish: Kutubxonalarda foydalanuvchilarning ma'lumotlar bazalarida qidiruvlarini yaxshilash uchun sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili texnologiyalaridan foydalanish. Bu foydalanuvchilarga ko'proq mos va aniq materiallarni tavsiya qilish imkonini beradi.

- Ijtimoiy media va kutubxona xizmatlari: Kutubxonalarda ijtimoiy media platformalarini (masalan, Facebook, Twitter) foydalanish orqali foydalanuvchilarga yangi resurslar haqida xabar berish va ular bilan aloqada bo'lish.

10. Raqamli ta'lim platformalarini qo'llash.

- Raqamli ta'lim resurslari: Kutubxonalar talabalar va talabalar uchun raqamli ta'lim resurslarini yaratish va ularni taqdim etish. Bu resurslar ta'lim jarayonini yanada samarali va interaktiv qiladi.

Kutubxona tizimida axborot texnologiyalarining integratsiyasi, foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratadi, kutubxona resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi va yangi ma'lumotlarni olishni osonlashtiradi. Bu orqali kutubxonalar nafaqat ma'lumotlarni saqlash joyi, balki ilmiy va madaniy markaz sifatida ham rivojlanadi.

Xulosa: Axborot texnologiyalari kutubxona xodimlarining ishini osonlashtirish, foydalanuvchilarga zamonaviy va interaktiv xizmatlar taqdim etish imkonini beradi. Bundan tashqari, axborot xavfsizligi va raqamli huquqlarni boshqarish texnologiyalari kutubxona resurslarini himoya qilishni ta'minlaydi.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Kelajakda kutubxona tizimi yanada raqamlashtirilgan va foydalanuvchilar uchun qulayroq bo'ladi, bunda sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili va boshqa ilg'or texnologiyalar kutubxona xizmatlarini yanada takomillashtirishga yordam beradi.

Shunday qilib, texnologiyalarning kutubxona tizimida qo'llanilishi, kutubxonalarning rivojlanishi va ma'lumotlarga qulay kirish imkoniyatlarini yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. DomainSpa, LLC, «Global-info.org,» available from <http://www.globalinfo.org/>.
2. Hans Petschar, «Project 'Digital Image Database'», 2023; available from http://www.onb.ac.at/samrnlungen/bildarchiv/projekte/bdb/e_einleitung_frs.htm,
3. Abduvaxobova Sevara Alisher Qizi (2022). TEMA« SOVERShENSTVOVANIYe ZANYaTIY IZOBRAZITELbNYIM ISKUSSTVOM I RAZVITIYe SPOSOBNOSTEY UChAIIXSYa». Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1 (2), 104-107. Doi: 10.5281/zenodo.7182013
4. Xaydarovna, TM, & Sevara, S. (2025). MADANIY TADBIRLARDA NUTQ SAN'ATINING O'RNI VA AHAMIYATI. *Zamonaviy dunyo ta'limi: yangi davr muammolari - yangi echimlar* , 2 (3), 7
5. B.I. Ganiyeva; Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017. — 212 b.
6. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2017
 1. [www. tdpu. Uz](http://www.tdpu.uz)
 2. www. pedagog. uz
 3. www. Ziyonet. Uz
 4. www. edu. uz

Professional ta'limda san'at va madaniyatning o'ziga hosligi.

Tojiaxmedova Muyassar Xaydarovna

tojiaxmedovamuyassar9@gmail.com

Namangan davlat universiteti

Pedagogika fakulteti "San'atshunoslik" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotation: The article paid attention to these in such a way that today, in professional education, the specificity of art and culture is an important component of the educational process, and its role and influence in society is enormous. Art and culture not only provide means of artistic expression, but also occupy an important place in personal and social progress. The article presents some aspects that illustrate the identity of art and culture in professional education.

Keywords: culture, enlightenment, art, art, scene, status.

Kirish: Professional ta'limda san'at va Madaniyatning o'ziga xosligi ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning jamiyatdagi roli va ta'siri juda katta.

San'at va Madaniyat nafaqat badiiy ifodalanish vositalarini taqdim etadi, balki shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyotda ham muhim o'rin tutadi.

Professional ta'limda san'at va madaniyatning o'ziga xosligini ko'rsatib beradigan ba'zi jihatlar mavjud bo'lib bu san'atning nechog'lik jozimador hamda ta'lim sohasida ham o'zining yaqqol dalilini ko'rsatib turadi.

Material va metodlar: Yaratuvchanlikni rivojlantirish san'at va Madaniyat o'quvchilarda yaratuvchanlikni rivojlantiradi. Professional ta'limda badiiy va madaniy yo'nalishlar, talabalarni ijodkorlikka, o'z fikrini erkin ifodalashga, yangi g'oyalar yaratishga undaydi. Bu o'z navbatida, ish jarayonida innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Natijalar muhokama: Shaxsiy rivojlanish va o'zini anglash san'at va Madaniyat sohalarida professional ta'lim olish orqali o'quvchilar nafaqat kasbiy ko'nikmalarni egallaydi, balki o'zlarini anglash, dunyoqarashini kengaytirish, madaniy merosni hurmat qilish kabi shaxsiy rivojlanish tomonida ham taraqqiyotga erishadilar⁸. O'quvchi san'at orqali ichki dunyosini boyitib, ma'naviy o'sishga erishadi.

Milliy va global Madaniyatni o'rganish professional ta'limda san'at va Madaniyat orqali o'quvchilar milliy va global Madaniyatni o'rganadilar.

Madaniyat, an'analar va urf-odatlar haqidagi bilimlar o'quvchilarga o'zining madaniy merosini qadrlashni, shuningdek, boshqa xalqlarning Madaniyatini hurmat qilishni o'rgatadi. Bu esa global dunyoda ishlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantiradi.

Kommunikativ ko'nikmlarni oshirish: san'at va Madaniyat sohalaridagi ta'lim, o'quvchilarga samarali muloqot qilishni o'rgatadi. Musiqa, rassomlik, teatr kabi sohalarda ishlash orqali o'quvchilar o'z fikrlarini aniq va samarali ifodalashni, turli Madaniyatlarda faol hamkorlik qilishni o'rganadilar. Bu kommunikativ ko'nikmalar ish faoliyatida ham, ijtimoiy hayotda ham foydali bo'ladi.

Empatiya va ijodiy tafakkur: san'at va madaniyat insonlarda boshqalarni tushunish va ularga empatiya ko'rsatish qobiliyatini rivojlantiradi. Badiiy asarlarni tahlil qilish, san'atni boshqalar bilan baham ko'rish, ijtimoiy va madaniy muammolarga nisbatan o'z fikrini bildirish, ijodiy tafakkurni oshiradi va odamlar o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlaydi.

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish professional ta'limda san'at va Madaniyat sohalarida muhim kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradi⁹. Masalan, dizayn, arxitektura, musiqashunoslik, teatr san'ati kabi yo'nalishlar bo'yicha kasb

1. ⁸ Xaydarovna, T. M. (2025). NOBILITY OF SPIRITUALITY AND SPIRITUALITY WITH CONTINUOUS ART. *Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions*, 2(1), 18-21.

⁹ Xaydarovna, T. M. (2025). NOBILITY OF SPIRITUALITY AND SPIRITUALITY WITH CONTINUOUS ART. *Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions*, 2(1), 18-21.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

egallayotganlar, san'at orqali estetik va badiiy ko'nikmalarni egallashadi. Bu o'z navbatida kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni ta'minlaydi.

Madaniyatni targ'ib qilish san'at va madaniyatni professional ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, ularni jamiyatda kengroq targ'ib qilish imkonini yaratadi. O'quvchilar san'at va madaniyat orqali o'zlarini kasbiy sohada nafaqat samarali ishlovchi mutaxassis sifatida, balki madaniyatning targ'ibotchisi sifatida ham ko'rsatadilar.

Ijtimoiy va madaniy ongni rivojlantirish san'at va madaniyat jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy va madaniy ongni shakllantiradi. Professional ta'limda bu sohalar o'quvchilarga o'ziga xos ijtimoiy mas'uliyatni his qilishni, jamiyatdagi o'zgarishlarga, ijtimoiy muammolarga javob berishni o'rgatadi. Shuningdek, madaniy ko'nikmalarni egallash orqali o'quvchilar turli madaniyatlar bilan yaxshi muloqotda bo'lishni o'rganadilar.

Madaniy merosni saqlash va rivojlantirish: san'at va madaniyat sohalarida professional ta'lim berish orqali o'quvchilar milliy madaniy merosni saqlash va rivojlantirishga hissa qo'shishlari mumkin. madaniy obidalar, urf-odatlar, musiqa, raqs va boshqa san'at turlarini o'rganish orqali bu merosni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim rol o'ynashadi.

Ma'naviy qadriyatlarni yodlash yoki buyruq bilan etkazish mumkin emas. Ular hayot qiyofasi va uslubi, ongli hayot yaratish, axloqiy xulq-atvor, mehr-oqibat, hamdardlik, o'qituvchi vazifasiga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishda shakllantiriladi¹⁰.

O'qituvchi o'zining ustoz ekanligini hayoti bilan isbotlashi kerak. Maktab o'qituvchisi va universitet o'qituvchisi kasbi oddiy kasb emas, balki ramka va hayot tarzidir. Talabaning farovonligi ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy va

¹⁰ Abduvaxobova Sevara Alisher Qizi (2022). TEMA« SOVERShENSTVOVANIYe ZANYaTIY IZOBRAZITEL'NBIM ISKUSSTVOM I RAZVITIYе SPOSOBNOSTEY UChAIIIxSYa». Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1 (2), 104-107. Doi: 10.5281/zenodo.7182013

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

kasbiy fazilatlariga bog'liq. O'zbekistonning farovonligi mamlakatimizda yashovchi odamlarning fazilatlariga, ularni boshqaradigan oilaviy, axloqiy, ijtimoiy, estetik va madaniy qadriyatlar tizimiga bog'liq.

Madaniyat, ta'lim va tarbiya tushunchalarini ularning noaniqligi tufayli aniqlashtirish juda muhimdir. Madaniyatning olti yuzdan ortiq ta'riflari mavjud. Madaniyat – bu tarbiya, ta'lim, rivojlanish, hayot tarzi. Asta-sekin shaxs va jamiyatning axloqiy fazilatlarini shakllantirishga g'amxo'rlik madaniyatning etakchi ma'nosiga aylanadi. Madaniyat insoniyat jamiyatining ekologiyasidir. Madaniyat – bu odamlarning qanday muloqot qilishidir.

Aynan nutqiy muloqot sohasi orqali inson madaniyatga shaxsiy mansubligini his qilishi va shu bilan birga o'zining madaniy va tarixiy o'ziga xosligini anglashi mumkin¹¹.

Madaniyat har doim eng yaxshisini tanlashni o'z ichiga oladi, chunki madaniyat axloqiy va aristokratikdir.

Madaniyat taqiqlardan boshlanadi: “O'ldirmang”, “O'g'irlik qilmang”, “Qasam ichmang”, “Yolg'on guvohlik bermang” va hokazo. Muloqot inson madaniyatining katta qismidir. Muloqot madaniyati, ta'lim va tarbiya hamisha inson va jamiyatni takomillashtirishni talab qilgan va hozir ham taqozo qiladi. Jamiyat va jamoa so'zlarining o'zagi bir bo'lishining o'zi ham insonning asl ijtimoiyligining grammatik isbotidir.

Shunday qilib, jamiyat qanchalik madaniyatli bo'lsa, uning aholisi ham shunchalik madaniyatli bo'ladi. Xalq qanchalik madaniyatli, bilimli va odobli bo'lsa, jamiyat ham shunchalik madaniyatli bo'ladi. Ma'lumki, jamiyatda yashash va undan ozod bo'lish mumkin emas, Yer sayyorasi bizning umumiy uyimiz bo'lib, uning farovonligi uning barcha “hamrohlari” – barcha xalqlarning o'zaro ta'siri va muloqotiga bog'liq.

¹¹ Xaydarovna, TM, & Sevara, S. (2025). MADANIY TADBIRLARDI NUTQ SAN'ATINING O'RNI VA AHAMIYATI. *Zamonaviy dunyo ta'limi: yangi davr muammolari - yangi echimlar*, 2 (3), 7

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Shu munosabat bilan, hozirgi vaqtda atrof-muhitning farovonligi va o'zaro ta'siri uchun keskin istak mavjud. Bu shuni anglatadiki, barchamiz turli millatlar, konfessiyalar va madaniyatlarga mansub odamlar bilan qanday munosabatda bo'lishni, madaniy muloqot qilishni o'rganishimiz kerak. Zamonaviy ta'lim zamonaviy hayot, jamiyat madaniyati, ma'lum bir mintaqaga, maktab va universitetga, butun jamiyatga xos bo'lgan madaniy-ma'rifiy til va nutq vaziyatlari kontekstida amalga oshirilishi kerak.

bugungi kunda ta'lim jarayoni insonning muloqotda o'zini o'zi rivojlantirishi sifatida tushuniladi.

Xulosa :professional ta'limda san'at va madaniyatning o'ziga xosligi, nafaqat ijodiy va estetik rivojlanish, balki shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy taraqqiyotga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bu sohalarining o'qitilishi va o'rganilishi o'quvchilarga nafaqat kasbiy ko'nikmalarni egallashda, balki madaniyatni, qadriyatlarni anglashda, global va milliy o'zgartirishlarga javob berishda ham yordam beradi. San'at va Madaniyat professional ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, u shaxsning to'liq rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Xaydarovna, T. M. (2025). NOBILITY OF SPIRITUALITY AND SPIRITUALITY WITH CONTINUOUS ART. *Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions*, 2(1), 18-21.
2. Xaydarovna, T. M. (2025). NOBILITY OF SPIRITUALITY AND SPIRITUALITY WITH CONTINUOUS ART. *Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions*, 2(1), 18-21.
3. Abduvaxobova Sevara Alisher Qizi (2022). TEMA« SOVERShENSTVOVANIYe ZANYaTIY IZOBRAZITELbNYIM ISKUSSTVOM I RAZVITIYe SPOSOBNOSTEY UChASHIXSYa». *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, 1 (2), 104-107. Doi: 10.5281/zenodo.7182013
4. Xaydarovna, TM, & Sevara, S. (2025). MADANIY TADBIRLARDA NUTQ SAN'ATINING O'RNI VA AHAMIYaTI. *Zamonaviy dunyo ta'limi: yangi davr muammolari - yangi echimlar* , 2 (3), 7
5. B.I. Ganiyeva; Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017. — 212 b.
6. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2017



3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

FARG'ONA-TOSHKENT MAQOM YO'LLARI HAQIDA

Raximov Qodirjon

Namangan davlat universiteti San'atshunoslik kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Milliy musiqiy ijrochiligimiz uch asosiy yo'nalishda, ya'ni Xorazm - Buxoro - Farg'ona ijrochilik maktablari zamirida rivojlanganligi barchamizga ma'lum. Har bir voxa xalqining etnik joylanishi, urf-odatları, mahalliy mentaliteti, yashash turmush tarzi zamirida o'ziga xos musiqiy ijrochilik uslublari ham mavjuddir. O'n ikki maqom asosida Shoshmaqom yaratilganligi, Shashmaqom zamirida bastakorlarimiz tomonidan bir-biridan go'zal cholg'u va ashula yo'llari yaratilganligi aniq manbalar asosida bizgacha yetib kelgan. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari ana shunday mashhur ijrolarning mahsulidir.

Kalit so'zlar: voxa, etnik, urf-odatları, mahalliy, mentalitet, musiqiy, uslub, bastakor, go'zal, cholg'u, ashula.

“Dugoh Xusayniy”, “Shaxnozi Gulyor”, “Bayot”, “Chorgoh” ijrolari turkum sifatida mashhur bo'lganligi sababli “Chormaqom” (to'rt maqom) deb ham yuritiladi. Farg'ona, Toshkent, Samarqand vohalarida, Qozog'istonning Chimkent viloyatida va boshqa shaharlarda Shashmaqom asosida turli shakllardagi cholg'u va ashula yo'llari yaratilganligi ma'lum. Shular jumlasidan mashhur cholg'u asarlar: besh qismli Nasrulloiy, Munojot turkumi, Cho'li Iroq, Navoning bir necha cholg'u namunalari, Navro'zi Ajam, Ajam va uning taronalari, Ilg'or, Miskin va Adoyining besh qismli turkumi, ikki qismli Mirzadavlat, Madalibek, Beksulton, Cho'li Qurd, Sayqal, Suvora yo'lari, Mushkuloti Dugoh va uning Ufari, Dutor Bayoti, O'yin Dugohi, Rost Panjgoh Qashqarchasi, Dilhiroj, Mushkuloti Segoh va uning Ufari, patnisaki uslubda chalinadigan Dugoh, Segoh va Ushshoq namunalari Qari Navo, Surnay yo'llaridan Buzruk, Navo, Iroq, Dugoh, Dugohi Xusayniy, Nasrulloiy, Chorgoh, Mustahzod, Dashti Navo kabi o'nlab kuylar mahalliy bastakorlar tomonidan maqomlar asosida yaratilgan bo'lib, musiqiy madaniyatimizning bebaho durdonalari sanaladi.

Yuqoridagi sanab o'tilgan cholg'u yo'llari turkumli va yakka-yakka ijro etiladigan kuylardan iboratdir. Farg'ona-Toshkent maqomlarining ashula variantlari ham turkum va yakka tarzda ijro etiladigan ashulalar bo'lib, juda katta ko'rinish hosil qiladi. Turkum sifatida keladigan mashhur ijrolar quyidagilardir:

“Bayot” I, II, (II), III (III), IV, V.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

“Chorgoh” I, II, III (III), IV, V, VI.

“Dugoh Xusayniy” I,II,(II), III (tarona), IV (IV), V, VI, VII.

“Shaxnozi Gulyor” I, II, III, IV, V.

(Qavs ichida ko'rsatilganlari qo'shimcha variant ijrolaridir).

Ushbu turkum ijrolarga qisqacha sharh berib o'tamiz. Bayot I-Navo maqomining

Bayot sho'balari asosida yaratilgan va shu sho'bada uchraydigan avjlar va namudlar ma'lum darajada saqlanib qolgan. Bayot II-Navo maqomidagi Nasri Bayotning II-III taronalari kuy tuzilishi va harakati shakli bilan bir xillik kuzatiladi. Bayot III, IV, V kuy tuzilishi, shakli jihatdan oldingi qismlardan keskin farq qiladi. Ular Bayot I, II ijrolarining daromad boshlanish pardasidan besh parda, ya'ni Kvinta yuqoriga ko'tarib ijro etiladi. Lekin ijro tugashida yana daromad pardaga qaytiladi. Shu bilan Bayot turkumining to'liq ijrosi aniq boshlanish va tugallanish pardasiga ega bo'ladi. Yana bir mashhur ijro turkumi bo'lgan Chorgoh esa Dugoh maqomidagi Sarahbori Dugoh, Talqini Chorgoh, Nasri Chorgoh, Savti Chorgoh sho'hbalar asosida yaratilgan.

Chorgoh 1 da Sarahbori Dugohning doira usuli, ashula ijrosi, she'r o'lchovi va tushirish qismlari Savti Chorgoh shahobchalarining ma'lum ko'rinishidir. Chorgoh III ning ashula ijro yo'li Savti Chorgohga hamohangdir. Chorgohning IV, V, VI shahobchalari har xil doira usuli bilan ijro etiladigan bir xil ko'rinishlardir.

Farg'ona - Toshkent maqom yo'llaridan biri Dugoh Xusayniy turkumi, Shashmaqomdagi Xusayniy Dugoh asosida yaratilgan bo'lib, keyingi sho'balardan va taronalaridan foydalanilgan. Dugoh Husayniyning I-qismi Saraxbor, ikkinchi qismi Savti, keyingilari Qashqarcha usullarida ijro etiladi va Ufar, Suporish bilan tugallanadi.

Dugoh Xusayniyning hamma shaxobchalari xalq orasida keng tarqalgan. Farg'onaToshkent ijrochilik yo'llarida “Shaxnozi-Gulyor” ashulalar turkumi ham juda mashhurdir. “Shaxnozi Gulyor” Rost maqomi ashula yo'llari asosida yaratilgan bo'lib, birinchisi Gulyor, ikkinchisi Shaxnoz, uchinchisi Chapandozi Gulyor, to'rtinchisi Ushshoq, beshinchisi Qashqarchai Ushshoq nomlari bilan mashhurdir. Birinchi Gulyor Saraxbor usulida, Shahnoz - tarona usulda, uchinchisi - Chapandoz, to'rtinchisi - Saraxbor, beshinchisi – Qashqarcha doyra usullarida ijro etiladi. “Shaxnozi Gulyor” o'z tuzilishi jihatdan Bayot, Chorgoh, Dugohi Xusayniy turkumlaridan tubdan farq qiladi. Farg'ona - Toshkent maqom yo'llarida yana bir mashhur ijrolardan biri Rost maqomi sho'balari asosida yaratilgan Ushshoq turkumlaridir. Ushshoqning besh xil yo'li bo'lib, har biri alohida yakka ashula sifatida ijro etiladi. Ularning kuy tuzilishi, ohangi bir xil bo'lsada, shaklan

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

sal bir-biridan farqi bilan ajralib turadi. Ushshoq ijrolarida Uzzol sho'basining ohanglari daromadga, namudlari avjlarda ishlatilgan.

Ushshoq ijrolarining birinchisi qolganlaridan besh parda yoki kvinta ko'tarilib ijro etilishi bilan farqlanadi. So'nggi qatordan daromadga tushiladi va daromad pardadan keyingi Ushshoqlar boshlanadi. Uvaysiy g'azali bilan aytiladigan Ushshoq Farg'ona vodiysi va Toshkentda mashhur bo'lgan. Farg'ona-Toshkent ijrochiligida quyidagi turkum ijrolar ham mashhurdir: buzruk maqomi sho'balari bilan hamohang Abdurahmonbegi I - II va uning Ufari, marg'ilonlik Madali hofiz tomonidan 7 ta ijrogacha to'ldirilgan bo'lib, Farg'ona vodiysida "Madalibegi" deb ham yuritilgan.

Farg'ona-Toshkent ijrochiligida o'ziga xos ijro maktabiga ega bo'lgan katta ashula ijrosidir. Katta ashula mashhur ijro yo'li bo'lib, Farg'ona vodiysida, qisman Toshkentda ijro etiladi. Katta ashula ikki, uch, ba'zan to'rt hofiz tomonidan aytiladi. Patnisaki katta ashula deb ham yuritiladi. Ashula so'zlari ijro yo'nalishiga qarab bo'lib olinadi va ma'lum joylarda birga kuylanadi va birga tamomlanadi. "Rabbano dodimga yet", "Aylansin quling", "Bir kelsun", "Shafoat", "Adashganman", "Ey dilbari jononim", "Yovvoyi Chorgoh" singari patnisaki ashulalar juda mashhurdir. Keyinchalik "Bog' aro", "Kirib bo'stonni kezdim", "Kanolim", "O'zbekistonim" kabi katta ashulalar ham shu qatorga qo'shiladi. Hamroqul qori To'raqulov, Xolqora hofiz, Erka qori Karimov, Haydarali Hikmatov, Sherqo'zi Boyqo'ziev, Boltaboy Rajabov, Mamadbobo Sattorov, Jo'raxon Sultonov singari mashhur hofizlar katta ashula bobida dong taratganlar. Xulosa qilib aytganda, o'zbek musiqiy sanhatida Farg'ona-Toshkent ijrochilik maktabi alohida o'rin tutadi. Bu maktabning musiqiy va ashula ijrochiligi aniq uslubga, doyra usuliga, musiqiy tuzilmasiga egadir. Bu an'ana davom etmoqda va hozirda ham xalq bastakorlari ijodlarining samarasi bilan Farg'ona-Toshkent ijrochilik yo'llari boyib bormoqda. Ushbu ijroni amalga oshiradigan sozanda va hofizlar ham yetishib chiqmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Норова Шоира Умрзаковна ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ В ДУХЕ УВАЖЕНИЯ К НАЦИОНАЛЬНЫМ ЦЕННОСТЯМ ПОСРЕДСТВОМ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ // Наука, техника и образование. 2021. №2- 2 (77).
2. Shoira Umrzoqovna Norova MUSIQA MADANIYATI DARSLARINING XUSUSIYATI VA TUZILISHI // Scientific progress. 2021. №5.
3. Norova Shoira Umurzoqovna. (2021). METHODS OF PERFORMANCE BY MUSICAL INSTRUMENTS. *European Scholar Journal*, 2(9), 55-56.
4. Норова Шоира Умрзаковна, Хазратова Камола Нусратиллаевна РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ В ПОДГОТОВКЕ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ // Academy. 2021. №2 (65).

5. Норова Шойра Умрзаковна ВЗАИМОЗАВИСИМОСТЬ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ЛИЧНОСТЬ СТУДЕНТА // Вестник науки и образования. 2020. №21-2 (99)
6. Norova, S. U. "Imam Abu Hamid Al-Ghazali. Teacher-Student Coaching Relations." *The American Journal of Social Science and Education Innovations* 3.01 (2021): 441-445.
7. Рахматова Малахат Обидовна, Холикова Мохичехра Бахрилловна МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ МУЗЫКАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ МУЗЫКАЛЬНЫХ И ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ШКОЛ // Academy. 2021. №3 (66).
8. THE IMPORTANCE OF USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN SPECIAL EDUCATIONAL SCHOOLS M.Ё . Умурова - Вестник науки и образования, 2020
9. Норова Шойра Умрзаковна ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПУТЕМ ПОДГОТОВКИ МОЛОДЕЖИ К ХОРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ // Наука, техника и образование. 2020. №10 (74)
10. Рахматова Малахат Обидовна, Шодиева Гулхаё Абдурашит Кизы МУЗЫКАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ ПО МЕТОДИКЕ УОРДА (WARD) // Проблемы науки. 2021. №1 (60).
11. Mumtoz Musiqalarni Yaratishda Bastakorlik Ijodiyoti Educational Process Legislation and Principles and their Use in Student Practice SU Norova, T Mukhamedov - International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020
12. Рамазонова Угиллой Холмуродовна, Эсанова Махлиё Жамиловна ПОДГОТОВКА МОЛОДЫХ ПЕВЦОВ К АНСАМБЛЕВОМУ ВЫСТУПЛЕНИЮ // Наука, техника и образование. 2021. №2-1 (77).
13. Norova Shaira Umirzakovna Ways To Improve Learning Efficiency Using Innovative Technologies Web of Scientist: International Scientific Research Journal.
– 2021. – Т. 1. – №. 01. – С. 41-47.

**Professional ta'limda o'quvchilarda kitob o'qish ma'daniyatini
rivojlantish**

Nasriddinov Murod Toshiboyevich

murodjonnasirdnov@gmail.com

Namangan davlat universiteti

@<https://namdu.uz>.

Pedagogika fakulteti "San'atshunoslik" kafedrasi o'qituvchisi

Annotation: this article also talks about the role of the teacher in the development of skills and abilities in the development of games on the basis of school children and in the work of composition on the basis of the topic. the development of skills for students to work in composition on the basis of the topic is covered as a pedagogical problem.

Keywords: science, individual method, Guadalogy,

Kirish: Mutolaa madaniyati. "Mutolaa" so'zi arabcha "o'qish", "o'rganish", "diqqat bilan o'qish", o'qib tushunib olish" degan ma'noni anglatadi. Bugungi kunda mutolaa kitob o'qishdan ko'ra kengroq tushunchani bildirishini olim A.Umarov qo'yidagicha ta'riflaydi: "Ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va alohida individlarning umumiy ma'lumot olishga yunaltilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o'zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me'yorlar, ijtimoiy hodisalardir".

Natijalar, muhokama:

-birinchi darajada o'quvchi matnning mazmunini anglab, hikoya qilinayotgan voqeaning syujetini hamda uning asosiy jihatlarini eslab qoladi;

- ikkinchi darajada o'quvchi matnning mazmunini hamda syujetni anglab, voqealar rivojini ma'lum darajada bashorat qila olish qobiliyatini namoyon qiladi.

- uchinchi darajada o'quvchi matnga va unda hikoya qilinayotgan voqeaga o'zining mustaqil munosabatini bildirib, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholay oladi hamda asar epizodlarini tahlil qila oladi.

- to'rtinchi darajada o'quvchi matning mazmunini to'la anglab, voqeani mustaqil tahlil qila oladi. Voqea qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qilib, o'z munosabatini shakllantiradi .

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Kitob mutolaasi haqida Gyote shunday fikr bildiradi: a) nihoyatda mashaqqatli (darhaqiqat, kitob mutolaasi kishidan qunt va sabr, kuchli xotira va yuksak fahm talab etadi);

b) beqiyos sharaflı (kitob mutolaasi tufayli hayot qonuniyatlarini chuqur anglay borgan, bilim doirasi kengayib, tushunchasi, dunyoqarashi o'sgan, ma'naviy jihatdan yuksalgan);

v) huzurbaxsh (aks holda, kitob mutolaasi bilan muttasıl shug'ullanmagan bo'lardi) . Mutolaa madaniyati – o'quvchilarning kitob o'qishga qiziqish va ehtiyojlarini tarkib toptirish, badiiy asarlarni tahlil etish va xulosa chiqarish, axloqiy va estetik ideallarni shakllantirishga qaratilgan yaxlit jarayon. Demak, mutolaa madaniyati insonni bevosita amaliyotga kirishish, hayot bilan uyg'unlashish, ma'naviy foyda olishga yunaltiradi. Doris Lessing so'zi bilan aytganda, "Mutolaa insonni to'ldiradi!" – deyishadi, darhaqiqat, u insondagi bo'shliqlarni zarur ilmlar bilan to'ldiradi.

Professional ta'limda o'quvchilarda kitob o'qish madaniyatini rivojlantirish, kelajakda bilimlı va fikrlovchi shaxslar yetishtirishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning kitob o'qish madaniyatini rivojlantirish uchun turli metodlar va usullar qo'llanilishi mumkin. Quyidagi usullar bu jarayonni yanada samarali qilishda yordam beradi:

Kitoblarni tanlash va ularni taqdim etish

O'quvchilarga qiziqarli va o'ziga jalb qiluvchi kitoblar taqdim etish muhim. Kitoblar o'quvchilarning yoshiga va qiziqishlariga mos bo'lishi kerak. Shu bilan birga, o'quvchilarga ilmiy, adabiy va tarixiy kitoblar ham tavsiya etilishi lozim. Muallimlar kitoblarni taqdim etish jarayonida o'quvchilarni har xil janrlarga, mualliflarga qiziqtirishga harakat qilishlari kerak.

2. O'qish uchun vaqt ajratish

Professional ta'limda o'quvchilarga kitob o'qish uchun alohida vaqt ajratish muhimdir. O'quvchilarning har kuni kitob o'qishga vaqt ajratishlari, ularni o'qishga rag'batlantirishda samarali bo'ladi. O'qish vaqtlarini tashkil etish va shunday muhit yaratish o'quvchilarda kitobga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

3. O'quvchilar bilan kitob muhokamalarini o'tkazish

O'qilgan kitoblarni muhokama qilish o'quvchilarning fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Kitob haqidagi mulohazalarini ochiq va erkin tarzda ifoda etishlari uchun ular bilan guruhli muhokamalar o'tkazish muhim. Bunday muhokamalar o'quvchilarda kitoblarni tahlil qilish va mavzularni chuqurroq o'rganish imkoniyatini yaratadi.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Kitob klublarini tashkil etish

O'quvchilar uchun kitob klublarini tashkil etish, ular orasida o'qish madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi. Kitob klubi o'quvchilarga o'zaro fikr almashish va muhokamalar o'tkazish imkoniyatini yaratadi, bu esa ularning o'qish va tafakkur ko'nikmalarini yanada mustahkamlaydi.

O'qish bo'yicha aniq maqsadlar belgilash

O'quvchilarda kitob o'qish madaniyatini shakllantirishda aniq maqsadlar qo'yish muhimdir. Masalan, o'quvchilarga ma'lum bir vaqt ichida qancha kitob o'qishlari kerakligi haqida topshiriqlar berish yoki maxsus o'quv dasturlarini tuzish mumkin. Bu usul o'quvchilarni rag'batlantiradi va ularni o'qishga ko'proq jalb qiladi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish

Bugungi kunda axborot texnologiyalari yordamida o'quvchilarni kitob o'qishga rag'batlantirish mumkin. Elektron kitoblar va audio kitoblar, shuningdek, internetda mavjud o'quv materiallari o'quvchilarga yanada kengroq imkoniyatlar yaratadi. Bu o'quvchilarning o'qish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

O'qish madaniyatini tarbiyalashda o'qituvchilarning roli

O'qituvchilar o'quvchilarga o'qishning ahamiyatini tushuntirish, ularga kitoblarni o'qishga rag'bat berish va o'qish jarayonini samarali tashkil etish bo'yicha o'z bilim va tajribalarini ulashishlari lozim. O'qituvchilar o'z misollari bilan kitob o'qishning foydaliligini ko'rsatishi va o'quvchilarni rag'batlantirishi kerak.

Kitoblar orqali individual rivojlanish

O'quvchilar kitoblar orqali nafaqat bilimlarini, balki o'z shaxsiy rivojlanishini ham rivojlantiradilar. Kitoblar o'quvchilarga yangi g'oyalar, dunyoqarash va qadriyatlar haqida bilish imkonini beradi. Bu esa ularning shaxsiy o'sishiga yordam beradi.

Shunday qilib, professional ta'limda o'quvchilarda kitob o'qish madaniyatini rivojlantirish — bu nafaqat ilmiy bilimlarni oshirish, balki ularni fikr etish, tahlil qilish va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishga tayyorlashdir. Bu jarayonni samarali tashkil etish o'quvchilarning o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabatini yaxshilaydi.

Xulosa: Kitob o'qish, nafaqat bilimlarni oshirish, balki insonni ruhiy va intellektual jihatdan rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. O'qish, insonning dunyoqarashini kengaytiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va shaxsiy o'sishiga hissa qo'shadi. O'quvchilarni kitob o'qishga rag'batlantirish orqali,

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

ularning kritikal fikrlash, tahlil qilish va yaratuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Shuningdek, kitob o'qish madaniyatini tarbiyalashda o'qituvchilarning, otalarning va ta'lim tizimining roli muhimdir. Kitob o'qish jarayonini qiziqarli va samarali qilish uchun turli xil metodlar va resurslar qo'llanishi lozim. O'quvchilarni kitob o'qishga jalb etish, ularning fikr va hissiyotlarini anglashga, yaxshi inson sifatida shakllanishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, kitob o'qish — bu insonning intellektual o'sishi va shaxsiy rivojlanishi uchun ajralmas vositadir. O'quvchilarda kitob o'qish madaniyatini rivojlantirish esa ularning kelajakda muvaffaqiyatli va ma'naviy boy insonlar bo'lib yetishishiga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Baymetov, B. B., & Sharipjonov, M. S. O. (2020). Development Of Students' Descriptive Competencies In Pencil Drawing Practice. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(08), 261-267.
2. Doglu Sharipjonov, M. S. OLIY PYEDAGOGIK TA'LIMDA TALABALARGA MUAMMOLI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI.
3. Mirzahamdamovna, QB (2022). BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI O'QUVCHILARIDA BADIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHGA AMALIY SAN'ATNING O'RNI. SARQ UYGLANISHI: INNOVATION, TA'LIM, TABIIY VA IJTIMOIIY FANLAR ILMIY JURNALI .
4. Abduvaxobova Sevara Alisher Qizi (2022). TEMA«SOVERSHENSTVOVANIYE ZANYATIY IZOBRAZITEL'NYIM ISKUSSTVOM I RAZVITIYE SPOSOBNOSTEY UCHASHIXSYA». Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1 (2), 104-107. Doi: 10.5281/zenodo.7182013.
5. Abdinabi, A. va Rayhona, T. (2024). Tasviriy san'at turlari va janrlarida badiiy ijod asoslarining o'ziga xos xususiyatlari. *Web of Teachers: Inderscience Research* , 2 (3), 219-228.
6. Winetsky, D. E., Negoescu, D. M., DeMarchis, E. H., Almukhamedova, O., Dooronbekova, A., Pulatov, D., ... & Goldhaber-Fiebert, J. D. (2012). Screening and rapid molecular diagnosis of tuberculosis in prisons in Russia and Eastern Europe: a cost-effectiveness analysis. *PLoS medicine*, 9(11), e1001348.



Oliy ta'limda musiqa ma'daniyatini o'qitishning dolzarb masallari.

Davlatov Turgunpulat Sultanaliyevich

davlatovturgunpolat@gmail.com

Namangan davlat universiteti

Pedagogika fakulteti "San'atshunoslik" kafedrası o'qituvchisi

Annotation: in today's developing time, special attention is paid to the field of education in every Higher Education . The technology of teaching music mining in higher education shows the need for the use of effective educational methods and technologies in the educational process in modern times. The application of technology in teaching the science of music education helps to provide more interesting, interactive and effective education for students.

Keywords: science, individual method, Guadalogy,

Kirish: Oliy ta'limda musiqa ma'daniyatini o'qitish texnologiyasi hozirgi zamonda ta'lim jarayonida samarali ta'lim usullari va texnologiyalarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Musiqa ma'daniyati fanini o'qitishda texnologiyalarni qo'llash, talabalar uchun yanada qiziqarli, interaktiv va samarali ta'limni ta'minlashga yordam beradi.

Natijalar taxlili: Quyidagi usullar va texnologiyalar musiqa ma'daniyati fanini o'qitishda samarali qo'llanilishi mumkin:

Multimedia Resurslardan Foydalanish:

- Audio va Video Darsliklar: Musiqa asarlari, qo'shiqlar va orkestrlar ishlanmalarini ko'rsatish orqali talabalarga musiqa asarlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Musiqa parchalari, kompozitorlar haqidagi videolar, kontsertlar va boshqa manbalar o'qitish jarayonini jonlantiradi¹².

- Musiqa dasturlari va ilovalar: Musiqa tahlili, kompozitsiya yoki musiqa yaratish bo'yicha dasturlar yordamida talabalar o'z bilimlarini amalda qo'llashlari mumkin. Misol uchun, Sibelius, Finale, yoki MuseScore kabi dasturlar musiqa yaratish va o'rgatishda qo'llaniladi.

¹² Abduvaxobova Sevara Alisher Qizi (2022). TEMA« SOVERSHENSTVOVANIYE ZANYATIY IZOBRAZITEL'NYM ISKUSSTVOM I RAZVITIYE SPOSOBNOSTEY UCHASHISYA». Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1 (2), 104-107. Doi: 10.5281/zenodo.7182013.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

. Interaktiv O'qitish Platformalari -Onlayn Kurslar: Onlayn ta'lim platformalari, masalan, Coursera, edX, yoki Udemy, musiqa ma'daniyati bo'yicha darslarni o'rganish va talabalarga o'z vaqtida o'qish imkoniyatini beradi.

- Simulyatorlar va O'yinlar: Musiqa o'qitishda o'yinlar va simulyatorlardan foydalanish interaktiv yondashuvni qo'llashga yordam beradi. Talabalar musiqa asarlarini tinglab, o'z vaqtida o'rganish va tahlil qilishni o'rganadilar.

. Musiqa Tahlili va Ilmiy Tadqiqotlar

- Musiqa asarlarini tahlil qilish, ularning strukturasi, uslubi va mavzularini aniqlash uchun kompyuter dasturlari va tahlil usullaridan foydalanish. Bu, talabalar uchun musiqa tushunchalarini kengaytirish va chuqurroq anglash imkoniyatini beradi¹³.

. Virtual Konsertlar va Webinarlar

- Talabalar uchun virtual konsertlar va musiqa ijrochilarini jonli efirda tomosha qilish imkoniyati. Bu esa, ularni musiqa ijodini sezgir va amaliy ravishda tushunishga yordam beradi.

- Webinarlar orqali taniqli kompozitorlar yoki musiqa mutaxassislari bilan muloqot qilish, zamonaviy musiqa ma'daniyati haqida bilim olishni osonlashtiradi.

. Yangi Texnologiyalardan Foydalanish

- Virtual Haqiqat (VR) va Kengaytirilgan Haqiqat (AR) texnologiyalaridan foydalanish musiqa ma'daniyati fanini o'qitishda yangi va interaktiv yondashuvni taklif etadi. Talabalar virtual ravishda musiqiy asarlar ustida ishlashlari yoki tarixiy musiqiy voqealarni vizual tarzda ko'rishlari mumkin.

. Musiqa Ma'daniyati Darslarini Yangi Formatda Ta'lim

- Masofaviy o'qish, videodarslar va forumlar orqali musiqa ma'daniyatini o'qitish talabalar uchun moslashtirilgan ta'lim imkoniyatlarini yaratadi. Talabalar o'z vaqtida o'z bilimlarini oshirishi mumkin.

. Musical Intelligence va Smart Texnologiyalar

- Musiqa bilan bog'liq aqlli texnologiyalar, masalan, musiqa yaratishda yordam beradigan sun'iy intellekt tizimlari va dasturlarni qo'llash. Bu talabalar uchun yangi texnologiyalarni sinab ko'rish va ulardan o'rgatishda foydalanish imkoniyatini beradi.

¹³ Baymetov, B. B., & Sharipjonov, M. S. O. (2020). Development Of Students' Descriptive Competencies In Pencil Drawing Practice. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(08), 261-267.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

O'zaro Hamkorlik va Guruh Ishlari

- Talabalar orasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish uchun texnologiyalardan foydalanish. Masalan, onlayn platformalar yordamida musiqa bo'yicha guruh ishlari va loyihalarini amalga oshirish.

Oliy ta'limda musiqa ma'daniyatini o'qitish texnologiyalari nafaqat ta'lim jarayonini samarali qiladi, balki talabalarning musiqa va san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularga yangi yondashuvlar orqali bilim olishni osonlashtiradi.

Oliy ta'limda musiqa ma'daniyatini o'qitish bugungi kunda juda dolzarb masala hisoblanadi, chunki musiqa nafaqat san'at, balki insonning ma'naviy va estetik rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Musiqa madaniyatini o'qitishning dolzarb masalalarini quyidagicha ko'rib chiqish mumkin:

Musiqa ta'limining yangi metodologiyalari: Oliy ta'limda musiqa ta'limini samarali tashkil etish uchun yangi, innovatsion pedagogik uslublarni qo'llash zarur. Shu jumladan, audiovizual texnologiyalar, interaktiv o'quv metodlari va internet-platformalaridan foydalanish, talabalarning musiqiy yodlash va ijro etish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi¹⁴.

Musiqa va madaniyat o'rtasidagi bog'lanish: Musiqa faqat san'atning bir shakli bo'lib qolmay, balki turli millatlarning madaniy merosi, tarixi va ruhiyatini aks ettiradi. Musiqa ma'daniyatini o'qitish jarayonida talabalar musiqa va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunishlari kerak. Bu, o'z navbatida, xalqaro miqyosda musiqa madaniyati va uning ahamiyatini kengaytiradi.

Musiqa pedagogikasi: Musiqa ta'limi o'qituvchilari o'z kasbiy malakalarini doimiy ravishda oshirib borishlari lozim. Pedagogik malaka oshirish, metodologik bilimlarni yangilash va talabalarga musiqaning turli janrlarini o'rgatishda yangi uslublarni qo'llash zarur.

Musiqa va etika: Musiqa o'qitish jarayonida talabalar o'zlarining estetik didini shakllantirib, musiqa orqali axloqiy qadriyatlarni o'rganadilar. Musiqaning inson hayotidagi ahamiyatini tushunib, jamiyatda xolislik, madaniyat va do'stlik kabi ijtimoiy jihatlarni rivojlantirish muhimdir.

Milliy musiqa madaniyatining o'rni: Har bir xalqning musiqa madaniyati o'ziga xos va boy tarixga ega. Oliy ta'limda milliy musiqa madaniyatini o'rgatish,

¹⁴ oglu Sharipjonov, M. S. OLIY PYEDAGOGIK TA'LIMDA TALABALARGA MUAMMOLI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

talabalar tomonidan o'z vatanining musiqa merosiga nisbatan hurmatni rivojlantirish, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishni anglatadi.

Musiqa texnologiyalarining roli: Texnologiyaning rivojlanishi musiqa ta'limida katta o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Musiqiy kompyuter dasturlari, digital studiyalar va onlayn resurslar musiqaning o'qitish jarayonini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Shu bois, musiqa o'qituvchilarining yangi texnologiyalardan foydalanishlari zarur.

Musiqa madaniyatining jahon miqyosidagi o'rni: Dunyo bo'ylab turli madaniyatlarning musiqa o'qitishdagi uslublari va an'analari bir-birini boyitib, talabalarga global miqyosda musiqaning o'rni va ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

Musiqa ma'daniyatini o'qitishning dolzarb masalalari bugungi kunda shunday dolzarb bo'lib qolmoqda, chunki ularning har biri yosh avlodni nafaqat musiqa sohasida, balki butunlay ma'naviy-axloqiy rivojlanishda ham yordam beradi.

Xulosa: Oliy ta'limda musiqa ma'daniyatini o'qitishning dolzarb masalalari, ayniqsa, innovatsion metodologiyalarni joriy etish, musiqa va madaniyatning o'zaro bog'liqligini tushunish, yangi texnologiyalarni qo'llash va milliy musiqa merosini saqlash kabi muhim masalalarni o'z ichiga oladi. Musiqa nafaqat san'at, balki insonning ma'naviy va estetik rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli, oliy ta'limda musiqa ma'daniyatini o'qitish, talabalarning nafaqat musiqiy ko'nikmalarini, balki umumiy madaniy va axloqiy qadriyatlarini ham rivojlantirishga yordam beradi. Talabalar, musiqa o'qitish jarayonida milliy va jahon miqyosidagi musiqa an'alarini o'rganib, o'zlarining estetik didini shakllantiradilar.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abduvaxobova Sevara Alisher Qizi (2022). TEMA« SOVERSHENSTVOVANIYE ZANYATIY IZOBRAZITEL'NYIM ISKUSSTVOM I RAZVITIYE SPOSOBNOSTEY UCHASHIXSYA». Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1 (2), 104-107. Doi: 10.5281/zenodo.7182013.
2. Baymetov, B. B., & Sharipjonov, M. S. O. (2020). Development Of Students' Descriptive Competencies In Pencil Drawing Practice. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(08), 261-267.
3. o'glu Sharipjonov, M. S. OLIY PYEDAGOGIK TA'LIMDA TALABALARGA MUAMMOLI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI.
4. Mirzahamdamovna, QB (2022). BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI O'QUVCHILARIDA BADIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHGA AMALIY SAN'ATNING

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

O'RNI. SARQ UYGLANISHI: INNOVATION, TA'LIM, TABIIY VA IJTIMOIIY FANLAR ILMIY JURNALI .

5. Abdinabi, A. va Rayhona, T. (2024). Tasviriy san'at turlari va janrlarida badiiy ijod asoslarining o'ziga xos xususiyatlari. *Web of Teachers: Inderscience Research* , 2 (3), 219-228.
6. Winetsky, D. E., Negoescu, D. M., DeMarchis, E. H., Almukhamedova, O., Dooronbekova, A., Pulatov, D., ... & Goldhaber-Fiebert, J. D. (2012). Screening and rapid molecular diagnosis of tuberculosis in prisons in Russia and Eastern Europe: a cost-effectiveness analysis. *PLoS medicine*, 9(11), e1001348.



3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

YOSHLAR TARBIYASIDA XALQ QO'SHIQLARINING AHAMIYATI

Jo'rayeva Dilnoza

Namangan davlat universiteti

San'atshunoslik kafedrası:O'qituvchisi

ANOTATSIYA

Musiqa va yoshlar tarbiyasining rivojida xalq qo'shiqlarning o'rni beqiyos bo'lib, ushbu yo'nalishga hissa qo'shayotgan mutaxassislar qalbida milliy g'urur, ona zaminga mehr-muhabbat tuyg'ulari kamol topdi. Yoshlar tarbiyasi kabi mas'uliyatli vazifa ota-onadan keyin ta'lim fidoyilarining zimmasiga tushadi. Ta'lim tizimida mehnat qilayotgan har bir pedagog tarbiyani ta'lim bilan birga barobar holda olib borish yo'lida zamonaviy usuldagi dars samaradorligiga erishish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tarbiya, ta'lim, qo'shiq, san'at, musiqiy ta'lim, to'garak, musiqa madaniyati.

ANNOTATION

The role of folk songs in the development of music and youth upbringing is invaluable, fostering a sense of national pride and love for the homeland in the hearts of specialists contributing to this field. The responsibility of educating the younger generation, following that of parents, falls upon dedicated educators. Every teacher working in the education system must integrate upbringing with education, striving for the effectiveness of modern teaching methods. This paper discusses achieving efficiency in lessons through contemporary approaches.

Keywords: upbringing, education, song, art, musical education, club, music culture.

Ma'naviy sohada o'z ifodasini topgan musiqa tarbiyasidagi yutuqlar odamlarning, xalqimiz, millatimizning axloqi va madaniyatida, dunyoqarashida ro'y bergan sifat o'zgarishlari mustaqillik ilk bosqichining muvaffaqiyati hisoblanadi.

Musiqa san'ati insonni tarbiyalaydi, uni ezgulikka, kishilarni yaxshilik qilishga undaydi. Musiqaning yoshlar tarbiyasidagi o'rni beqiyosdir. Biroq bugungi kunda yoshlarning musiqaga qiziqishlari biroz muammolar keltirib chiqarmoqda. Ko'plab yoshlar xorijiy musiqalarga taqlid qilgani holda o'zlarining ko'rinishlariga ham g'arbona tus bermoqdalar. Milliy kuy-qo'shiqlarimizni unutib qo'yishayotgandek nazarimizda... chindan ham biror bir yoshlarni tanovvor, munojot yoki maqom qo'shiqlaridan hirgoyi qilishlariga duch kelmaymiz. Xalqimiz orasida tanilib borayotgan ayrim "yosh estrada xonandalari"ning qo'shiqlari ham bachkana ko'rinishda tinglovchiga taqdim etilmoqda. Birgina so'zning bir necha bor takrorlanishi tinglovchga manzur bo'lmaydi, va holanki ularning yangrayotgan musiqalari xorij musiqalaridan o'g'irlangan. Bunday shovqinli musiqalarga berilgan yoshlar o'zlarini go'yo ohang yo'nalashiga yo'rg'alatadilar, harakatlari ham bizning mentalitetimizga to'g'ri kelmaydigan ko'rinishda bo'lmoqda. Aynan shunday xolatlarni kelib chiqmasligi uchun musiqa madaniyati darslarida milliy kuylarni tinglash, xalq qo'shiqlaridan o'rgatib borish zarur.

Bunda o'zbek milliy musiqa san'atini kengroq tushuntirish, o'qib o'rganish uchun adabiyotlar majmuasini, shunga oid darsliklar ishlab chiqishni, mumtoz kuylarimiz tushirilgan diskalar to'plamini yetkazishni ta'lim mutassaddilari kengroq o'ylab ko'rsalar maqsadga muvofiq

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

bo'ladi. Chunki musiqa orqali yana takroran aytamizki Inson tarbiya topadi, xalqona yo'lda yaratilgan qo'shiqlar orqali kishilar tin oladilar. Biroz bo'lsada madaniy xordiq chiqaradilar, g'am-tashvishlarini unutadilar. Umuman olganda milliy qo'shiq yoki musiqa inson qalbiga yaqin bo'ladi. Bunday ko'rinishlar ko'proq fol klor yo'nalishidagi kuy-qo'shiqlarda namoyon bo'ladi. Dars jarayonida o'quvchilardan qanday fol klor qo'shiqlarini bilasizlar deb savol bersak birorta sanab berolmaslik holatlari namoyon bo'lmoqda, shuning uchun ko'proq fol klor qo'shiqlarini dars jarayoniga olib kirish o'rnlidir.

Biz darslarimizda qo'shiq o'rgatish jarayonida o' zaro xurmat ko'nikmalarini, odob-axloq qoidalarini, oddiy xalqimizning xalqo'chilligidan olib, yosh avlodga yetkazishimiz lozim. O'zbek xalq musiqa madaniyati – o'quvchi yoshlar ma'naviy boyligining muhim omilidir.

Hamadonning sokin oqshomi boshlandi. Osmon moviy tusga kirdi. Qushlar tunash uchun joy qidirib uchib o'tishdi. G'ijjak Abu Alining qo'lida daraxt barglarining shildiratib o'tgan yengil shabada kabi mayin kuylardi.

Asrlar, davrlar o'tishi bilan inson kamol topa borgan sari musiqa asboblari ham takomillashib, bugungi kunimizga rang-barang kurinishda, turfa sado va navolarni qalbiga jo kilib keldi. Endilikda, masalan, dutorning qaddi-basti tut va o'rik daraxtlaridan yo'nilyapti, bir uchi yurakka, ikkinchi uchi tilga ulangan kil torlari ipakdan, ust boshi duhobadan uy to'rida yonboshlab yotibdi. Shu o'rinda qayd etish lozimki, oddiy yog'ochni tilga kiritishda hozirgi kunda qo'li gul o'zbek ustalari – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi usta Usmon Zufarov, usta Xoji Oxun, usta Raxim Kosimov, usta Mansur, usta Sirojiddin Muxiddinov, usta Rixsixon Xujaxonov va boshqalarning mahorati, xizmati juda kattadir.

Avvalo, shuni aytish lozimki, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ta'lim tizimi tasarrufidagi barcha fanlarning tizimdagi barcha bo'g'inlar (maktabgacha ta'lim, umumta'lim, o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim)da o'z yo'nalishlari bo'yicha muntazam va uzluksiz ravishda o'qitilishini ko'zda tutgan. Demak, barcha fanlar qatorida musiqa fanlarini o'qitish ham ma'lum tartib asosida olib borilishi uni o'qitish jaranining uzluksiz davom etishi qonunda aks ettirilgan. Lekin hozirgi mavjud holat ushbu qonun talablariga mos kelmayapti.

Muammoning birinchisi shundan iboratki, xalq ta'limi vazirligi va Respublika o'quv metodik markazi tomonidan umumta'lim maktablari uchun o'quv rejalari ishlab chiqish jarayonida musiqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv jarayonining VII sinfgacha belgilash vaqtida negadir qonun talablari hisobga olinmasdan qolgan. Har bir bola yoki o'smir yashash va ta'lim olish jarayonida qaysidir fanga yoki sohaga qiziqqa boradi. Shu jumladan, maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablarida o'qitiladigan musiqa mashg'ulotlari va darslari bolalarning ma'lum qismini ushbu sohaga qiziqtiradi. Ularda kelgusi hayotlarida musiqa ilmi, ijodiyoti va amaliyoti sohasining mutaxassisi bo'lish ishtimyogini hosil qiladi.

Shunday ekan, bolalarni qiziqishlariga ko'ra, taqqoslash, rag'batlantirish va ularni shu sohada kelgusida bilimlarini oshirishlari uchun kerakli bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish lozim. Umumta'lim maktablarining VII sinflarida musiqiy fan o'qitilishining to'htatilishi shu sohaga qiziquvchi bolalarning soha bo'yicha ilm olishini ham to'htatib qo'ymoqda. Ular o'rta maxsus o'quv dargohlariga borgunlariga qadar o'tgan ikki yil (8-9 sinf) muddat, bolalarning shu soha bo'yicha avval olgan bilimlari, ko'nikma va malakalarini unutib qo'yishlariga sabab bo'lmoqda. Bu borada maktabdan tashqari o'quv muassasalari (musiqa maktablari, ijodkor yoshlar

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

to'garaklari, pullik to'garak va boshqalar) yordam berishi mumkin, lekin buning ham o'ziga xos noqulaylik tomonlari bor.

Avvalo, maktabdan tashqari bunday o'quv muassasalari va to'garak hamma joyda ham mavjud emas, qolaversa bunday pullik ta'lim hamma ota-onalar yashash sharoitlari va imkoniyatlariga mos tushmaydi. Masalani yechishning eng maqbul yo'li fikrimizcha tizmidagi bunday uzilishga barham berish lozim. Shundagina musiqa sohasiga bolalikdan qiziqib, uni o'ziga kasb-hunar sifatida tanlashga qaror qilgan o'smirlar soha bo'yicha o'rta maxsus o'quv yurtlariga kirib o'qish, shu orqali kelajakda malakali mutaxassis bo'lish imkoniga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, ma'lumki, maktabgacha ta'lim muassasalari musiqa mashg'ulotlari hamda umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari musiqa madaniyati darslarida musiqiy faoliyatning musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, cholg'u sozlari chalish, musiqali ritmik harakatlar bajarish va musiqa savodi kabi turlaridan foydalaniladi. Musiqiy fanlarni ta'lim tizimining ushbu ko'rsatilgan bo'g'inlarida o'qitish jarayonida barcha faoliyat turlari bo'yicha beriladigan bilimlar ko'lamini bolalar yosh xususiyatlariga ko'ra oddiydan murakkabga tomon rivojlantirish nazarda tutilgan. Lekin bu ishda aniqlik yetishmaydi. Masalan: musiqa savodi faoliyati turi bo'yicha bolalar bog'chasi kichik guruhida musiqa nazariy bilimlarining qaysi elementlari o'rgatilishi, u o'rta guruhda qay darajada etishi, katta guruhlar bu borada nimani o'rganishi, umumta'lim maktablari 1-sinflarida u qay darajada davom ettirilishi aniq tartibga solinmagan.

Biz maktabgacha ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari o'quv dasturlari o'rtasidagi umumiy mushtaraklik, bir-birini to'ldirish, boyitish, ikkinchisi birinchisining barcha musiqiy faoliyat turlari bo'yicha bevosita davomchisi bo'lishini nazarda tutmoqdamiz.

Ta'lim tizmining barcha bo'g'inlari uchun musiqiy fanlarni o'qitishning ma'lum tartibini oddiydan murakkabga tamoyili asosida ishlab chiqish lozim va bu borada uzilish yoki takrorlanishga yo'l qo'ymaslik lozim. Istisno tarzida shuni aytish lozimki, bolalar bir bosqichdan ikkinchi bosqichga, bir sinfdan yoki bir guruhdan ikkinchisiga o'tgan chog'da, avval, olingan bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadidagina takrorlash mumkin.

Muammoning ikkinchisi, maktabgacha ta'lim xususida bo'lib, tahlil qilishimizcha Respublikamizdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'lum qismini maktabgacha tarbiya muassasalariga jalb etilgan. Bu muassasalarda ta'lim-tarbiya bosqichidan o'tmagan bolalar dunyoqarashi, bilimi, ko'nikma va malakalari o'rtasida kattafarqlar bo'lib, bu holat ta'lim olmagan bolalarning umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quv dasturida ko'zda tutilgan bilim va malakalarini egallashlarida nomutanosiblik tug'dirmoqda.

Shuni aytish kerakki, hozirgi davrda zamon hamda DTS talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan o'quv dasturlari nisbatan murakkab bo'lib, u sinflar osha tabora murakkablasha boradi. Natijada maktabgacha ta'lim olmagan bola fanlarni o'zlashtirishda qiynaladi, o'z kuchiga ishonchsizlik paydo bo'ladi. Ta'lim olgan bolalar esa o'qishni, yozishni, hisoblashni, rasm chizishni, musiqiy savodxonligi, ijro malakasi, musiqiy dunyoqarashi ta'lim olmagan bolalarga nisbatan past nazar bilan tubdan farq qiladi. O'zlashtirishi qiyin bolalar qoloqlar safida bo'lib qolishi, ularni ruhan tushkunlikka olib keladi. O'quvchi – yoshlarni yuksak e'tiqodli, ma'naviy barkamol, ajib fazilatli, xushfe'l, yoqimtoy, mehnatkash, samimiy, rahmdil qilib tarbiyalashda qo'shiq va musiqaning o'rni beqiyosdir. Musiqa tarbiyachilari ijodkor shaxslardir, ularning qalbida yomonlik hissi umuman bo'lmaydi. Ular faqat yaxshilik, ezgulik xaqida so'zlab, o'zlarining milliy oxanglarini yoshlar ongida shakllantirish yo'lida xizmat qiladilar.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Zero, bunday tarbiya berish usuli bizning buyuk ajdodlarimizdan o'tgan. Zotan, Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig» asarida ham axloq tarbiya saboqlari xaqida to'xtalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Sh.M.Mirziyoev. "Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar - ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimiz dir" Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati IV Qurultoyidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2017 yil 6 iyun .
2. O'zbek xalq musiqa ijodi. 1- kism. T. 1994 y.
- 3."Musiqiy tarbiya-ma'naviyat ko'zgusi", Namangan davlat universiteti,"To'plam" 2017 y.



3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

XALQ MUSIQASI MEROSIDAGI MUMTOZ ASARLARNING ASHULA VA RAQS ANSAMBLARI REPERTUARI UCHUN AHAMIYATI

Boburjon Boqijon o'g'li Abdurahimov

Namangan davlat universiteti San'atshunoslik kafedrası o'qituvchisi

abdurahimovb65@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada, xalq musiqasi merosidagi mumtoz asarlarning ashula va raqs ansambllari repertuari uchun ahamiyati o'rganiladi. Maqolada mumtoz musiqiy asarlarning xalqning madaniy va estetik qarashlarini aks ettiruvchi muhim san'at namunalari sifatidagi o'рни ta'kidlanadi. Ayniqsa, ashula va raqs ansambllarining repertuaridagi mumtoz asarlarning musiqiy, ritmik va vokal xususiyatlari orqali milliy san'atning rivojlanishiga bo'lgan ta'siri yoritiladi. Maqola mumtoz musiqaning melodik tuzilmasi, she'riy mazmuni va ijro madaniyati kabi jihatlarini tahlil qiladi. Maqola umumiy ravishda ashula va raqs ansambllarining repertuariga mumtoz asarlarning qanday ahamiyat kasb etishini, ularning san'atdagi o'рни va muhimligini o'rganishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: xalq musiqasi, meros, mumtoz, ashula, raqs, ansambl, repertuar, estetik, madaniy, san'at, vokal, maqom, melodik, katta ashula, usul, ushshoq, kuy, raqs, janr, an'ana, melodik tuzilma, tarbiya, estetik qarashlar.

Abstract: This scientific article explores the significance of classical works within the heritage of folk music for the repertoire of vocal and dance ensembles. The article highlights the role of classical musical compositions as essential art samples that reflect the cultural and aesthetic worldview of the people. Special emphasis is placed on the influence of classical pieces on the development of national art through their musical, rhythmic, and vocal characteristics in the repertoires of vocal and dance ensembles. The article analyzes aspects such as the melodic structure, poetic content, and performance culture of classical music. Overall, the article is devoted to studying the importance of classical works in the repertoire of vocal and dance ensembles, their place, and significance in art.

Keywords: folk music, heritage, classical, vocal, dance, ensemble, repertoire, aesthetic, cultural, art, vocal, maqom, melodik, katta ashula, usul, ushshoq, melody, dance, genre, tradition, melodic structure, upbringing, aesthetic worldview.

Xalq musiqasi – millatning ruhiy dunyosi, tarixiy xotirasi va estetik qarashlarini mujassam etgan betakror merosdir. Ayniqsa, ushbu meros tarkibida alohida o'rin tutadigan mumtoz musiqiy asarlar – nafaqat musiqiy san'at namunasi, balki xalqning falsafasi, dunyoqarashi va ma'naviy olami ifodasi hisoblanadi. Bugungi kunda ashula va raqs ansambllarining repertuarida mumtoz asarlarning tutgan o'рни ularni saqlash, targ'ib qilish va yosh avlodga yetkazishning

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

muhim shakli sifatida xizmat qilmoqda. Mumtoz asarlarning musiqiy-estetik qadriyati juda yuqoridir. Mumtoz asarlar – bu avloddan avlodga o'tib kelgan, ma'lum kompozitsion andozalarga asoslangan, musiqiy va poetik jihatdan mukammal ijod namunalari bo'lib, ular quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Melodik tuzilma: nozik ohang, mukammal intonatsion qurilish;
2. She'riy asos: lirik va falsafiy mazmunga ega bo'lgan ruboiy, g'azal yoki boshqa janrlardagi matnlar;
3. Ijro madaniyati: an'anaviy ijrochilik maktablariga tayangan yuksak professional uslub.
4. Professionalizm: ijrodagi murakkablik, asarni ijro etishdagi nozik tomonlarini ochib bera olish.

Ushbu xususiyatlar ansambllar repertuarida nafaqat estetik ko'rinish, balki milliy ruh, musiqiy tafakkur va mahoratni oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. **Mumtoz asarlarning musiqiy-estetik qadriyati** haqida gap ketganda quyidagilarni aytish aytib o'tish kerak. **Mumtoz asarlarning musiqiy-estetik qiymatini hozirgi zamonda hech nima bilan taqqoslab bo'lmaydi. Aytish joiz bo'lsa, ushbu asarlarning beradik ma'naviy ozuqasiga muqobil boshqa biror narsa yoq.** Mumtoz asarlar – xalq musiqasining yuksak namunalaridan bo'lib, ular faqat musiqiy tarkibga ega bo'lib qolmay, balki xalqning madaniy va estetik qarashlarini, falsafiy fikrlarini ham o'zida mujassamlashtirgan asarlardir.

Mumtoz asarlarning musiqiy-estetik qadriyatlari ma'lum bir asosiy jihatlarda o'z ifodasini topadi. **Musiqiy tuzilma va kompozitsiya**, mumtoz asarlar musiqiy tuzilma nuqtai nazaridan o'zining mukammalligi bilan ajralib turadi. Ularning **melodik tuzilmasi** o'ta nozik va murakkab bo'lib, musiqa ohanglarining chuqur mazmuni va hissiy holatini aks ettiradi. Mumtoz asarlarda ko'pincha **maqom tizimiga** asoslangan kompozitsiyalar uchraydi, bu esa musiqaning o'ziga xos va ajralmas shaklini yaratadi.

Shashmaqom va kaatta ashula kabi an'anaviy shakllar asosida tuzilgan asarlar musiqaning melodik va garmonik boyligidan foydalanadi. Ushbu asarlarning **kompozitsion tuzilmasi** avvalo estetik, balki musiqiy tafakkurni oshirish, eshituvchini ruhiy jihatdan tarbiyalashda ham katta rol o'ynaydi. Har bir asar o'zining maxsus ritmik, garmonik va melodik tizimiga ega bo'lib, o'zi mavjud bo'lgan madaniyatning musiqiy merosini kengaytiradi. Mumtoz asarlarning musiqiy-estetik qadriyatlari o'zgacha she'riy va poetik mazmuni bilan mustahkamlanadi. Bu asarlarda, ayniqsa, **g'azallar, ruboiy va masnaviylar** kabi she'riy shakllarda ifodalangan lirik va falsafiy g'oyalar yuksak estetik qiymatga ega. Mumtoz musiqaning she'riy asoslari orqali xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari, ma'naviyati va dardi ifodalanadi. She'riyat va musiqaning uyg'unligi mumtoz asarlarning ruhiy va estetik ahamiyatini yanada yuksaltiradi. Masalan: **“Ushshoq”larda tasavvuf** va mistitsizm qarashlarini ko'rish mumkin, unda musiqiy ohanglar va she'riy obrazlar bir-birini to'ldiradi. **G'azallarda**, masalan,

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Navoiyning lirik she'riy asarlarida musiqiy cholg'u sozlar orqali nasr va musiqani bog'lashda mahorat ko'rsatilgan va poetik frazalarning aks etishiga imkon berilgan.

Ijro madaniyati va vokal mahorati mumtoz musiqada alohida o'rin tutadi. Asarlarda **intonatsiya** va **vokal ifodaning** nozikligi yuksak estetik qadriyatga ega. Xususan, turli **maqomlar** va boshqa **janrli mumtoz asarlar** ijrosida musiqachilarning ovoz kuchi va chiroyini ochish imkoniyati mavjud. Shuningdek, **intonatsion ifoda** va musiqiy tuzilma yordamida asarlarning mazmuni va fikri tomoshabinga yetkaziladi. Mumtoz ashulalar, masalan, **“Sarahbori navo” kabi maqomlar** yoki **“O'xshaydiku”** kabi qo'shiqlar nafaqat musiqiy qobiliyatni, balki musiqiy jozibadorlikni va madaniyatni saqlash imkoniyatini ham beradi. **Xalq musiqasining falsafiy va ma'naviy qiymati** Mumtoz musiqaning musiqiy-estetik qadriyatlari faqat musiqiy ifodalar bilan chegaralanib qolmaydi, balki ular xalqning ruhiy, falsafiy va ma'naviy qarashlarini o'zida aks ettiradi. Mumtoz asarlar ko'pincha insonning **hayotiy yo'liga** bag'ishlangan bo'lib, ular yordamida xalqning ma'naviy ehtiyojlari va diniy qarashlarini ham ifodalanadi. Shunday qilib, mumtoz musiqaning estetik qadriyatlari uni faqat san'at asari sifatida emas, balki xalqning madaniy va ma'naviy merosi sifatida ham ahamiyatli qiladi. Bularning barchasi xalq musiqasining yuksak qadriyatini, uning milliy birligini va tarixiy merosini saqlash zaruratini ta'kidlaydi.

Ashula va raqs ansambllarining repertuarida mumtoz asarlar xalq musiqiy ijrochiligining jonli ifodasi bo'lib, ular o'z repertuarlarini mumtoz asarlarsiz tasavvur eta olmaydilar. Jumladan: Shashmaqom, Katta ashula, Mavrigiylar kabi janrlar asosidagi asarlar ijrochilik maktablarining asosiy qismini tashkil etadi. Mumtoz asarlar vokal mahoratini oshirish, tovush diapazonini kengaytirish va musiqiy ohangdorlikni his qilish uchun eng samarali vositadir. Ular orqali yosh ijrochilar xalq musiqa an'alarining chuqur ildizlarini o'rganadilar. Repertuarni shakllantirishda Komiljon Otaniyozov, Yunus Rajabiy, Jurahon Sultonov, Munajat Yo'lchiyeva kabi mumtoz musiqachilarning ijodiy merosi alohida o'rin egallaydi. Ashula va raqs ansambllari uchun mumtoz asarlar nafaqat musiqiy asos, balki harakat estetikasi, ritm va kayfiyat manbai hisoblanadi. Mumtoz musiqada bazi hollarda ritmik murakkabliklar ham uchrab turadiki, 7/8 kabi noan'anaviy o'lchovlar orqali raqqosaning texnik mahoratini oshirishga xizmat qiladi.

Masalan, **“Munajat”, “Ufar”, “Bayot”** kabi kuylar asosidagi raqslar xalq merosini sahna san'atida jonlantirishda alohida o'rin tutadi. Ushbu musiqiy chiqishlarning tarbiyaviy va madaniy-ma'rifiy ahamiyati, mumtoz asarlarning ansambl repertuarida bo'lishi yosh avlodda milliy g'urur, madaniy xotira, ma'naviy poklik kabi fazilatlarni tarbiyalaydi. Musiqiy estetikani shakllantirishda, milliy imunitetni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Xalq musiqasining turli janrlari avlodlar o'rtasida uzviylik va uzluksizlik tamoyillarini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Ansambllar bu asarlar orqali tomoshabinga milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ruhiy olamni sezdiradi.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Xulosa: Mumtoz asarlarning musiqiy-estetik qadriyati faqat musiqa shakli yoki tovushlarning uyg'unligi bilan cheklanmaydi. Ular xalqning ruhiy va madaniy qiyofasini, ma'naviyatini aks ettiruvchi va jahon madaniyatiga qo'shiladigan bebaho xazina sifatida katta ahamiyatga ega. Bu asarlar nafaqat estetik go'zallik, balki xalqning tarixiy va madaniy xotirasini saqlash vositasi sifatida ham qiymatlidir.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Rajabiy, Yunus. O'zbek xalq musiqasi. Toshkent: "Fan", 1975.
2. Otaniyozov, Komiljon. Mumtoz ashulalar to'plami. Nukus: Qoraqalpoq davlat nashriyoti, 1983.
3. Yo'ldoshev, Murod. O'zbek raqs san'ati tarixi. Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot", 2002.
4. Islomov, Sh. Mumtoz musiqa va maqom san'ati. Toshkent: "Sharq", 2001.
5. Ibragimov A.A., Toshpo'latova SAK, G'iyosov BYO O'zbek xalqining shakllanishi davridagi musiqa madaniyati (XI-XV asrlar) //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 12. – №. 1. – S. 177-183.
6. Giyosov Bakhtiyorjon Yakubjon ugli. (2022). ORGANIZATIONAL LEGAL BASIS OF TEACHING IN THE EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN. *Conferencea*, 197–200. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/886>

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "MILLIY MUSIQA CHOLG'ULARI"
ANSAMBLARINI TASHKIL ETISH HAMDA ANSAMBL IJODIY
FAOLIYATI MASALALARI.**

Bahtiyorjon Yoqubjon o'g'li G'iyosov

Namangan davlat universiteti San'atshunoslik kafedrası o'qituvchisi

E-mail: giyosovbahtiyorjon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada oliy ta'lim muassasalarida milliy musiqa cholg'ulari ansambllarini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy hamda ilmiy-nazariy asoslari o'rganilgan. Ansambllarni tashkil etishda hududlar kesimida musiqa uslublarini inobatga olgan hoda ansambl jamoasini shakllantirish masalalari, ansambl sozandalariga ijrochilik salohiyatini oshirish hamda ansamblni ijodiy faoliyati, ansamblning ijodiy istiqbol rejalarini shakllantirish masalalari, ansambl o'zining faoliyati davrida bajarishi zarur bo'lgan ishlar ifodalaniladi. Bundan tashqari ushbu tashkil etilgan ansambl talabalarning estetik madaniyatini rivojlantirishdagi ro'li masalalari, qolaversa, ansambl jamoasining oliy ta'lim muassasasidagi madaniy-ma'rifiy tadbirlardagi ishtirokida repertuarni shakllantirish, umumiy olganda ansambl jamoasining oliy ta'lim muassasasidagi estetik, madaniy, ma'rifiy muhitni shakllantirishidagi o'рни hamda ro'li o'rganilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, ansambl, musiqiy cholg'ular, cholg'u ijrochiligi, sozanda, milliy musiqa, ijro, faoliyat, ijodiy, estetik madaniyat, ansambl jamoasi, ansambl repertuari, metodik tavsiyalar.

Abstract: This scientific article explores the organizational-legal and scientific-theoretical foundations of establishing ensembles of national musical instruments in higher educational institutions. The article discusses the performance capabilities of the ensemble, the requirements for musicians from the perspective of performance skills, as well as issues of creative activity of the ensemble, the formation of its future creative plans, and tasks necessary for implementation during its activities. Additionally, the role of the established ensemble in developing the aesthetic culture of students is analyzed, along with issues related to the selection of repertoire for the ensemble's participation in cultural and educational events at higher educational institutions. Overall, the article examines the role of the ensemble in shaping the aesthetic, cultural, and educational environment at higher educational institutions.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Keywords: education, ensemble, musical instruments, instrumental performance, musician, national music, performance, activity, creativity, aesthetic culture, ensemble team, ensemble repertoire, methodological recommendations.

Kirish: Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimiga etibor berish har qachongidanda dolzarblik kasb etmoqda. Ushbu kunlarda, bu borada qilinayotgan ishlar fikrimizning isbotidir. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirli bilan birgalikda talaba yoshlarni milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy musiqa asboblari ijro etiladigan milliy va mumtoz kuylarimizni yoshlarga o'rgatish hamda milliy merosimiz yaratuvchilari va ijrochilarini rag'batlantirish, milliy musiqa ohanglarini yoshlar orasida keng yoyish, milliy musiqa merosimiz bilan yaqindan tanishtirish maqsadida 2024-yil 4-dekabrda 45-sonli qo'shma qaror qabul qilindi. Bu bo'yicha respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarida milliy musiqa cholg'ulari ansambllarini tashkil etish belgilandi. Ushbu ansambl faoliyatini tashkil etish hamda uning ijodiy faoliyatini tog'ri yo'lga qo'yish, oliy ta'lim muassasalari rahbar va hodimlari zimmasiga mas'uliyat yuklaydi. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida milliy cholg'ular ansambllarini tashkil etish hamda ansambl ijodiy faoliyati masalari ko'rib chiqish hamda ansambl tashkil etishdagi bir-qator boshqa masalarni o'rgangan holda, tog'ri yechimlar ko'rsatish va amaliyotga tadbiiq etish muhimdir.

Material va metodlar: Oliy ta'lim muassasalarida ansambllar tashkil etishda avvalo ansambl tashkil etish uchun qulay shar-sharoitlar yaratilishi zarur. Bu borada agar muassasadagi soha mutaxassislarini jalb qilish yaxshi samara beradi. Mutaxassis takliflaridan kelib chiqib zarur ishlar amalga oshirilishi lozim. Ansambl a'zolarini tanlash, ansambl tarkibiga kiruvchi cholg'ularni ajratib olish, a'zolarini ijro qila olish imkoniyatlarini inobatga olish ansambl rahbarining zimmasida bo'ladi. Bu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni ham o'rganish yaxshi samara berishi aniq. Ansambl ijro repertuarlari ansambl tarkibi hamda ansambl ijrochilarining cholg'u ijro eta olish salohiyatiga bog'liqdir. Ushbu ish yuzasidan cholg'u ijrochiligi hususan, ansambl ijrochiligi hamda ijro dasturlari bo'yicha materiallar. Bundan tashqari milliy musiqa cholg'ulari ansambllarini tashkil etish hamda ularning ijodiy faoliyatlariga doir xuquqiy, nazariy-amaliy, har bir tashkil etilgan ansambl jamoasining oliy ta'lim muassasasidagi ma'naviy, madaniy muhitni shakllantirishdagi ro'li

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

masalasiga doir materiallar to'plandi. Shuni aytib o'tish joizki, ushbu maqola mavzusi bo'yicha hali yetarlicha ishlar qilinmaganligi, ansambllar faoliyati to'laqonli ishga tushmaganligi hamda bu borada tadqiqot ishlari olib borilmaganligini aytib o'tish joiz.

Ushbu ishni o'rganish bo'yicha bir qator sohaga hos, amaliyoti va nazariyasiga aloqador bo'lgan, bevosita mavzu yuzasidan integratsiyalanadigan metodlardan foydalanildi. Bizning umumiy bir-butun ta'lim tizimimizda milliy cholg'u ansambllarini tashkil etish va ularning faoliyatiga doir manbalar, turli hildagi nashr etilgan ilmiy, o'quv-uslubiy va metodik manbalar tahlil etildi. Eksperimental metodlar ya'ni boshqa ansambllar tarkibi hamda ijro repertuarlari kuzatildi. Hamda ansamblni tashkillashtirish va uning ijodiy faoliyati masalalarini soha mutaxassislaridan so'rov metodi orqali bilib olindi. Ushbu qo'llanilgan metodlar tashkil etiladigan milliy cholg'ular ansamblining tashkil etilishi hamda ijodiy rivojlanish va oliy ta'lim tizimiga integratsiyasini ta'minlash masalalariga yechim bo'la olishi mumkin.

Natijalar: Ushbu ishni o'rganish davomida oliy ta'lim tizimida milliy cholg'u ansambllarini tashkil etish hamda uni boshqarish va boshqa bir qator masalalari yuzasidan huquqiy normativ hujjatlar o'rganib chiqildi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan 45-sonli qo'shma qaror hamda uning ilovalarida bu borada qilinishi zarur bo'lgan ishlar ya'ni ansamblni oliy ta'lim muassasasining tegishli buyruqlari asosida shakllantirish, ansambl faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha alohida reja jadval ishlab chiqish. Ijodiy faoliyat masalalari yuzasidan har chorakda hissobot konsertini tashkil etish, ansambl jamoasini shakllantirish oliy ta'lim muassasasida kasting o'tkazish, ansambl jamoasining gastrol safarlarini tashkil etish, taniqli san'atkor ustalar bilan ansambl uchrashuvlarini uyush tirish ishlari ko'rsatilganligi va qat'iy belgilanganligi o'rganildi. Bundan tashqari ushbu qo'shma qaror doirasida ansambl jamoasi uchun cholg'u sozlarini sotib olish va ularni maxsus milliy kiyimlar bilan taminlash masalalari, talaba yoshlar orasidan saralab olingan ansambl a'zolarini rag'batlantirib borish masalalari, ansambl chiqishlarini reklama qilib borish ishlari to'laligicha belgilab qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin.

Ansamblni tashkil etish ma'lum hususiyatlarni inobatga olish lozim bo'ladi. Ya'ni milliy musiqa cholg'ulari ansamblini tashkil etishda hududlarning ijro uslublari hamda cholg'u turlarini tanlash masalalari dolzarbdir. Mahalliy uslublardan kelib chiqqan holda ansambl ijrochilari hamda ansambl tarkibiga kiruvchi cholg'ularni tanlash yaxshi samara

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

beradi. Misol tariqasida, har bir hududning o'z urf odatlari hamda milliy ohanglaridan kelib chiqqan holda quydagicha shakllantirish tavsiya etiladi. (1-jadval) Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, milliy cholg'u ansamblarni tashkil etishda mahalliy musiqa uslublarini hamda oliy ta'lim muassasasi joylashgan hududlarni ham inobatga olish lozim. Bunda har bir hududning o'z musiqa uslubi va o'ziga hos cholg'u sozlari hamda ushbu cholg'u sozlarining o'ziga yarasha musiqiy atmosferasi mavjud.

(1-jadval)

Farg'ona vodiysi hududidagi oliy ta'lim muassasalarida tavsiya etiladigan ansambl tarkibi.		Xorazm hududidagi oliy ta'lim muassasalarida tavsiya etiladigan ansambl tarkibi.	
Cholg'uning nomi	Ansambl tarkibidagi soni	Cholg'uning nomi	Ansambl tarkibidagi soni
Nay	2	Qo'shnay	1
Chang	1	Bo'lamon	1
Qonun	1	Garmon	3
Dutor	2	Tor	2
Ud	1	Dutor	2
Qashqar rubobi	2	G'ijjak	3
G'ijjak	3	Rubob	2
Doyra	2	nay	1
Nog'ora va boshqa zarbli cholg'ular.	4	Qayroq va boshqa zarbli cholg'ular.	4

Ansambl ijro dasturini ham ansambl tarkibiga kiruvchi musiqiy cholg'ularning ijro imkoniyatlari hamda cholg'uchilarni ijro qila olish darajalarini inobatga olib belgilash mumkin. Cholg'uchilarning ijro mahoratlarini rivojlantirishda hudud hos bo'lgan cholg'ular uchun yaratilgan o'quv hamda metodik-qo'llanmalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Ushbu xususiyatlarni inobatga olib keyinchalik ansambl

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

rahbari tomonidan ansamblning istiqbol rejalari hamda ijro repertuarlari shakllantiriladi hamda har bir oliy ta'lim muassasasi o'ziga hos bo'lgan ansambl jamoasiga metodik tavsiyalarni ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

Ushbu tashkil etilgan ansambl jamoasi tomonidan ijro qilinayotgan asarlar, ular tomonidan uyushtiriladigan konsert dasturlari, oliy ta'lim muassasasi jamoasining estetik madaniyatni rivojlantiribgina qolmay balki, oliy ta'lim muassasasining yurtimizdagi va xalqaro miqyosdagi o'rnini mustahkamlashi va ta'lim muassasasining rivojlantirishida o'zining hissasini qo'shishi shubhasiz. Bu orqali talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda talabalar o'rtasida turli huquqbuzarlik hamda jinoyatlarni oldini olishda ham hizmat qiladi.

Muhokama: Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarida milliy cholg'u ansambllarini tashkil etish hamda ularning faoliyatini rivojlantirish masalalarini tahlil qilamiz. O'rganish natijasida bir qator tashkiliy, ijodiy va metodik muammolar borligi ma'lum bo'ldi. Mazkur muammolarni hal qilish kompleks yondoshuvni talab qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida milliy cholg'u ansambllarni tashkil etish masalasi yurtimizdagi san'at va madaniyat yo'nalishlariga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalaridan tashqari hali hech qaysi oliy ta'lim muassasasida tashkil etilmagan edi. Lekin, ansamblni tashkil etish va uni ijodiy faoliyatini yurgish borasida yetakchi tashkilotlar tomonidan adabiyotlar nashr etilgan. Ushbu nashr etilgan ilmiy, metodik adabiyotlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Ammo, biz ansambl jamoalarini turli hududlarda tashkil etilayotganligini hisobga olsak, Hududiy musiqa uslublarni inobatga olgan holda cholg'ularni tanlash, ansambl qamrov darajasini oshishiga, yoshlar orasida milliy musiqamizning keng yoyilishini taminlashda muhim omildir.


Xulosa: Demak, oliy ta'lim muassasalarida milliy cholg'u ansambllarini tashkil etilishi, yoshlarning ma'naviy-estetik ongini shakllantirishda muhimdir. Jamoani tashkil etilishida oliy ta'lim muassasasining o'zi ham asosiy tashabbuskor sifatida ansambl jamoasiga yetarli shart-sharoitlarni yaratib berishi muhimdir. Har bir hudud musiqa madaniyatidan kelib chiqqan holda ansambl jamoasini shakllantirish lozim. Ansambl ijodiy jarayonlarni tashkil etish va rivojlantirish borasida, oliy ta'lim muassasasi hamda badiiy jamoaning rahbari tomonidan sohaning yetakchi ta'lim muassasalari chop etgan o'quv hamda metodik qo'llanmalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Ushbu aytib o'tilgan

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

shart-sharoitlar yaratib berilsa, ta'lim muassasasidagi talaba yoshlarning ijodiy muhiti hamda oliy ta'lim muassasasi jamoasining ham madaniy estetik ongini rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2024-yil 29-Noyabrdagi Oliy ta'lim muassasalarida "Milliy musiqa cholg'ulari" ansambllarini tashkil etish to'g'risidagi 45-sonli qo'shma qarori.
2. Karimov O. "Oliy ta'lim tizimida milliy musiqa cholg'ularining o'rni". Toshkent, 2017 yil.
3. Qosimov R. "Ansaml ijrochiligi va uning ta'lim jarayonidagi roli". Samarqand, 2020 yil.
4. Giyosov Bakhtiyorjon Yakubjon ugli. (2022). ORGANIZATIONAL LEGAL BASIS OF TEACHING IN THE EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN. *Conferencea*, 197–200. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/886>
5. Ibragimov A. A., Toshpulatova S. A. K., Giyosov B. Y. O. Music culture during the formation of the uzbek people (XI-XV centuries) //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 12. – №. 1. – C. 177-183.



IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARGA MUSIQANING TA'SIRI

Sh. Davlatova

San'atshunoslik kafedrasi stajor- o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish eng asosiy maqsad hisoblanadi. Ayni vaqtda yurtimizda 700 mingga yaqin nogironligi bo'lgan shaxslar, jumladan 100 mingdan ortiq 16 yoshgacha nogironligi bo'lgan bolalar istiqomat qilmoqda. 2020 yilning 15-oktabr kuni Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan imzolangan: "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonun nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llabquvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishda muhim huquqiy asos bo'ldi. Albatta o'zbek xalqi bolajon xalq.

ANNOTATION

The main goal in our country is to protect the rights and freedoms of persons with disabilities. Currently, there are about 700 thousand persons with disabilities, including more than 100 thousand children with disabilities under the age of 16. The law "On the Rights of Persons with Disabilities", signed by our President Sh. Mirziyoyev on October 15, 2020, became an important legal basis for radically improving the system of state support for persons with disabilities. Of course, the Uzbek people are a young people.

Yosh bolajonlarga mehr-sahovat qo'lini cho'zishdan xechham bosh tortmaydi. Qayd etish lozimki, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan 2021-yil 22-fevral kuni BMT inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqida imkoniyati cheklangan shaxslarning o'z qobiliyatini ro'yobga chiqarish masalalari bo'yicha Mintaqaviy kengash tuzish taklifi bildirilgan va O'zbekistonda alohida ehtiyojga ega bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratilayotganini ta'kidlagan edi. Yurtboshimizning xalqaro tashabbusi doirasida, O'zbekiston Parlamenti tomonidan Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya ratifikatsiya qilindi. Mazkur konvensiya-nogironligi bo'lgan shaxslarning tenglik asosida barcha inson huquqlarini to'liq amalga oshirishlarini rag'batlantirish, himoya qilish va ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Bolalik musiqiy qobiliyatni rivojlantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Musiqiy didni rivojlantirish, bolalikda hissiy ahamiyatga ega bo'lish, kelajakda umumiy ma'naviy madaniyatining bir qismi sifatida odamning musiqiy madaniyatining asosini yaratadi. Rivojlanishda buzilishlar bo'lgan bolalar - bu maxsus toifaga ega, ularda musiqa terapevtik ta'sirga ega, rivojlanishdagi og'ishlarning oldini olish va tuzatish usuli. [2]

Zamonaviy maxsus psixologiya va pedagogika asosan bolaning uyg'unona shaxsini tarbiyalashning muhim vositasi sifatida axloq tuzalida musiqa

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

terapiyasidan foydalanishga yo'naltirilgan. Musiqa terapiyasining mohiyati psixosomatik va psixo-emotsional jarayonlarga terapevtik ta'sir ko'rsatadigan "maxsus" ning ijobiy his-tuyg'ularini keltirib chiqarishi, bolaning zaxira kuchlarini jalb qilish, uning barcha sohalarida va ichkarida ishlashini aniqlaydi umuman hayot. Musiqa aniee limone" - "musiqa ruhni davolaydi" - bu yozuvni Uyg'onish davrining ba'zi asosiy vositalarida ko'rish mumkin. Albatta, birinchi qarashning bunday ta'siri sub'ektiv tuyulishi mumkin va ma'lum darajada, bu shunday bo'lishi kerak. Buning sababi shundaki, F. Sh.Mendelsshnga ko'ra - Turli xil aniqlik tufayli musiqa chuqurlikning mol-mulki va to'g'ridan-to'g'ri inson qalbiga ta'sir qilishi mumkin. Boshqa tomondan, musiqiy ishlarni tinglashni bilgan tushuntirishlar tinglovchilarni musiqani idrok etishiga olib keladi.



K.Jgerning so'zlariga ko'ra, professorning birinchi san'at maktabida professor birinchi usul o'xshashlik musiqiy terapiya azoblarni yumshatish prinsipi. Bu musiqa, kayfiyatga yaqin musiqadan foydalanadi, bu shaxs; Shunday qilib, siz kerakli natijaga erishishingiz mumkin. Ikkinchi usul birinchi usulning analoglariga asoslanadi. Bunday holda, musiqiy narsa ma'lum vaziyatdan kelib chiqadi va bastakorning psixologik holati muhim rol o'ynaydi.

Auditoriyaning kuzatish bo'yicha trening musiqa, ya'ni uning borishini, undagi jarayonlarning rivojlanishini kuzatish va tushunish; Bolalarning tinglash tajribasini kengaytirish musiqa, bolalarning qiziqishini uyg'otish uchun badiiy asarlarni jalb qilish musiqa;

Bilish jarayonida bolalarning o'z faoliyatini faollashtirish musiqiy kompozitsiyalar; foydalanish faqat yuqori badiiy musiqiy asarlar; Tahlil musiqiy vositalar;

Eshitish diqqatini yo'naltiradigan va keskinlashtiradigan savollar; Taqqoslash va taqqoslash musiqiy asarlar, xususiyatlari haqida bilimlarni shakllantirish musiqiy til va boshqalar..

Shunday qilib, musiqa - bu san'at bu o'rganishga yordam beradi dunyo, insoniyat mavjudligining murakkab qonuniyatlarini anglash, ufqni kengaytirish, bundan kelib chiqadiki, bu bolalarning aqliy rivojlanishi va tarbiyasiga hissa qo'shadi.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar



Bolalarning ijodiy faoliyati, shubhasiz, ularning aqliy rivojlanishi jarayonida ham muhim rol o'ynaydi. Muammo musiqiy ijod, bolalarning aqliy faoliyatini shakllantirish vositasi sifatida, N.A.Vetluginaning tadqiqotlari uchun asos bo'lib, ijodiy faoliyat barcha bolalar uchun mavjudligini ko'rsatdi, faqat individual qobiliyatlarning namoyon bo'lishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish kerak bola. Jarayonda ijodkorlikni rivojlantirish deb aytishimiz mumkin musiqiy bolalar faoliyati ularning aqliy faoliyatining namoyon bo'lishi va rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Katta ta'sir musiqa bolalarning intellektini shakllantirish, ularning ma'naviy madaniyatining bir qismi sifatida, bastakor va taniqli taniqli D. B. Kabalevskiy ta'kidlagan musiqachi-tarbiyachi... Shakllanish nazariyasi musiqiy D. B. Kabalevskiy dasturidagi bolalar madaniyati kontseptsiyadan ko'chib o'tdi musiqiy ta'lim va tarbiya, qarashlar tizimiga musiqa, bola rivojlanishining manbai va usuli sifatida, shuningdek boshqa ob'ektlarning tarkibini o'zlashtirish usuli sifatida, bolaning ma'naviy, axloqiy, intellektual va ijodiy rivojlanishi o'sishi mumkin bo'lgan tuproq. Shunday qilib, yuqorida aytib o'tilganlarni tahlil qilish quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi xulosalar: ta'sir o'tkazishning samarali usullarini topish muammosi musiqa bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish bo'yicha doimiy ravishda tadqiqotchilarning nuqtai nazarida bo'lgan, musiqachilar, psixologlar va o'qituvchilar; tadqiqotchilarning aksariyati, musiqachilar va psixologlar ta'kidlaydilar musiqaning muhim roli bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda.[4]



Ko'plab nogiron bolalar bo'lgan zamonaviy dunyoda musiqiy terapiya juda dolzarb bo'lib qoldi. Terapevtik va restorativ maqsadlarda ashula, plastik

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

harakatlar, individual tovushlar va tovush birikmalari qo'llaniladi. Ushbu bolalar rivojlanishida buzilishlar mavjud turli sohalar: hissiy, intellektual, nutq, vosita, hissiy. Musiqa o'qituvchisi o'quvchilar sog'lig'ini saqlash va yaxshilash uchun sog'liqni saqlash texnologiyalaridan foydalana oladimi?



Ha, agar siz musiqa darslarida nafaqat musiqiy pedagogik, balki musiqiy terapevtik o'qitish usullaridan ham foydalansangiz. Musiqa, har qanday san'at singari, o'quvchilarga ham dunyoni bilishga yordam beradi, badiiy didni, ijodiy tasavvurni, hayotga, insonga, tabiatga va o'z vataniga bo'lgan muhabbatni tarbiyalaydi. O'ylaymanki, musiqiy rivojlanish o'quvchilarning barcha ichki psixologik fazilatlarini (fikrlash, tasavvur, xotira, iroda va h.k.) eng to'liq ochib berishga, psixikaning hissiy-sezgir sohasini tarbiyalashga imkon beradi (noziklik, sezgirlik, qobiliyat musiqiy san'at orqali hissiy tajribalarning chuqurligini bilish) va eng muhimi, o'zini anglash uchun doimiy imkoniyat. Musiqa darsining o'zi sog'liqni saqlash texnologiyasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoev. "Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar - ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir" Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati IV Qurultoyidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2017 yil 6 iyun
2. Sh.Mirziyoyev tomomidan 2021-yil 22-fevral kuni BMT inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi
3. J.Fozilov, R.Sultonov. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. T., 2020 y-
4. Umumta'lim maktablarining musiqa ta'lim – tarbiyasi kontsetsiyasi. Avtor D.Omonullaev. Toshkent, "Ma'rifat" gazetasi. 25.XI.2021 y.

**MAQOMOT TIZIMI - BU MAQOMCHILIK MUMTOZ
AN'ANALARI**

Sh. Otabekov. San'atshunoslik kafedrası stajor- o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqomot tizimi - bu maqomchilik mumtoz an'alarini milliy (mahalliy) musiqiy asosda rivojlantirilishi natijasida yuzaga kelgan Buxoro maqomlari, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarining majmuasidir. Bunda Buxoro va Xorazm maqomlari Shashmaqom tizimi tarzida, ulardan farqli o'laroq Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari esa "tarqoq" tizim shaklida namoyon bo'ladi. O'zbek-tojik xalqlari mumtoz musiqasi – Shashmaqom XVIII asr o'rtalarida Buxoroda saroy kasbiy musiqachilari va musiqashunos olimlari tomonidan olti maqomdan iborat mahobatli turkum tarzida ifoda etilgan edi.

Kalit so'zlar: maqom, maqomot, ashula, band, nota, Shashmaqom, tizim

ANNOTATION

The maqom system is a complex of Bukhara maqoms, Khorezm maqoms and Fergana-Tashkent maqom paths, which arose as a result of the development of classical traditions of maqom on a national (local) musical basis. In this case, Bukhara and Khorezm maqoms are represented in the form of the Shashmaqom system, while Fergana-Tashkent maqom paths, unlike them, are represented in the form of a "scattered" system. The classical music of the Uzbek-Tajik peoples - Shashmaqom was expressed in Bukhara in the middle of the 18th century by professional court musicians and musicologists in the form of a majestic complex of six maqoms.

O'rta asr Yaqin va O'rta Sharq xalqlari musiqa ilmida maqom, asosan, parda tuzilmalari tushunchasini hamda ularga mos holda yaratilgan quy va ashulalarni ifodaladi. Maqomlar dastlabki davrda tarqoq shakllarda rivojlandi, 13-asrda esa Safiuddin al-Urmaviy ularni o'n ikki asosiy maqomdan iborat nazariy tizim shakliga keltirdi. 17-asrdan so'ng O'n ikki maqom tizimi inqirozga uchrab, uning negizida Sharq xalqlari orasida maqomlarning yangicha milliy va mahalliy shakllari vujudga kela boshladi. Xususan, 18-asrning o'rtalarida O'rta Osiyoning yirik madaniy markazlaridan biri Buxoro shahrida saroy sozanda, xonanda va bastakorlari ijodiyijrochilik faoliyatida shashmaqom uzil-kesil shakllanib, Buxoro maqomlari, Buxoro Shashmaqomi nomlarida ham yuritildi.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

O'zbek maqom turlaridan Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, shuningdek, yovvoyi (erkin ko'rinishdagi) maqomlar, surnay, dutor yo'llari va boshqalar shashmaqom ta'sirida rivojlandi. O'tgan zamon bastakorligida keng qo'llanilgan amal, kor, naqsh, peshrav, savt, tarona, qavl kabi janrlarning noyob namunalari shashmaqom tarkibida bizgacha yetib keldi.

Shashmaqom Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlaridan tashkil topgan bo'lib, jami 250 dan ortiq har xil shakldagi kuy va ashula namunalaridan iborat. Shu qunga qadar sozanda, hofiz va bastakorlar maqom yo'llarining qo'plab ijroviy talqinlarini kashf etdilar, ovoz, tanbur, surnay, dutor va boshqalar maqom yo'llarida bir qismli va turkumli asarlar ijod qildilar, ular asosida yangi kuy va ashulalar yaratdilar. Maqomlar sozanda va xonandalar tomonidan yakka tarzda, shuningdek, jo'rovozlik va jo'rnavozlikda ijro etib kelingan. Xususan, Buxoro amirlari saroyida eng so'nggi davrda jo'rnavozlik asosan, 2 tanbur, 2 doira (doirachilar xonanda ham bo'lgan), afg'on rubobi, sato yoki qo'biz, imkonga ko'ra bo'lamon cholg'ularidan iborat bo'lgan. Maqom ijrochiligi tanbur yetakchi soz hisoblanadi. Chunki u torlarini maqom pardalariga moslab sozlashda va maqom yo'llarini mukammal yangratishda birmuncha qulayliklarga ega. Doira esa sozanda va xonandalarning shashmaqom qismlarini belgilangan usul negizida ijro etishlari uchun zarur vosita bo'lib xizmat qiladi.

Har bir maqomning bosh tovushqatori o'ziga xos va nisbatan barqaror bo'lib, turkumning to'liq musiqiy ijro jarayonida uning pardalarida ayrim o'zgarishlar ham sodir bo'lib turadi. Chunki shashmaqom shakllanishida maqomlar tarkibiga 12 maqomdan mazkur maqom pardalariga yaqin, kuy mavzui tabiatiga ohangdosh o'zga sho'ba va maqom yo'llari ham kiritilgan. Ularning ladtonalligi asosiy maqom yo'llariga ba'zan mos kelmasligi ham mumkin.

Mazkur maqomlar quyidagicha nomlanadi:

1. Buzruk - ma'nosi - «katta», «ulug'», «buyuk»
2. Rost - ma'nosi – «to'g'ri», «chin», «haqiqiy»
3. Navo - ma'nosi - «kuy», «mungli kuy», «ishq kuyi»
4. Dugoh - «ikki o'rin», «ikki joy», «ikki parda»
5. Segoh - «uch o'rin», «uch joy», «uch parda»
6. Iroq – ma'lum arab mamlakatining nomiga nisbat berilgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Shashmaqom deganda eng avvalo tovushpardalarning olti xil ko'rinishdagi mukammal uyushmasi anglashiladi. Zero,

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

bu parda uyushmalarining har biri tarkibida ohangdosh (muloyim) bo'dlarning umumiy ko'rsatkichi (9) ulardagi asosiy tovush-nag'malar soni (8) dan ortiq bo'lgan bu pardalar ijod jarayonida ustuvor ahamiyat kasb etgan Demak, Shashmaqom turkumidagi cholg'u kuy va aytim (ashula) yo'llari ushbu olti xil tarzda mukammal uyushgan pardalar tizimi hamda ularga tayangan kuyohanglarini ma'lum doyra usullari bilan mushtarak ishlanishi natijasida yuzaga kelgan edi. Shashmaqomdagi har bir maqom ikki yirik bo'limdan – cholg'u va aytim (ashula) yo'llari (turkumlari) dan iborat bo'lib, ularni «ustoz-shogird» an'anaviy maktabida tahsil ko'rgan kasbiy cholg'uchi va ashulachi-hofizlargina malakali ijro eta oladilar. Bu yuksak san'atni o'rganish istagida bo'lganlar eng avvalo shogirdlik maqomi odoblariga rioya qilishlari hamda o'zlarining burch va vazifalarini yaxshi bilishlari talab etilgan. Jumladan, shogird: - o'z kasbini sevishi; - ustozni oldida tavoze' bilan turishi; - ustoziga behuda savollarni bermasligi; - savol bermoqchi bo'lsa avval ijozat so'rashi; - sabr-toqatli bo'lishi; - ustozining oila a'zolari va qarindosh-urug'lariga hurmat bilan munosabatda bo'lishi; - ustozining dushmani bilan do'st tutinmasligi; - ustozining ko'rsatgan yo'l-yo'riqlariga amal qilishi; - ustozining san'atiga taqlid qilishi; - ustozni an'analarini davom ettirishi lozim bo'lgan. Ma'lumki, maqomlar asosan og'zaki an'ana tarzida, ya'ni ustozdan shogirdga «og'zaki uslub» vositasida o'tib, yashab keldi. Shunga ko'ra, shogirdlar o'z ustozlari ijrosidagi maqom namunalari xotiralariga muhrlab, amaliy ijrolar jarayonida o'rganib kelganlar va ularni ijodiy o'zlashtirganlar.

Shashmaqom (ruscha: Шашимаком; tojikcha: шашимақом; forsha: ششم قام) — Markaziy Osiyo (asosan, o'zbek va tojik) xalqlari musiqiy merosida markaziy o'rin tutgan maqomlar turkumi; parda, ohang, usul, shakl, uslub kabi vositalar bilan o'zaro uzviy bog'langan mumtoz kuy va ashulalar majmui. U muayyan shartsharoitlarda musiqiy folklor hamda kasbiy musiqa yo'nalishlarida orttirilgan ko'p asrlik ilmiyijodiy tajriba hamda izlanishlar natijasida yuzaga kelgan. Shashmaqom milliy hamda mintaqaviy mumtoz musiqa an'analarining tarixan uzun taraqqiyot jarayoni natijasida bir qator bastakorlar avlodi san'atining qomusiy mahsulidir.[3]

Xalqimiz azaldan mehnatkashligi, bir-biriga sodiqligi bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Inson hayotda yashar ekan, uning har tomonlama yuksalishi uchun ajdodlarining qay darajada bo'lganligiga bog'liqdir. Bizning buyuk ajdodlarimiz o'zining serviqor g'oyalari, ibratli va hikmatli nasihatleri, azaliy axloq-odobi hamda eng muhimi o'ta bilimdonligi bilan farqlidir.

Mashhur mutafakkir Bahouddin Naqshband muhtoj insonga yordam ko'rsatish ham savobli ish sanalishini, vatanparvarlikka undashini juda ko'p ta'kidlaydi. Xatto kerak bo'lsa namozni to'xtatib yordam bermoq zarurligini aytib

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

o'tganlar. Shu sababli insonparvarlik tuyg'usi vujudga kelgan va ko'plab qo'shiqlarda o'z ifodasini topgan.

Shu o'rinda Alisher Navoiyning quyidagi falsafiy misrasini keltirish mumkin:

- Kimki bir ko'ngli siniqning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim ka'ba vayron bo'lsa obod aylagay.

Vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Bobur ham Hindistondan yirik mamlakatda buyuk imperiya tashkil etsada har doimo o'z Vatanini sog'ingan, unga bag'ishlab g'azallar yozgan. Shuning uchun biz o'z talabalarimizga milliy qadriyatlarimiz, buyuk ajdodlarimiz merosini chuqur o'rganish, pand-nasihatlariga quloq tutish vazifalarini qayta-qayta ta'kidlashimiz zarur.

Qadimgi ajdodlarimiz va buyuk mutafakkirlarimiz komil inson xaqida butun bir axloqiy talablar majmuasini zamonaviy til bilan aytadigan bo'lsak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar.

Kishi qalbida haromdan hazar, nopoklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyonlar mavjud bo'lishini o'z qo'shiqlari orqali qoldirganlar. Ular qoldirgan bebaho boylik hisoblangan ohang va honishlardan musiqa madaniyati darslarida foydalanish, ular xaqidagi ma'lumotlarni o'quvchi yoshlar ongiga singdirib borish zarur. Bu Davlat ta'lim standartida ham alohida ko'rsatib o'tilgan.

Mumtoz asarlar san'atiga nazar tashlasak, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o'lkamizda bu muqaddas san'atning butun bir ijrochi avlodi yetishib chiqqanligining guvohi bo'lamiz. Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdulg'ani, Hoji Abdulaliz Abdurasulov, Domla Halim, Mulla To'ychi Toshmuxamedov, Matyovub Xarratov kabi zabardast usta xofizlar Shular jumlasidandir.

O'tmishda nota rivojlanmagan bo'lib, Ovro'po atamallari o'rnida xofizlarimiz ovoz mromiga qarab, "Gulligi", "Binnigi", "Shikavmi", "Xonaqofiy" deb atalmish nafas olish chiqarish va ijro yo'llaridan foydalanishgan. O'sha davr Xofizlarining ovozlari o'ktam, baquvvat bo'lganligi sababli, ular Shikami yo'lida ijro etganlar. Ustoz xofizlar o'z ijro mahoratlarini oshirish uchun aks-sado beruvchi maxsus gumbazli binolarda mashhulot o'tkazganlar, Shu tariqa o'z ovozlari sayqal berganlar.

Madaniy va ma'naviy merosimizning ulkan qismi, tarixda uyg'onish davri deb nom olgan davrning mahsulidir. O'rta Osiyoda XIV asr o'rtalaridan boshlovchilab, XV asrga qadar ilm-fan, madaniyat, san'at rivojlandi. Ulkan olimlar, shoirlar, san'atkorlar yetishib chiqdi va ular ham jahon madaniyati

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

xazinasiga katta xissa qo'shdilar. O'zbek xalqining ma'naviy hayotida yuqorida ko'rsatib o'tgan milliy madaniyat sarchashmalaridan tashqari, teatrchilik elementlari yil fasllarida o'tkaziladigan turli marosimlarga bag'ishlangan: «Navro'z», «Ramazon va Qurbon xaitlari»da, «Gul sayli» va boshlovchiqa bayramlarda va sayllarda turli tuman teatrlashtirilgan tamoshalar mavjud edi. Bu sayl va tomoshalarda sho'x qo'shiq, lapar, ommaviy raqslar avj oladi. Eng hurmatli xofizlar kuchli va katta ashulalar aytib, xalqning olqishlariga sazovor bo'lar edilar. Bu an'ana hozirga qadar davom etib kelmoqda. Biz yuqorida milliy madaniyatimizni qanday tarkib topganligiga to'xtaldik. Endi esa shaxsda, ya'ni har bir insonda mavjud bo'ladigan madaniyat haqida so'z yuritamiz. Har bir odam, xulq-atvori, hatti-harakati, yurish-turishi, o'zini tutish demak, madaniy saviya jihatidan el orasida yo yaxshi, yo yomon nom qoldiradi. Hurmat bilan tilga olinishiga ham, nafrat bilan yuz o'girilishiga ham odamning o'zi sababchi.

Yana Shuni ta'kidlash joizki, mumtoz asarlar yalla, lapar, o'lan ijrochiligi rivojiga ayol xofizlarning qo'shgan hissalarini beqiyos bo'lib, ular ishtirokida o'tadigan marosimlarda ayol xofialar ishtirok etishgan. Shu tariqa mumtoz asarlar sayqal topib boravergan. Galdagi vazifamiz tariximizni, buyuk allomalarimiz qoldirgan qadimiy musiqa madaniyatimizni ilmiy jihatdan chuqur o'rganib, kelgusi avlodga yetkazishdan iboratdir.

O'zbek xalq milliy mumtoz asarlar san'atini yuksalishida mustaqillikdan so'ng yaratilgan qo'shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati juda kattadir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach yuqori malakali, zamonaviy tafakkur tarziga ega bo'lgan bilimli mutaxassis kadrlarni tayyorlash borasida na'munali ishlar amalga oshirildi.

“Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik,- qanday muammolarni yechish zarurati tug'ilmasin, gap oxir oqibat, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz mamlakatimiz kelajagi o'rnimizga kim kelishiga yoki boshqacha aytganda qanday kadrlar tayyorlashimizga bog'liq”.

Agar inson o'z milliy zamini hamda ildizlarini chuqur bilmas ekan va undan g'ururlana olmas ekan, undan tom ma'nodagi vatanparvar chiqishi qiyin.

Yoshlar tarbiyasi va musiqa san'ati inson uchun muhim ahamiyat kasb etib bugungi kunda rivojlandi, uning qirralari jilolandi. Go'zal milliy ohanglar, ular borasida milliy an'analar tiklandi. Ulug' musiqaShunos olimlarning ishlari qaytadan ko'rib chiqildi. San'atimiz darg'alari davlatimiz tomonidan yuksak mukofotlar bilan taqdirlandilar.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Musiqa va yoshlar tarbiyasining rivojida mumtoz asarlarlarning o'rni beqiyos bo'lib, ushbu yo'nalishga hissa qo'shayotgan mutaxassislar qalbida milliy g'urur, ona zaminga mehr-muhabbat tuyg'ulari kamol topdi. Yoshlar tarbiyasi kabi mas'uliyatli vazifa ota-onadan keyin ta'lim fidoyilarining zimmasiga tushadi. Demak, tarbiya degan tuShunchalar, to'g'rirog'i tarbiya bilan Shug'ullanish jamoatchilik ishiga aylandi. Ta'lim tizimida mehnat qilayotgan har bir pedagog tarbiyani ta'lim bilan birga barobar holda olib borish yo'lida zamonaviy usuldagi dars samaradorligiga erishishga haraka qilmoqdalar.

Musiqa san'ati insonni tarbiyalaydi, uni ezgulikka, kishilarni yaxshilik qilishga undaydi. Musiqaning yoshlar tarbiyasidagi o'rni beqiyosdir. Biroq bugungi kunda yoshlarning musiqaga qiziqishlari biroz muammolar keltirib chiqarmoqda. Ko'plab yoshlar xorijiy musiqalarga taqlid qilgani holda o'zlarining ko'rinishlariga ham g'arbona tus bermoqdalar. Milliy kuy-qo'shiqlarimizni unutib qo'yishayotgandek nazarimizda... chindan ham biror bir yoshlarni tanovvor, munojot yoki maqom qo'shiqlaridan hirgoyi qilishlariga duch kelmaymiz. Xalqimiz orasida tanilib borayotgan ayrim "yosh estrada xonandalari"ning qo'shiqlari ham bachkana ko'rinishda tinglovchiga taqdim etilmoqda. Birgina so'zning bir necha bor takrorlanishi tinglovchiga manzur bo'lmaydi, va holanki ularning yangrayotgan musiqalari xorij musiqalaridan o'g'irlangan. Bunday shovqinli musiqalarga berilgan yoshlar o'zlarini go'yo ohang yo'nalishiga yo'rg'alatadilar, harakatlari ham bizning mentalitetimizga to'g'ri kelmaydigan ko'rinishda bo'lmoqda. Aynan Shunday xolatlarni kelib chiqmasligi uchun musiqa madaniyati darslarida milliy kuylarni tinglash, mumtoz asarlaridan o'rgatib borish zarur.

Bunda o'zbek milliy musiqa san'atini kengroq tuShuntirish, o'qib o'rganish uchun adabiyotlar majmuasini, Shunga oid darsliklar ishlab chiqishni, mumtoz kuylarimiz tushirilgan disklar to'plamini yetkazishni ta'lim mutassaddilari kengroq o'ylab ko'rsalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki musiqa orqali yana takroran aytamizki Inson tarbiya topadi, xalqona yo'lida yaratilgan qo'shiqlar orqali kishilar tin oladilar. Biroz bo'lsada madaniy xordiq chiqaradilar, g'am-tashvishlarini unutadilar. Umuman olganda milliy qo'shiq yoki musiqa inson qalbiga yaqin bo'ladi. Bunday ko'rinishlar ko'proq folklor yo'nalishidagi kuy-qo'shiqlarda namoyon bo'ladi. Dars jarayonida o'quvchilardan qanday folklor qo'shiqlarini bilasizlar deb savol bersak birorta sanab berolmaslik holatlari namoyon bo'lmoqda, Shuning uchun ko'proq folklor qo'shiqlarini dars jarayoniga olib kirish o'rinlidir.

Fol'klor so'zining atamasiga e'tibor beradigan bo'lsak, **"xalq"**, **"donishmandlik"** degan ma'nolar kelib chiqadi. O'z-o'zidan ko'rinish turibdiki, bizning sodda xalqimiz chindan ham donishmandligi bilan butun dunyoga

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

mashxur. Shunday ekan, nega xalqimiz yaratgan milliy ohanglarni, kuy-qo'shiqlarni o'rganmasligimiz kerak?

Yoshlar o'rtasidagi tarbiyani birgina musiqa o'qituvchisi hal eta olmaydi, buning uchun ota-ona ham javobgardir. Maktabdan tashqari vaqtda farzandining nimalar bilan Shug'ullanayotganligi, qanday musiqalarni tinglayotganligi, kimlarga yoki nimalarga taqlid qilayotganligiga e'tibor berish ularning vazifalaridir.

Agarda biz noto'g'ri musiqa o'rgatsak bizdan xafa bo'lishlari o'rinli, biroq uydagi muhitda yuqorida ta'kidlagan, xorij musiqalariga qiziqish kuchaysa, beo'xshov harakatlarni o'rganib borsa bizning harakatlarimiz zoe ketadi. Bugungi kunda har bir musiqa madaniyati o'qituvchilarining vazifalari o'quvchi yoshlar orasidan eng iqtidorlilarini tanlab ularning san'atini ro'yobga chiqarish, Shuning barobarida o'zlashtirmovchi o'quvchilar bilan alohida milliy mashg'ulotlar tashkil etishdan iborat bo'lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivi. Inv.№.1315/1. 79-99-betlar.
2. O'.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarning tadbiiy asoslari.T.Fan, 2022 y.
3. To'ychiyeva T.T. O'zbek ma'naviy qadriyatlari tizimida urf-odat, an'analarning o'rne. Falsafa fan. nomz. diss. O'zMU. Toshkent. 2020. 144-bet 27-bet
4. A.Ashirov,tarix fanlari doktori, professor "O'zbeklarning etnomadaniy qadriyatlari" T, "Fan" 2021 y
5. S. Yo'ldosheva. "Mustaqillik davri da folklor san'atining rivoji" T., "Fan" nashriyoti, 2019 y.
6. B. Sayfullayev,O'zbek xalqining milliy an'analari. T., "Fan" nashriyoti, 2019 y.
7. Yunusov G'.O. O'zbek el adabiyotiga tegishli materiallarni to'plovchilarga qo'llanma // o'qitg'uvchi.2008y7-8-sonlar.63-65-betlar..
3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI" Respublika ilmiy-amaliy anjuman to'plami.- Chirchiq-2024.- 348 b. 74-78.

13. Safoyev M. (2018). Jismoniy tarbiya va etnopedagogik yondashuvlar. Qarshi: Nashr.

14. Г.Н.Волков Г.Д.Баубекова ЕТНОПЕДАГОГИКА Ташкент – 2000 Издательство Фани Академии наук Республики Узбекистан Дарслик 192-бет.



SHAXS MUSIQA MADANIYATI XUSUSIDA

M. Abdulboqiyeva. TDPU 2 – bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Musiqadagi go'zallikni faol idrok etish tafakkur faoliyatini talab qiladi. Musiqa ijodida va idrokida intellektual asosni qaror toptirishdan hech qachon yuz o'girmaslik kerak. Musiqani tinglashda u yoki bu holatlarni his etib boshdan kechiribgina qolmasdan, balki idrok qilinayotgan materialni farqlaymiz, tanlaymiz, baholaymiz va fikr yuritamiz.

Kalit so'zlar: *estetika, komil ibson, intellekt, musiqaviy muhit, sahna, idrok, kohsert, quvonch, kuy- qo'shiq*

ANNOTATION

Active perception of beauty in music requires the activity of thinking. In the creation and perception of music, one should never abandon the establishment of an intellectual basis. When listening to music, we not only feel and experience certain situations, but also distinguish, select, evaluate and think about the perceived material.

Keywords: *aesthetics, perfect man, intellect, musical environment, stage, perception, choir, joy, melody*

Mustaqil, komil inson shaxsini shakllantirishda musiqa madaniyatining ahamiyati kattadir, shubhasiz, uning ahamiyati kelajakda ham ortaveradi. Biroq biz kishilarimizning musiqaga bo'lgan ehtiyojini va didlarini yaxshi bilmaymiz, badiiy didini o'stirish borasida yetarli qayg'urmayapmiz. Bu esa yuksak badiiy madaniyatni hamda chinakam san'at qadriyatini egallashni xoxlovchi musiqa shinavandalarining tobora ko'payishiga xalaqit bermoqda.

So'nggi yillarda turli-tuman musiqaviy muhitning paydo bo'lishi didni o'tmaslashtiradigan jarang-jurung ovozlardangina iborat kuy va qo'shiqlarning musiqaviy-texnika apparatlari orqali tarqalishi haqiqiy musiqa shinavandalarining, professional musiqashunoslarning haqli e'tiroziga sabab bo'lmoqda.

Hozirgi kunda musiqa faqat kontsert zallari, musiqali teatrlar sahnasidagina jaranglab qolmay, balki u kino ekranlari va televidenie kanallaridan, magnitofon yozuvlari hamda disklar orqali shinavandalarga yetib boradi. Shu bilan birga, musiqa xozirgi paytda keng avj olgan havaskorlar ijrosida ham yangramoqda. Musiqa bizga quvonchli kunlarda ham, qayg'uli damlarda ham, rasmiy marosimlarda ham, uyda ham, mehmondorchilikda ham, dam olish paytlarida ham hamroh. Shu boisdan aytish mumkinki, musiqa bizni xatto, ta'qib qila boshladi.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Musiqa olamida vujudga kelgan bu ahvol maxsus o'rganishni talab qiluvchi qator murakkab va o'ziga xos masalalarni keltirib chiqarmoqda. Bular ichida eng muhim masala shaxsni qaysi yo'llar va usullar bilan musiqa madaniyatiga oshno qilish masalasidir¹⁶.

Shaxs musiqa madaniyatini uch xil yo'l bilan egallashi mumkin. Birinchidan - kishi musiqa olamini ongli ravishda o'zlashtirib, musiqiy boylikni o'z ma'naviy olamiga ma'lum maqsadni ko'zlab, qabul qila oladi. Bu musiqa bilan oshno bo'lishning asosiy yo'li bilim, musiqa professional faoliyatga aylantirilmagan holda musiqaviy ma'lumot olish bilan amalga oshiriladi. Ko'pincha bu xildagi ma'lumot musiqa maktablari, maxsus kollejlarda, to'garaklarga qatnashish, shuningdek kontsertlar tinglash, musiqali kechalarga borish, maxsus o'quv va tanqidiy adabiyotlarni o'zlashtirish orqali olinadi.¹⁷

Musiqa madaniyatiga uyushmagan har-hil shakllar orqali amalga oshiriladi. Bu keng ma'noda tevarak-atrofimizda doimiy ravishda yangrab turadigan musiqa ohanglaridan iboratdir. Kishi o'zi istagan yoki istamagan holda ana shu sharoitga hayotining har bir qadamida duch kelishi mumkin. Har bir go'dak o'z milliy ohangini ona suti bilan, onasi kuylagan allalar orqali oladi. Barcha an'anaviy va zamonaviy marosimlar doim musiqa ohanglari bilan omuxta bo'lib ketgandir. Biz yashayotgan davrda musiqa g'oyat ko'p qirrali bo'lib, u xalq og'zaki ohanglari, estrada hamda klassik kuylaridan iborat.

Uchinchidan- yuqorida aytilgan ikkala yo'nalishning muayyan ayirish elementlarini o'z ichiga olgan oraliqlardan iboratdir. Bunda tinglovchida musiqa eshitishga ongli qiziqish paydo bo'ladi. Biroq u musiqani bevosita kontsertlarga borib tinglamaydi, balki magnitafon, televidenie orqali o'z qiziqishini qondiradi. Shuning uchun bu yo'l borgan sari katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Aholining asosiy qismi an'anaviy yakka ovozda ijro etiladigan kuy-qo'shiqlar ruhida tarbiyalangan. O'zbekiston musiqa madaniyatida o'zbek bastakorlarining asarlarini targ'ib qilish masalasi alohida ahamiyatga egadir.

Bu jarayonni keng yo'sinda targ'ib qilishda milliy musiqadan ta'lim beruvchi muassasalarning va maorifning alohida o'rni bor. Klassik va zamonaviy musiqa asarlari, musiqa ta'limi mustaqil yurt kishilarini har tamonlama kamol toptirish jarayoniga sezilarli hissa qo'shmoqda. O'zbek madaniyatining o'ziga xos

¹⁶ "Xalq ta'limi" jurnali. T. 1996y 4-son. 3-son. 2006.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 5106-son Farmoni.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

milliy va an'anaviy musiqa xususiyatlarini chuqurroq idrok etishga yanada yordam bermoqda.

Musiqa o'qituvchilarining asosiy maqsadi bolalarga musiqa tarbiyasi orqali musiqiy ta'lim berish, ularning iqtidorini rivojlantirish. Faqat yetuk mutaxassis bolalarni to'g'ri tarbiyalay olishi mumkin. Musiqa o'qituvchilarini har taraflama yetuk shaxs qilib tayyorlashda, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash sifati va samaradorligini oshirishda maktabga, unda o'qitiladigan barcha fanlarga tayanib, musiqa tarbiyasi hozirgi zamon talablariga yangi prinsip va metodikalarga tayangan holda tashkil etilishi zarur. Shu bois talabalar bilan uslubiy yo'naltirish mashg'ulotlari uchun imkoniyatlari oz emas. Ovozni yo'lga qo'yish mashg'ulotlarida esa turli yoshdagi bolalarning tovush xosil qilish va uni saqlash va shakllantirish usullari va imkoniyatlarini ko'rib chiqish zarur.

Musiqa o'qituvchilarining vazifasi bolalarga musiqiy tarbiya berish va ularni qobiliyatlarini rivojlantirish. Musiqa nafaqat estetik zavq olish vositasi, balki boshqa san'at turlaridan ko'proq insonning ma'naviy, axloqiy sifatlarini shakllanishiga ta'sir etadi, degan fikr qadimdan mavjud. Chunki musiqa o'ziga xos vositalar bilan go'zallikni tushunishga, san'atga va hayotga estetik munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Inson musiqa bilan qancha erta tanishsa, uning har taraflama yetuk shaxs bo'lib yetishishiga dadil qadam qo'yiladi. Musiqa tarbiyasi - bu musiqachini emas, birinchi navbatda insonni tarbiyalashdir.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, musiqa maktabi o'quvchilari ko'proq band bo'lishiga qaramay barcha fanlardan yaxshiroq o'qiydilar. Musiqa bilan shug'ullanadigan bolalarda ruxiy jarayonlar, diqqat, xotira, tasavvur, iroda, fikrlash, idrok jadalroq va chuqurroq rivojlanadi.

Bolalarning musiqiy qobiliyatlarini mukammal rivojlantirish uchun, ularni musiqiy faoliyatining turli yo'nalishlariga jalb qilish kerak, ya'ni ritmika mashg'ulotlari musiqiy-ritmik xisning takomillashuviga, yaxshi tashkil etilgan ashula esa tovush bosqichlari va lad xissini chuqurroq rivojlantiradi.

Bolalarda musiqiy qobiliyati boshqalarga nisbatan oldinroq namoyon bo'ladi. Maktab yoshiga kelib, ba'zi xollarda yetarlicha yuqori rivojlangan musiqiy qobiliyati va ritm xissini kuzatish mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, har bir bolada bu jarayon individual, ya'ni o'ziga xos rivojlanadi. Ba'zi bolalarda yorqin namoyon bo'lsa, ba'zilarida asta-sekin faol musiqiy faoliyatlarida ochiladi.

Shu o'rinda musiqa bilan faqat musiqiy qobiliyati bor bolalar shug'ullanishi kerak, degan fikr yanglish yekanligini aytishimiz kerak. Tarbiya jarayonida bolalar

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

faolligiga, shijoatiga, ishga ijodiy munosabatda bo'lishiga katta ahamiyat beriladi. Chunki bolalar o'z faolliklarini namoyon qilishi extimoli bo'lgan pedagogik metodlarni qiziqish bilan qabul qiladilar. Musiqa o'qituvchisi, har bir o'qituvchi kabi, o'z fanini kundalik xayot, dunyoda sodir bo'layotgan voqealar bilan bog'lab olib borishi kerak.

Masalan: Vatan himoyachilari kunida Vatan va Vatanparvarlik haqida qo'shiq kuylaydi.

Mashhur qo'shiqchilar yoki bastakorlarning yubileylarida ularning xayoti va ijodi haqida hikoya qilinadi. Ularning o'zbek milliy madaniyatiga qo'shgan xissasi xaqida ma'lumot beriladi.

Bunday faoliyat maktab dasturidan bir muncha chekinish bo'lsa ham, musiqaga jiddiy qarashga bolalarning dunyo qarashlarini kengayishiga xizmat qiladi. Musiqa o'qituvchilarini metodik adabiyotlarning kamligidan shikoyat qiladilar. Ha hozirgi kunda bunday adabiyotlar kam nashr qilinmoqda. Ma'lumki, musiqiy tarbiya jamiyat hayotining muhim qismidir. U inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib ularning his –tuyg'ularini o'ziga xos badiiy tipda ifoda etadi. Barchamizga ma'lumki kuy-qo'shiqqa, san'atga muhabbat musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg'u asbobi bo'lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni topish qiyin desak mubolag'a bo'lmaydi.

Musiqa madaniyati darslari o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga fikr doirasini kengaytirishga mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Jamoa bo'lib qo'shiq kuylash musiqa ta'limi, Davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish ularda ijodkorlik, mustaqillik , tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi hislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi.

Musiqa tinglash, qo'shiq kuylash va musiqa savodi mashg'ulotlari darsning mustaqil qismi emas, balki dars mavzusini ochib beruvchi musiqa faoliyati sifatida qabul etiladi. Shu bois ham jamoa bo'lib qo'shiq kuylash orqali yosh avlodni ma'naviy dunyosini har tomonlama takomillashtirishda ularda axloqiy tarbiyani kamol toptirishda musiqa madaniyati fani katta ahamiyatga egadir. Manoli qo'shiq va musiqa taronalari tabiiy ohangda yangraganda insonning ma'naviy olami ko'rk ochadi.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

O'qituvchi dars davomida mavzuni tinimsiz tushuntiradi. O'quvchi esa tomoshabin bo'lib o'tiraveradi, darsda o'quvchi ishtiroki sust bo'ladi. Haqiqiy dars bu – o'qituvchi va o'quvchi xamkorligidagi, o'zaro fikr almashuvi bo'lmog'i kerak. Ba'zan o'quvchilar darsga nomigagina kirishadi. Qotib qolgan eski qolipdagi dars uslubi o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ijodiy fikrlashning namoyon etishga halaqit bermoqda, mana shu muammolarni hal qilishda o'qituvchi zamon bilan hamnafas bo'lmog'i va o'qitishning zamonaviy metodlari haqida tushunchaga ega bo'lmog'i kerak.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, yosh avlodga ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan milliy musiqamizni va barcha yuksak san'atlarning badiiy qiymati xaqidagi tushunchalarni ilk yoshdan boshlab singdirishga alohida e'tibor berish juda zarur. Shunda mustaqil O'zbekistonimiz manfaatlariga xizmat qiluvchi, tilini, dinini, tarixiy madaniyatini, adabiyoti va san'atini yuksak darajada biluvchi, uning quvonchi va tashvishi bilan hamnafas yashashga qodir iymon – e'tiqodli munosib farzandlarni tarbiyalashga hissa qo'shgan bo'lardik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", 2017. –
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi №140-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi № 187-sonli Qarori.
4. Mark Feezell. "Music Theory Fundamentals" Copyright. 2011 All Rights Reserved. Learn Music Theory. Net-2011
5. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016.–
6. James Tackett. "Fundamentals of church music Theory" Austin Christian Akappella Musik. Abilene Christian University. 2009.
7. Norenkov I.P., Zimin A.M. Informatsionnie texnologii v obrazovanii: Uchebnoe posobie.–M.: Izd. MGTU im. N.Baumana,2002.–
8. Jabbarov A.X.. O'zbekiston bastakori va musiqashunoslari. O'quv qo'llanma.-Toshkent, 2004. –

Garmoniya fanida talabalar bilimlarini rivojlantirishning samarali shakllari.

Axmedov Sharifjon Mamirdjanovich,
Andijon davlat universiteti pedagogika
San'atshunoslik fakulteti, musiqiy ta'lim kafedrası dotsenti.
sharif.muzic73@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola «Garmoniya» darsining mazmuni va tarkibi, bugungi kun talablaridan kelib chiqqan qator xususiyatlari xaqida. Musiqani dialektik tarzda qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun musiqiy taassurotlarni simultan jarayonlarda shakllantirish shart-sharoitlarini yaratish zarur, bular ijodiy faollik va ijodiy tafakkurni ijrochilik mahorati shaklida rivojlantiradi.

Kalit so'zlar: garmonik tahlil, garmonik tuzilma, garmoniya, modulyasiya, fortepiano, simultan, gomofon.

Abstract: This article is about the content and structure of the Harmony class, along with a number of features that are relevant today. In order to develop the ability to accept music dialectically, it is necessary to create conditions for the formation of musical impressions in simultaneous processes that develop creativity and creative thinking in the form of performing skill.

Keywords: harmonic analysis, harmonic structure, harmony, modulation, piano, simulton, homophone.

Ma'lumki, musiqiy idrok mantiqini egallash, gomofon mavzuning ladotonal tuzilishini his qilish, gomofon tuzilishidagi musiqiy asarlarning tonal va modulyasion garmonik rivojlanish uslublari o'zlashtirish, garmonik tuzilmalar orqali musiqiy fikrni ifodalay olish – har bir malakali musiqachi egallashi zarur bo'lgan malakalar hisoblanadi.

Talabalar diqqat-e'tibori avvalo musiqiy asarlarning badiiy mazmuni, ifodaviylik imkoniyatlari va obrazlilik jihatlariga qaratilishi zarur. Garmoniya fani talabalarda musiqiy asar mazmuni va mantiqini hamda musiqiy koloritni his qilish kabi qobiliyatlarni tarbiyalaydi.

«Garmoniya» Oliy va o'rta maxsus musiqa bilim yurtlarida o'rganiladigan eng murakkab musiqiy-nazariy fanlardan biri. Azimova Orzu Nishonovna tomonidan ishlab chiqilgan «Garmoniya» darsligi [2; 126] mustaqillik davrida ilk marotaba o'zbek tilida yozilgan darslikdir. U bakalavriyat dasturiga muvofiq yozilgan bo'lib, muallifning Toshkent davlat konservatoriyasi musiqashunoslik va

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

ijrochilik fakul'tetlarida «Garmoniya» fanini o'qitish bo'yicha to'plangan tajribasini umumlashtirgan.

Darslikning mazmuni va tarkibi bugungi kun talablaridan kelib chiqqan qator xususiyatlarga ega. Ta'lim jarayonlarining davlat tiliga o'tkazilishi munosabati bilan ma'ruzaviy materiallarning dolzarbligi kuchaydi va ayni paytda maxsus atamalar, asosiy tushunchalarning ta'rifi bilan bog'liq bo'lgan muammolar vujudga keldi. Shuningdek, umumgarmonik qoidalarining O'zbekiston bastakorlari ijodiyotida namoyon bo'lishini o'rgatish zaruriyati tug'ildi. Darslikda o'quv jarayonida tayanch mavzulardan «Garmoniyaning lad asoslari», «Garmonik vertikal», «Modulyasiya», «Ladlarning o'zaro birikishi» kiritilgan.

Tizimli yondashuvning elementlaridan foydalanish, musiqa tarixi va musiqiy-nazariy fanlar o'qitilishida asarlarni tahliliy (analitik) o'zlashtirish metodik tizimini ishlab chiqishning boshlang'ich manbai bo'lib xizmat qiladi. Dialektik metod mazmuni faqatgina musiqa mazmunini tovushlar ohangdoshligi jihatidan emas, balki musiqa mazmunini spetsifik mohiyatini aniqlashga qaratilgan.

«Garmoniya» fani o'quv kursiga kirishishdan avval o'qituvchi o'z oldiga yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni maqsad qilib olishi zarur.

Musiqani dialektik tarzda qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun musiqiy taassurotlarni simultan jarayonlarda shakllantirish shart-sharoitlarini yaratish zarur, bular ijodiy faollik va ijodiy tafakkurni ijrochilik mahorati shaklida rivojlantiradi.

Garmoniya fani o'qitilishi jarayonida yuqorida ko'rsatib o'tilgan nazariy fikrlarga amal qilinmagan, shuning uchun garmoniya fani o'qitish tizimi, shakl va metodlari qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

«Garmoniya» fanini o'qitishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

- a) «Garmoniya» fanini musiqiy obrazning shakllanishi jarayonida qo'llanilishi nuqtai nazaridan o'rganish;
- b) garmonik ko'rinishdagi asarlarni bir butun intonatsion-mazmun jihatdan tahlil manbai sifatida o'rganish;
- v) garmoniyadagi turli musiqiy usullarning erkin yo'nalishini ishlab chiqish;
- g) garmoniya tushunchalarini murakkab tashkillashtirilgan bir butun ierarxik (oddiydan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi) tizim va yanada yuqori tizim elementining bir darajasi sifatida shakllantirish.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Yuqorida sanab o'tilganlar bilimlarni jadal o'zlashtirishni ta'minlovchi va ijodiy tafakkur malakalarini shakllantiruvchi metodlar orqali amalga oshiriladi.

Oliy ta'limda «Garmoniya» kursini o'qitish shakli – darslardir.

Garmoniyadan darslar guruh shaklida olib boriladi. Guruhda talabalar soni 10-12 tadan oshmasligi kerak. Chunki garmoniya darslari guruh shaklida bo'lishiga qaramay talabalar bilan ishlashga individual yondashuv talab qilinadi.

Mashg'ulotlar mazmuni va tuzilishiga ko'ra ham amaliy, ham nazariy ko'rinishda quyidagi tartibda olib boriladi: uyga berilgan vazifani, o'zlashtirilgan nazariy-amaliy bilimlarni tekshirish; yangi materialni ham nazariy, ham amaliy shaklda talabalarga yetkazish; mashg'ulot davomida amaliy mashqlar orqali mavzuni mustahkamlash; fortepianoda ijro qilish va vaqti-vaqti bilan nazorat ishlari olib borish; uyga vazifa berish.

«Garmoniya»dan o'quv mashg'ulotlari talabalar uchun qiziqarli, tushunarli, mantiqan mazmunli bo'lishi kerak. Asosiy e'tibor mashg'ulotlarning musiqiy shaklda, ko'rgazmali (illyustrativ) bo'lishiga qaratilishi lozim. Har bir berilgan ma'lumot o'qituvchi ijrosida yoki texnik vositalar yordamida eshittirilishi lozim, bu nazariy qonun-qoidalarini talaba ongiga yetib borishini osonlashtiradi.

O'quv mashg'ulotlar mazmuni talabalarda ijodiy tafakkur, musiqiy-nazariy dunyoqarashni shakllantirishga qaratilishi kerak.

«Oliy o'quv yurtlarida talabalarning bilim va malakalarini hisobga olish pedagogik faoliyatning asosiy tashkiliy qismlaridan hisoblanadi. Talabalar o'zlashtirishini to'g'ri va o'z vaqtida nazorat qilib turish ularda fanga bo'lgan munosabatlarini, qo'yilgan talablarga nisbatan ma'suliyatni va berilgan materialni o'zlashtirish imkonini yaratadi»[3; 12].

Garmoniya darslari asosan quyidagi elementrlardan tashkil topadi: uyga berilgan vazifani tekshirish, yangi material bilan tanishtirish, olingan bilim va malakalarni mustahkamlash. Ushbu elementlardan dars davomida turli ketma-ketlikda foydalanish talabalar faolligini oshiradi. Shuningdek, yangi texnologiyalardan foydalanish darslarning bir xilda ko'rinish hosil qilishining oldini oladi.

Uyga berilgan yozma vazifalarni ikki xil variantda tekshirish mumkin:

- 1) dars davomida fortepianoda ijrochilik bilan tekshirish;
- 2) o'qituvchi uyda tekshirib, keyingi darsda talabalarga umumiy natijalarni yetkazishi.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Birinchi variantdagi nazoratda yozma ishlarni tez va aniq tahlil qila bilish; xato-kamchiliklarni tez aniqlash; tegishli ko'rsatmalar berish; muvaffaqiyatli joylarini ta'kidlab ko'rsatish kabilarni qamrab olib, talabalarga ko'proq ta'sir ko'rsata oladi, lekin katta pedagogik mahorat talab qilinadi. Bundan tashqari guruhdan ham yetarli darajadagi tayyorgarlikka ega bo'lish talab qilinadi. Talabalardan birining ishi tahlil qilinayotgan vaqtda qolgan talabalar ham royal yonida pedagog maslahatlariga quloq solib turishlari, o'zlari uchun tegishli xulosalar chiqarishlari, yoki o'qituvchi tomonidan topshirilgan individual topshiriqlarni bajarishlari mumkin.

Uyga berilgan vazifalarni tizimli ravishda doimo tekshirib turish talab qilinadi. Ayniqsa, fortepianoda ijro etish bo'yicha berilgan topshiriqlarda tizimlilik juda muhim o'rin tutadi. Tizimlilik tamoyili buzilishi ko'p jihatdan talaba o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning oldini olishning birdan-bir usuli har bir talaba bilan har darsda individual ravishda qisman bo'lsa ham shug'ullanib turishdir. Shu bilan birga, talaba qobiliyatiga qarab maqsadli talabchanlikni qo'llash zarur.

Garmonik tahlil bo'yicha uyga berilgan vazifalar talabalarga nisbatan yengil ko'rinishi mumkin, chunki bunda fortepianoda chalish ham, nota matnini yozish ham talab qilinmaydi. Lekin garmonik tahlil faoliyatida akkordlarning musiqiy asardagi ifodaviylik vositasi sifatidagi o'rnini tahlil qilinishiga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Musiqiy asarning nafaqat nazariy tomonlari, balki, badiiy jihatlari ham tahlil qilinishiga erishish lozim.

Amaliy mashg'ulotlarning eng muhim elementlaridan biri mashqlar bajarishdir. Bu avvaldan pedagog tomonidan rejalashtirilgan melodiyaning talabalar tomonidan doskada garmoniyalash yoki fortepianoda garmoniyalash, chalish va garmonik tahlil qilish bo'lib, talabadan maxsus tayyorgarlik talab qilinmaydi. Bu faoliyat yangi mavzuni mustahkamlashga qaratilishi va pedagog nazorati ostida talabalar tomonidan mustaqil bajarilishi lozim. Bu faoliyat natijalari orqali pedagog talabalar yangi mavzuni qanchalik o'zlashtirganliklari haqida to'liqroq ma'lumotga ega bo'ladi va o'z pedagogik faoliyatiga ob'ektiv baho beradi.

Talabalar bilim va malakalarini rivojlantirishning yana bir samarali shakllaridan biri yangi mavzuni tushuntirish faoliyati hisoblanadi. Ushbu faoliyat deyarli har darsda ma'lum bir mavzuni qismlarga bo'lib yetkazish, uni amaliy tarzda mustahkamlashni ham talab etadi. Masalan, mavzuning nazariy qismini bir darsda, amaliy qismini boshqa bir darsda bergandan ko'ra, uni qismlarga bo'lib, nazariyani amaliy jihatdan mustahkamlash yaxshi natija beradi.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Alohida e'tiborni ta'riflash shakllariga qaratish lozim. Hyech qachon qonun-qoidalar va ta'qiqlashlarni bayon qilish bilangina cheklanib qolmaslik kerak. Qonuniyatlarning amaliy qo'llanilishi haqidagi ma'lumotlar illyustrativ holda turli bastakorlar asarlari misolida ko'rsatib o'tilishi muhim. Zarur qonuniyatlarni qisqa va tushunarli tarzda konspektlashtirish uchun pedagog aniq ibora va so'zlardan foydalanishga harakat qilishi kerak.

Talaba konspektiga imkoniyat darajasida kamroq so'zlar bilan ifodalangan qonuniyatlar, notalar, misollar, pedagog ko'rsatmalari, iqtiboslar yozilishi kifoya. Shuning uchun talabalar nota daftarlaridan foydalanishi maqsadga muvofiq.

Garmoniya darslarida pedagog musiqiy illyustratsiyaning ikki xil shaklidan foydalanishi mumkin; bular musiqiy asarlar namunalari yoki sxematik garmonik tuzilmalar bo'lishi mumkin. Musiqiy asar namunalari aynan mavzu asosida bo'lishi, nazariy fikrlashlarni tasdiqi sifatida berilishi zarur. Berilgan asarlardan sitatalar yoki sxematik garmonik tuzilmalarining fortepianoda ijro etish – talabalar ijodiy tayyorgarligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir.

Oliy o'quv yurtlarida talabalarining bilim va malakalarini hisobga olish pedagogik faoliyatning asosiy tashkiliy qismlaridan hisoblanadi. Talabalar o'zlashtirishini to'g'ri va o'z vaqtida nazorat qilib turish ularda fanga bo'lgan munosabatlarini, qo'yilgan talablarga nisbatan ma'suliyatni va berilgan materialni o'zlashtirish imkonini yaratadi»


Yakuniy nazoratlarda nazariy bilimlar bilan birgalikda ijodiy fikrlash, improvizatsiya va yaratuvchanlik ham talab qilinishi yanada yaxshi natijalarga erishishning asosiy omillari bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saipova D.Yu. Musiqiy nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shaxsini shakllantirish (bolang'ich sinflar misolida). Ped.fan. nomz. ilmiy dar. olish uchun yozilgan diss... 13.00.01. – Toshkent: 2006. – 198 b.
2. Azimova O. Garmoniya Oliy o'quv yurtlari musiqa sohasi bakalavrlari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. –126 b.
3. Sami Aziz. Garmoniya: Oliy o'quv yurtlari musiqa sohasi bakalavrlari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 12 b.
4. Soipova D. Musiqa madaniyati darslari o'qituvchisiga qo'yiladigan asosiy talablar. / Yosh istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarning kasbiy mahoratini oshirish muammolari. Respublika ilmiy seminari materiallari. – Toshkent: MChJ «Asr-Matbuot». 2004. –233-238 b.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

5. Тригулова А. Формирование готовности студентов педвуза к обучению и воспитанию младших школьников средствами музыки. Автореферат. Дисс. канд. пед. наук. –Тошкент: 1994. – 20 с.
6. Tursunov R. Xalq musiqa ijodiyoti va adabiyoti. – Toshkent: Ma'rifat-Madadkor, 2002. – 80 b.
7. Романова Л.Л. Формирование готовности студентов вуза к профессиональной деятельности учителя музыки. Автореф. Дисс... канд. пед. наук. – Москва: 1992. – 17 с.
8. Романова Л.О. Формирование у студентов творческого отношения к усвоению профессиональных знаний. Автореф. Дисс... канд. пед. наук. – Москва: 1993. – 22 с.



УДК 378.578

ВЛИЯНИЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА УСВОЕНИЕ STEM-ПРЕДМЕТОВ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Мурзакулова Ч.

*преподаватель кафедры музыкального образования и методики преподавания
Ошского государственного педагогического университета,
Кыргызстан*

Аннотация: в статье рассматривается влияние музыкального образования на усвоение STEM-предметов (наука, технологии, инженерия и математика) у учащихся начальной школы. Авторы исследуют, как интеграция музыкальных элементов в образовательный процесс может способствовать развитию навыков, необходимых для успешного освоения STEM-дисциплин. Анализируются результаты эмпирических исследований, проведенных в различных образовательных учреждениях, и подчеркивается положительное влияние музыкальной деятельности на когнитивные способности, творческое мышление и мотивацию учащихся. Кроме того, изучается взаимосвязь между музыкальным образованием и уровнем успеваемости в STEM-предметах, а также возможные методические подходы к интеграции музыки в обучение. Статья содержит рекомендации для педагогов и руководителей образовательных программ по внедрению междисциплинарных подходов, способствующих улучшению образовательных результатов в начальной школе. Исследования показывают, что дети, занимающиеся музыкой, имеют более высокие показатели в тестах по математике. Это связано с тем, что музыкальные упражнения могут улучшать навыки работы с числами и пространственными представлениями.

Ключевые слова: музыкальное образование, STEM-предметы, начальная школа, уровень усвоения, когнитивное развитие, математические способности, научные концепции, связь музыка и математика, музыкальные навыки, интеграция предметов, творческое мышление.

Kalit so'zlar: musiqa ta'limi, STEM fanlari, boshlang'ich maktab, o'zlashtirish darajasi, kognitiv rivojlanish, matematik qobiliyatlar, ilmiy tushunchalar, musiqa va matematika aloqasi, musiqiy mahorat, mavzu integratsiyasi, ijodiy fikrlash.

Abstract: The article examines the impact of music education on STEM (science, technology, engineering, and mathematics) learning in primary school students. The authors explore how integrating music into the educational process can contribute to the development of skills necessary for successful mastering of STEM subjects. The results of empirical studies conducted in various educational institutions are analyzed and the positive impact of music activities on students' cognitive abilities, creativity, and motivation is emphasized. In addition, the relationship between music education and academic achievement in STEM subjects, as well as possible methodological approaches to integrating music into education are examined. The article provides recommendations for teachers and educational program leaders on the implementation of interdisciplinary approaches that contribute to improving educational outcomes in primary schools. Research shows that children who engage in music have higher scores in mathematics tests. This is due to the fact that musical exercises can improve skills in working with numbers and spatial representations.

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

Key words: music education, STEM subjects, primary school, level of acquisition, cognitive development, mathematical abilities, scientific concepts, music and mathematics connection, musical skills, subject integration, creative thinking.

В последние десятилетия усилилось внимание к междисциплинарным подходам в образовании, где STEM (наука, технологии, инженерия и математика) предметы взаимодействуют с другими областями, такими как искусство и музыка. Исследования показывают, что музыкальное образование может позитивно влиять на усвоение STEM-предметов, особенно у детей в начальной школе. Музыкальное обучение связано с развитием различных когнитивных навыков. Изучение музыки требует от учащихся концентрации, памяти и аналитического мышления. Эти навыки могут быть использованы и в STEM-дисциплинах. Например, игра на музыкальном инструменте развивает моторику и внимание, что также полезно при решении математических задач или проведении научных экспериментов. [1,3]

Музыка в значительной степени основана на математических принципах, таких как ритм, метрика и пропорции. Освоение музыкальных структур может помочь детям лучше понять математические концепции. Исследования показывают, что дети, занимающиеся музыкой, имеют более высокие показатели в тестах по математике. Это связано с тем, что музыкальные упражнения могут улучшать навыки работы с числами и пространственными представлениями. Работа в музыкальных ансамблях или оркестрах способствует развитию социальных навыков, таких как работа в команде и коммуникация. Эти навыки крайне важны в области STEM, где часто требуется сотрудничество для решения сложных задач. Дети, умеющие взаимодействовать с другими, легче справляются с проектами, требующими коллективных усилий [2,4]

Креативность, стимулируемая музыкальным образованием, может быть полезной и в STEM-дисциплинах. Инженеры, ученые и математики часто сталкиваются с проблемами, требующими нестандартных решений. Музыкальные занятия могут натренировать мозг находить новые и инновационные подходы, что необходимо для успешного решения задач в науке и технологии. Музыка способствует улучшению эмоционального фона, что может привести к большему интересу к учебному процессу. [5]

Современный мир ставит перед школьником сложные задачи, всё больше растут требования, объём знаний, которые нужно запомнить не механически, а осмысленно. К сожалению, в настоящее время, всё больше детей приходят не готовые к обучению в школе, интеллектуальное развитие у многих отстаёт от темпа роста объёма знаний. Первоклассники приходят в школу с большими логопедическими проблемами. Дети и даже взрослые перестали читать книги, совместно посещать библиотеки. Интеллектуальные способности многих учащихся находятся на низком уровне, что затрудняет процесс усвоения учебного материала. Учебные программы новых Федеральных Государственных образовательных стандартов рассчитаны на учеников с хорошо развитым интеллектом.

Более высокий результат успеваемости имеют те дети, которые занимаются музыкой. Эти дети имеют разносторонние интересы, занимаются в спортивных секциях, участвуют в олимпиадах и научно-проектной деятельности. Музыка играет огромную роль в развитии интеллектуальных способностей школьника, которые являются предпосылкой развития творчества и устойчивой жизненной позиции ребёнка. Умение

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

слышать и слушать классическую музыку, напрямую влияет на развитие интеллекта у школьника. Об этом всё больше говорят научные исследования.

«Ребенка надо приучать к музыке даже против его желания» - такое мнение высказала на своей лекции Татьяна Черниговская, один из самых авторитетных ученых в области нейронауки, Доктор биологических наук, профессор СПбГУ. «...Что, если мозг человека условно назвать мышцей, то как раз лучшей для неё гантелей будет музыка», говорит Татьяна Черниговская. Она связывает работу мозга «с джазовой импровизацией, так ведут себя нейроны, когда пытаются решить проблему...» «В каждом из нас играет джаз! Надо, если не играть, то хотя бы слушать джаз! Сложная музыка для человека полезна!»

«Математика и музыка – очень похожие вещи. Для того, кто в состоянии понять формулы, они необыкновенно красивы и вызывают такие же эстетические восторженные чувства, какие у других – музыкальное произведение...»

«Как известно, Эйнштейн играл на скрипке и утверждал, что если бы не стал физиком, то был бы музыкантом, что видит жизнь в музыкальном аспекте. И это не было для него способом отдохнуть, это было важной частью его ментального и духовного пространства. Он говорил: «Интуиция – священный дар, разум – покорный слуга». [3,5]

У детей, занимающихся музыкой, чаще наблюдается высокая мотивация и положительное отношение к обучению, что может снизить уровень стресса и повысить усвоение учебного материала. Таким образом, влияние музыкального образования на усвоение STEM-предметов в начальной школе трудно переоценить. Музыка не только развивает когнитивные навыки и креативность, но и способствует формированию социальных компетенций и эмоционального здоровья. Интеграция музыкального образования в учебный процесс может быть эффективным способом повышения общего уровня успеваемости детей в STEM-дисциплинах, делая обучение более увлекательным и продуктивным. Музыка – феноменальное явление. Ее взаимоотношения с человеком удивительны. Мелодичные звуки вершат чудеса – в человеке пробуждается, преобразуется душа, меняются состояния, настроения. Музыка властвует над нашими эмоциями, которые побеждают даже физическую боль.

Использованная литература:

1. Музыкальная литература зарубежных стран. Выпуск 4. - М.: Музыка, 2010. - 704 с.
2. Берков, В. О. Гармония. Учебник / В.О. Берков. - М.: Ленанд, 2015. - 680 с.
3. Назайкинский, Е. В. Стиль и жанр в музыке / Е.В. Назайкинский. - М.: Владос, 2003. - 248 с.
4. Смелкова, Т. Д. Основы обучения вокальному искусству. Учебное пособие / Т.Д. Смелкова, Ю.В. Савельева. - М.: Лань, Планета музыки, 2014. - 160 с.
5. Цукер, А. М. Отечественная массовая музыка. 1960-1990 гг. Учебное пособие / А.М. Цукер. - М.: Лань, Планета музыки, 2016. - 256 с.

**IJRO TEXNIKASINI RIVOJLANTIRISHDA MASHQLAR VA ETYUDLAR USTIDA
ISHLASH USULLARI**

Axmedov Sharifjon Mamirdjanovich

Andijon davlat universiteti

Pedagogika va San'atshunoslik fakulteti

Musiqiy ta'lim kafedrası dotsenti.

sharif.muzic73@mail.ru

Annotatsiya: Yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda fortepiano musiqiy ta'limning muqim bo'laklaridan biri hisoblanadi. Forteplano kursining asosiy vazifalaridan biri ijrochi - musiqachini xar tomonlama rivojlantirish, kasbiy o'qitishning zamonaviy talablariga javob beradigan bilimlarni uz ichiga olishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: fortepiano, instrumental tekst, ekspozisiya, ritm, etyud, interval, melizm, orkestr.

Ijro texnikasini rivojlantirish uchun mo'ljallangan materialning tarkibiy qismlaridan biri bu turli xil mashqlar. Ular, odatda, har qanday tovushli formulani takroriy takrorlashga asoslanadi va quyidagi maqsadlarga ega: a) instrumental tekstning eng namunaviy namunalarida ijro etish tajribasini to'plash; b) ijrochi tanasining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish. Mashqlar ijrochiga oldidagi texnik vazifani yaxshiroq tushunishga va unga ongli ravishda jismoniy moslashishga yordam beradi, uni hal qilish uchun kerakli musiqiy, eshitish va motor sezgilarini topadi.

Mashqlarning umumiy ahamiyati shundan iboratki, ularning yordami bilan tayyorlangan bu yoki boshqa turdagi ekspozisiyalar musiqachiga yakka, kamerali yoki orkestr asarlarida texnik jihatdan qiyin bo'lgan joylarni bajarilishini oldindan bilishga yordam beradi va shu bilan ularni o'rganish jarayonini qisqartiradi. Shuning uchun, shamol asbobida mashq qilishni birinchi yillaridan boshlab, o'quvchini mashqlar ustida muntazam ishlashga ko'niktirish muhimdir, shu bilan birga mexanik ma'nosiz siqilishlarga emas, balki ularning ongli rivojlanishiga.

Ruhiy musiqachilarning zamonaviy ijrochilik va pedagogik amaliyotida turli xil mashqlar qo'llaniladi. Bularga quyidagilar kiradi: doimiy tovushlar, tarozilar, arpeggiated triadlar va ettinchi akkordlar, barmoqlarni maxsus barmoq bilan

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

buralish, har xil intervaldagi ritmik va urish mashqlari, melismani o'zlashtirish uchun mashqlar va boshqa mashqlar.

O'quvchilarning har qanday jismoniy mashqlar bo'yicha ishini tashkil qilishda quyidagi ko'rsatmalarga e'tibor qaratish lozim.

a) har qanday mashqda hal qiluvchi rol maqsadni belgilashni tushunish, ya'ni ijrochining diqqatini va o'yin harakatlarini kerakli bajariladigan vazifani aniq bajarishga yo'naltirish qobiliyati;

b) mashqlarni har kuni bajarish kerak, chunki ular ustida epizodik ishlar kam amaliy natijalarga olib keladi;

c) kundalik mashqlar xilma-xil bo'lishi kerak, ya'ni barcha texnik formulalarni qamrab olishi kerak, bunda ushbu ijrochining rivojlanishi zarur bo'lgan bo'limlarga alohida e'tibor qaratilishi shart.

d) har bir mashq tekis, chiroyli ovozda ijro etilishi kerak, chunki aks holda etyudlar va pyesalarda yaxshi ovozga erishish qiyin;

e) barcha mashqlarni juda ritmik tarzda bajarish kerak, shunda ularning har qandayida aniq ijro ritmik tashkil etilishi seziladi;

f) har bir mashqda ma'lum qiyinchiliklar bo'lishi kerak va shu bilan birga o'yinchi uchun imkoni bor.

Qanday mashq bajarmasin (masalan, gamma yoki arpegioning texnik jihatdan qiyin bo'lgan qismi, alohida o'tish joyi, ishdagi qiyin joy va hk), unda ishlash jarayoni sekin boshlang'ich ijro etishga, barcha tafsilotlarni tushunishga, ovoz va motorni o'zlashtirishga asoslangan bo'lishi kerak. jismoniy mashqlar mohiyati. Shu bilan birga, mashqlarni bajarish har bir tovushni doimiy ravishda eshitishning mustaqil monitoringi bilan bog'liq bo'lishi kerak va takroriy takrorlash tufayli barcha o'yin harakatlarini asta-sekin avtomatlashtirishga olib keladi.

Kundalik mashqlarning yaqqol foydasiga qaramay, ba'zi o'quvchilar (va ba'zida ba'zi o'qituvchilar) "mashqlar o'yinni quritadi" va texnologiyani rivojlantirish uchun etyudlar va musiqiy asarlarni o'ynash kifoya deb o'ylab, o'zlarining qadr-qimmatini kamaytiradilar. Bu qarash shubhasiz noto'g'ri va shuning uchun. Etyudlar va pyesalarni ijro etayotganda, ijrochining diqqatini bir texnik formuladan ikkinchisiga o'tishga, bir vaqtning o'zida ko'plab ishlash tafsilotlarini kuzatishga majbur qiladi. Jismoniy mashqlar, o'z navbatida, o'yinchining e'tiborini tor maqsadga yo'naltiradi, asosan bir xil texnik formulalar doirasidagi harakatlarni

3-sho'ba: Musiqa san'ati va uni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

muvofiglashtirish, bu ko'p marotaba takrorlanib, ijrochiga xotira va jismoniy sezgilarda orttirilgan ko'nikmalarni birlashtirishga imkon beradi. Shu sababli zamonaviy musiqa pedagogikasi mashqlarni o'quvchilarni texnik rivojlanishi uchun muhim va samarali vosita deb biladi.

Tizimli mashqlardan tashqari, texnik mahoratni rivojlantirish uchun etyudlar bo'yicha maxsus ishlarni ham qo'llash kerak.

